

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OILY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

U. SAIDOV, Z. NIG'MATOVA,  
SH. SHAMSIYEV

**KUTUBXONASHUNOSLIK  
VA BIBLIOGRAFIYA  
ATAMALARINING IZOHLI  
LUG'ATI**

*O'zbekiston Respublikasi  
Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi nashrga tavsiya  
etgan*

O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti  
TOSHKENT – 2006

**Saidov U.**

**Kutubxonashunoslik va bibliografiya**

atamalarining izohli lug‘ati/ U.Saidov, Z.Nigmatova,  
Sh. Shamsiyev; O‘zR. oliv va o‘rta maxsus ta’lim  
vazirligi; Mas’ul muharrirlar: A. Rafiyev, Sh. Rizayev.  
- T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2006. - 224 b.

**BBK 78**

1. Nigmatova Z., Shamsiyev Sh.

**Mas’ul muharrirlar:**

**RAFTYEV A.A.** – filologiya fanlari nomzodi, dotsent,  
**RIZAYEV SH.T.** – filologiya fanlari nomzodi.

Ushbu izohli lug‘atda kutubxonashunoslik va bibliografi-yaga oid zamonaviy atamalarning izohi tushunarli qilib, ixcham bayon etilgan. Zarur o‘rinlarda atamaning xalqaro tildagi varianti va ma’nodosh muqobili ham ko‘rsatilgan.

Izohli lug‘at amaliy qo‘llanma sifatida ushbu soha xodimlariiga, madaniyat o‘quv yurtlarining talablari va o‘qituvchilarga, qolaversa, barcha ziyorilarga asqotadi.

**Taqrizchilar:**

**JOMONOV R.** – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

**QODIROV B.N.** – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi bosh kutubxonasi direktori.

## K I R I S H   S O' Z I

Hayotimizda yuz bergan misli ko'rilmagan tarixiy o'zgarishlar barcha fanlarning mohiyatini, asosiy qoidalarini qayta ko'rib chiqishni, ulardagi yangicha tahlil va talqin qilishni taqozo etmoqda. Hozirgi kunda barcha ijtimoiy fanlar bo'yicha davr ruhiga mos o'zgarishlarni aks ettiradigan darsliklar, qo'llanmalar va yangi dasturlar yaratishga kirishildi. Afsuski, kutubxonachilik va bibliografiya-shunoslik borasidagi yaratilayotgan darsliklar, o'quv-uslubiy qo'llanmalarda, hatto ommaviy matbuotda ham ko'pgina so'zlarning tushunchasi, ma'no ifodasi noto'g'ri talqin qi-linmoqda. Aslida boshqa fanlar qatori kutubxonashunoslik va bibliografiyashunoslikda ham ma'naviy jihatdan eskirib qolgan va iste'moldan chiqarilishi zarur bo'lган yoki yan-gicha talqinga muhtoj bo'lган so'zlar ko'p. Shu kungacha kutubxonachilik sohasida o'zbek tilida bironta ham izohli lug'at yaratilmaganligi, ko'pchilik tomonidan talay iboralarni, so'zlarni, tushunchalarni noto'g'ri talqin qilinishiga olib kelmoqda. Respublikamizda kutubxonashunoslik va bibliografiyashunoslik kabi fanlar uchun asos bo'lган soha bo'yicha hanuzgacha davlat o'lchovi (standart) ishlab chiqilmagan. Shunga ko'ra kutubxonachilik va bibliografiyashunoslik ishini mustaqil davlatimiz talablariga muvofiqlashtirish maqsadida kutubxonachilik atamalarining izohli lug'atini yaratish zaruriyati tug'ildi. Ushbu zaruriyatdan kelib chiqib, kutubxonashunoslikning eng so'ngi yangiliklarini hisobga olgan holda lug'at yaratildi.

Lug'atni yaratishda rus tilida oldin mavjud bo'lган lug'atlar tanqidiy ravishda o'rganildi. Ba'zi tushunchalar xalqaro so'zlardan iborat bo'lганligi va mazkur kasb mu-taxassislari tilida faol qo'llanilayotganligi uchun ularni asliga muvofiq tarzda saqlab qolishga harakat qilindi.

Ushbu lug‘atni yaratish jarayonida ba’zi bir atamalarning, masalan, “katalog”, “indeks”, “sistema”, “abonnement”, “kolontitul” kabi shu bilan birga ayrim baynalmilal so‘zlarni matndagi ma’no ifodasini nazarda tutgan holda imkon qadar davlat tilida berilishiga e’tibor qilindi. Masalan, “psixologiya” so‘zi “kitobxonlik ruhiyatiga” tarzida berilish maqbul ko‘rildi. Ayrim o‘rinlarda esa atamaning o‘zbekcha variantidan so‘ng qavs ichida amalda keng qo‘llanadigan ruscha ifodasini berish o‘rinli deb topildi. (kutubxona nafosati (estetikasi), “kutubxona plakati” (peshkog‘ozsi) va boshqalar).

SHu bilan birga qo‘llanmaga hozirda keng qo‘llanilayotgan va avtomatlashtirilgan kutubxona sistemasiда tadbiq etilgan xalqaro atamalar va internetdan olingan iboralar kiritilgan.

Lug‘at maqolachalarining bu tarzda keltirilish birin-chidan undan foydalanuvchi mutaxassislarqa qulaylik yaratsa, ikkinchidan kutubxonachilik sohasida davlat tilida ish yuritishga o‘tilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ushbu lug‘at respublikamizda kutubxonachi-bibliograf-larga hamda madaniyat xodimlariga, oliy o‘quv yurti va kollejlar talabalariga, o‘qituvchi-professorlarga ozmi-ko‘pmi yordam berar degan umidda yaratilgandir.

Aminmizki, ushbu lug‘at qo‘llanmasi kutubxonashunoslik va bibliografiyashunoslik sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi mutaxassislarqa yaqin ko‘makdosh bo‘lib qoladi. Mazkur izohli lug‘at bu borada o‘zbek tilida yaratilgan yangi qo‘llanma bo‘lganligi sababli kamchiliklardan xoli emasligi tabiiy. Tuzuvchilar lug‘atdan foydalanuvchilardan bu boradagi taklif va istaklarini minnatdorchilik bilan qabul qiladilar.

## -A -

### ABBREVIA- TURA -

Qisqartma. Nom anglatuvchi ot birikmasidagi so‘zlarining bosh harfini yoki uni tashkil etuvchi so‘zlarining biror qismini olish yo‘li bilan hosil qilingan qisqartma ot. Masalan: BMT - Birlashgan Millatlar Tashkiloti. AIT - Axborot izlash tizimi.

### ABZATS -

Satr boshi. 1. Xat boshidan biroz joy qoldirish bilan belgilanadigan eng kichik kompozitsion qism. Bir necha iborat matn-da ular ma’no jihatdan o‘zaro bog‘langan bo‘lishi kerak.  
2. (satr) boshi - matnning birinchi satridan ochiq qoldirilgan joy.

### ABONEMENT-

Ma’lum bir muddatga va ma’lum bir shart asosida bosma asarlarni va boshqa hujjatlarni kutubxonadan tashqariga berishni ko‘zda tutuvchi yakka tartibda hamda jamoa bo‘lib kitobxonlarga xizmat ko‘rsatish.

### ABONEMENT KARTOCHKASI -

Abonent nomlari (raqami) va u haqda ma’lumotlar qayd etilgan rasmiy qabul qilingan varaqsha shakli. Abonent kartochkasida adabiyotning kutubxonadan olingan va u yerga qaytarib berilgani haqidagi ma’lumotlar qayd etilishi mumkin. U kutubxonalararo abonementda keng qo’llaniladi.

## **ABONENTLAR**

### **GURUHI-**

Yoshi, ma'lumoti, kasbi va boshqa belgilariiga ko'ra farqlanadigan kitobxonlar guruhlariga moslashtirilgan holda xizmat ko'rsatiladigan abonement.

## **AVANTITUL-**

Nashrning titul varag'idan oldin joylash tiriladigan va kompozitsion bezak ifodasi bo'lgan birinchi beti, odatda nashrga oid ma'lumotlarni - nashriyot belgisini, seriya nomini, muallif ismini va asarning sarlavhasini, ba'zan epigrafni, shiorni o'z ichiga oladi.

## **AVTOMATLASHTI-RILGAN AXBOROT IZLASH TIZIMI**

### **(AAIT)-**

Elektron hisoblash texnikasi asosida amalga oshirilgan axborot izlash tizimi.

## **AVTOMATLASHTI-RILGAN KUTUBXONA TIZIMI (AKT)-**

1. Alohida kutubxona yoki kutubxonalar tizimidagi kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirishni ta'minlovchi tashkiliy, axborotli, texnik va algoritmik dasturlashtirilgan vosita majmuasi.
2. Texnologik jarayonlarni qisman yoki to'liq avtomatlashtirilgan kutubxona tizimi.

## **AVTOREFERAT-**

Asar bilan dastlabki tanishuv uchun qo'lyozma huquqida bosib chiqarilgan, muallif tomonidan tayyorlangan ilmiy ishning qisqacha bayoni: dissertatsiya avtoreferati.

**ADABIYOT-** Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yozma asar.

**ADABIY O'YIN-** Yozuvchi ijodi yoki badiiy asar haqidagi ma'lumotni ma'lum qoida asosidagi o'yin tarzida berish. Adabiy o'yining bahs-ko'rik, munozara, muhokama, adabiy anjuman kabi turlari mavjud.

**ADABIY - BADIY**

**NASHR-**

Badiiy adabiyot asarlaridan tashkil topgan nashr.

**ADABIY KECHA-**

Adabiy mavzudagi ma'ruza va badiiy qismdan tashkil topgan ommaviy tadbir.

**ADABIYOTNI**

**TUSHUNISH-**

O'qish jarayonida amalga oshiradigan va badiiy adabiyotning mazmuni va shaklini aks ettirishga qaratilgan kitobxoning murakkab ruhiy faoliyati.

**ADABIYOTLAR**

**TANLOVI-**

Kutubxona fondidagi adabiyotlarni olish va saqlashning maqsadga muvofiqligini majmualashtirish jarayonidagi aniqlash yo'sini. Tanlash mezonlari: adabiyotning ilmiy, tarixiy, badiiy qimmati, fondining asosiy sohasiga ko'ra to'g'ri kelish-kelmasligi, kitobxonlar talabi va kutubxonaning vazifalari.

**ADABIY TO'PLAM-** 1. Tarkibiga ko'ra keng kitoblar ehtiyojlariga mos bo'lgan kitoblarning sistemashtirilgan majmuasi (ehtiyojlarni o'rghanish maqsadida amalga oshiriladi).

2. Adabiy-badiiy asarlardan iborat bo'lgan alohida bosma nashr.

## **ADABIY BAHS .**

Kitobxonlar adabiyotining turli sohalariga tegishli bo'lgan savollarga javob bera-digan adabiy o'yin turi. Kutubxonalarda ommaviy-tashviquy ishlarning bir shakli sifatida qo'llaniladi. Qarang: munozara.

## **ADABIYOTLAR KO'RGAZMASI-**

Adabiyotni ko'rgazmali targ'ib etishning asosiy shakli-maxsus saralangan va sistemalashtirilgan kitobxonga tanishtirish va sharhlash uchun tavsiya etiladigan bosma asarlar majmui.

## **ADABIYOTLAR MA'LUMOT- NOMASI-**

Yo'l ko'rsatkich – shu mavzu bo'yicha bibliografik axborotning birlamchi huj-jatlari va manbalari haqidagi ma'lumotlar bilan turlicha uslubiy maslahat va tavsiyanomalarini o'zida qo'shib bergen bibliografik qo'llanma.

## **ADABIYOTGA BU-**

**YURTMA BERISH** - Bosishga tayyorlanayotgan nashrlarga talabnomani rasmiylashtirilgan yo'l bilan fondni kundalik komplektlashtirishni tashkil etish usuli. Adabiyotga beriladigan buyurtma nashrlar chiqarishning annotatsiyasi berilgan mavzu rejasi va kitob savdo byulleteni asosida tuziladi. Kitob savdo tarmog'i orqali markazlash-gan holda amalga oshiriladi.

## **ADABIYOTLARNI**

### **TARG‘IB QILISH -**

Bosma asar haqidagi ma’lumotlarni kitobxonlarning madaniy darajasini oshirish, o‘qishga rahbarlik qilish, ongi va xatti-harakatiga ta’sir o’tkazish maqsadida keng yoyish. Kutubxonada adabiyotni targ‘ib qilish, kitobxonlar bilan yakka va ommaviy tarzda ishlashning asosiy mazmunini tashkil etadi. Bu doimiy ta’sir o’tkazish maqsadga qaratilganlik, ko‘rgazmalilik, qiziqtirish kabi didaktik tamoyillarga asoslanadi va o‘zaro farqlangan, ajratilgan tarzda targ‘ib qilinadi. Muayyan kitobxonlar guruhi uchun dolzarb mavzularning ajralishi, turli bilim sohalariga oid adabiyotlar bilan aloqaning ko‘rsatilishi kabilar targ‘ibotning bir butun tarzda olib borilishi uchun muhim ahamiyatga ega.

## **ADABIYOTLARNI**

### **OG‘ZAKI TARG‘IB**

#### **QILISH -**

Jonli so‘z yordamida adabiyotni targ‘ib qilishdan iborat bo‘lgan kutubxona om-maviy ishi. Asosiy shakllari asarning tasviri va mazmuni haqidagi axborot (adabiyotlar obzori) kitobxonlarni matn bilan tanishtirish (ovoz chiqarib o‘qish) kitob muhokamasining turli shakllari: kitobxonlar anjuman, mavzu kechalari, og‘zaki jurnallar, bahslar.

## **ADABIYOTLARNING**

### **KO‘RGAZMALLI**

#### **TARG‘IBOTI -**

Kitobxonga ko‘rgazmali ta’sir o’tkazish maqsadida turli ko‘rgazma vositalarini

qo'llash orqali adabiyotni targ'ibot qilishning ommaviy ishi. Ko'rgazmali targ'ibotda ikki yo'nalish mavjud: bosma asarlarni bevosita ko'rsatish (turli ko'rgazmalar, tasviriylar san'at vositalari orqali kitoblarga tavsiya etish) muqovalarni, illustratsiyalarni, matn parchalarini va boshqalarni yorqin aks ettirish, kutubxona plakati va h.k.

**ADABIYOTLARNI  
NASHR ORQALI  
TARG'IBOT  
QILISH -**

Vaqtli matbuot va boshqa bosma axborot vositalari (yo'l ko'rsatkich, xatcho'p, bosma plakat) yordamida adabiyotni targ'ib qilish bo'yicha kutubxonada olib boriladigan ommaviy ishlar.

**ADABIYOTLARNING  
ESKIRISHI -**

Vaqt o'tishi bilan axborot olish maqsadida adabiyotdan foydalanishning kama-yib borish jarayoni, asarning ijtimoiy-iqtisodiy qarashlariga ko'ra foydalanib bo'lmaydigan darajaga kelishi, ma'naviy jihatidan eskirishi.

**ADABIY SUD-**

Adabiy o'yin turi - dolzarb muammoli badiiy asarning teatrlashtirilgan shakli-da uyushtirilgan muhokamasi.

**ADRESLI BIBLIO-  
GRAFIK MA'LU-  
MOTNOMA-**

Kerak bo'lgan adabiyotning muayyan fonda bor yoki yo'qligi va saqlanayotgan

o‘rnii haqida ma’lumotlarga ega bo‘lgan bibliografik ma’lumotnomalar.  
Qarang: kutubxona ma’lumotnomasi

## ADRESLI BIBLIOGRAFIK IZLASH-

Bibliografik ma’lumot manbai bo‘yicha muayyan fondda (arxiv, ilmiy texnika axboroti) kutubxonasi va boshqa saqlanayotgan adabiyotning bor-yo‘qligi va aniq shifri haqidagi ma’lumotni izlash.

## AYLANMA KARTOTEKA

Katalog kartochkalari tik holda joylash-tirilgan to‘rtburchak javonlar ko‘rinishidagi kartoteka. Javonlar chap yoni bilan harakatlanuvchi o‘zakka mahkamlanadi. Bu o‘zakda kartoteka tik o‘q atrofida aylanadi.

## AYNAN TIKLAYDI-GAN NASHR (FAKSI-MILE NASHR)

Asl nusxasi kam uchraydigan va noyob nashrlarni, qo‘lyozma kitoblar (ularning o‘lchami, qog‘oz turi, muqovasi, matn xususiyatilari, ilovalari va h.k.)ni aynan tiklovchi, takrorlovchi nashr.

## AKADEMIK KUTUBXONA

- Akademiya ilmiy tekshirish muassasining tarkibiy bo‘linmasi bo‘lgan va uning jamoasiga kutubxona xizmatini ko‘rsatuv-chi kutubxona.

## AKADEMIK NASHR -

1. Ilmiy jihatdan mukammal bo‘lgan,

juda puxta tayyorlangan, klassik asar va uning ko'rinishlarining ilmiy jihatdan asoslangan mantlariga ega bo'lgan, keng ma'lumotlar majmuasi, xususan, zaruriy izohlar bilan ta'minlangan nashr.

2. Fanlar Akademiyasi tomonidan chop qilinadigan nashrlar.

#### ALIFBO -

1. Harflarning qat'iy bir tartibda joy-lashtirilgan yig'indisi.

2. Savod va o'qishga o'rgatadigan bir-inchi kitob.

#### ALLIGAT-

Qog'oz bichimi mosligi asosida alohida nashr yoki qo'lyozmalarning bir jild ichiga qalin muqova qilib tikilgan mustaqil nashr yoki qo'lyozma kitob.

#### ALMASHUV FONDI-

Kutubxona fondining bir qismi bo'lib, u ikki maqsadda tashkil etiladi:

1. Foydalanishda bo'lgan fonda dagi talab kattaligi tufayli ishdan chiqqan yoki yo'qolgan nashrlarning o'rnnini qoplash uchun.

2. Boshqa kutubxonalar balin kitob almashishni ta'minlash yoki adabiyotni qayta taqsimlashda ortiqcha kitob nusxalarini ajratishni ta'minlash uchun.

#### ALMASHTIRISH FONDI -

Boshqa kutubxonalar bilan maxsus kelihib olingan shartlar asosida o'zaro hujatlarni almashtirish uchun mo'ljallangan kutubxona fondining bir qismi.

**ALFAVITLI  
KATALOG -**

Bibliografik qaydlardagi alohida mualiflarning, ham mualliflarning yoki kitoblar, hujjatlarning sarlavhasi alfavit tartibda joylashtirilgan kutubxona katalogi. Ayni shu ma'noda "mualliflik katalogi" atamasini qo'llash mumkin emas.

**ALFAVIT KATA-  
LOGINING ASOSIY  
KARTOCHKASI -**

Asosiy bibliografik qaydni o'z ichiga olgan katalog kartochkasi.

**ALFAVITLI BIB-  
LIOGRAFIK QO'L-  
LANMA-**

Bibliografik qaydlari: mualliflar ismi, nasabi, mualliflar jamoasi nomi yoki hujjat nomlari alfavit tartibda joylashtirilgan bibliografik qo'llanma.

**ALFAVITLI PRED-  
MET KO'RSATKICHI  
(APK)NING SISTE-  
MALI NAZORAT  
KARTOTEKASI  
(SNK) -**

Sistemali nazorat kartotekasi (SNK) perdmet rubrikalari, ularning tasniflash indekslari bo'yicha sistemali tartibda tuzilgan yordamchi kartochka.

**ALBOM -**

1. Tasviriy san'atga oid adabiyotning qisqacha izoh matni berilgan nashri.
2. Toza varaqlari dastxat, fotosur'at, marka va shu kabilarga mo'ljalangan qalin daftar turi.

**ALBOMLI  
KATALOG -**

Bibliografik qaydlar albom sahifalarida joylashtiriladigan katalog.

**ALMANAX -**

1. Ijtimoiy faoliyatning turli sohalari bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lgan vaqtli bo'lмаган yoki davomli to'plam. Odatta, adabiyot, ilm-fan yangiliklari, qonunchilikdagi o'zgarishlar va h.k. bilan tanishtirib boradi.
2. Biror bir belgisiga qarab, (mavzu birligi, g'oyaviy-badiiy yaqinligi va boshqalar)ga ko'ra birlashtirilgan turli janrdagi badiiy asarlar to'plami.
3. Bir davrda ijod etgan mualliflarning adabiy, badiiy, tarixiy va publisistik asarlari to'plami.

**AMALIY QO'L  
LANMA -**

Vazifasi biron-bir ishlab chiqarish jarayonini bajarish tajribasini, muayyan bilim malakasini egallash yoki shu ishni bajarishga yordam berishdan iborat bo'lgan, ishlab chiqarishga oid amaliy ko'nikmalar hosil qilishga qaratilgan nashr.

**AMALIY YO'RIQ  
NOMA**

- Biron-bir kasbni yoki ishning usullari va tajribalarini mustaqil o'zlashtirish uchun mo'ljallangan, mutaxassislarning malakasini oshirishga xizmat qiluvchi nashr. Amaliy yo'llanmadan to'liqligi, tafsilotlar bilan to'ldirilganligi, bayonning yo'l-yo'riq ruhida berilishi bilan farqlanadi.

Bu ma'noda "Amaliy qo'llanma" atamasini qo'llab bo'lmaydi.

**ANALITIK BIBLIO-**

**GRAFIK TASVIR-** Hujjat tarkibiy qismining bibliografik tasviri.

**ANDAZA ASOSIDA**

**BOSIB**

**KO'CHIRISH -** Kam nusxada bosish usuli, bunda tasvir elementlari teshik tarzda bo'lib, bo'yoq shu orqali qog'ozga tasvir shaklini tu-shiradi.

**ANIQLOVCHI BIB-**  
**LIOGRAFIK MA'**

**LUMOT -** Kitobxonning talabida yo'q bo'lgan yoki noto'g'ri berilgan axborot ko'rsatkichining bibliografik tasvirlari unsurlarini belgilovchi va oydinlashtiruvchi, izohlovchi bibliografik ma'lumot.

**ANIQ KATALOG -** Hujjatlarni mazmunini ifodalovchi katalog. Aniq kataloglarga alfavit, sistemali, predmetli va boshqa kataloglar kiradi.

**ANIQLAGICHLAR-** UO'T (universal o'nli tasnif)da tasniflash yordamchi jadvallarning bo'linmasi. UO'T ko'rsatkichlar yoki aniqlagichlar majmuasi UO'Tning barcha bo'limlarida qo'llaniladigan umumiyoq ko'rsatkichlarni (aniqlagichlarni) (vaqt, joy, xalqlar, qarashlar, shakllar, til, chiziqchali umumiyoq aniqlagichlar (analitik va sintetik aniqlagichlar)ni o'z ichiga oladi.

# **ANIQLASHTIRUVCHI**

## **BIBLIOGRAFIK**

**QO'LLANMA -** Hujjatning bibliografik tasviridagi no-to‘g‘ri berilgan yoki yo‘q bo‘lgan unsurlarni izlab topish.

**ANNOTATSIYA -** Kimga mo‘ljallanganligi, mazmuni, shakli va boshqa xususiyatlari nuqtai nazaridan hujjatning, uning biror qismining yoki hujjatlar majmuasining qisqacha tavsifi.

**ANNOTAT-  
SIYALASH -** Annotatsiya tuzish jarayoni.

**ANNOTATSIYALI  
KATALOG  
KARTOCHKASI -** Annotatsiya bilan to‘ldirilgan katalog kartochkasi.

**ANNOTATSIYALI  
KATALOG KARTOCH-  
KASINING NAMU-  
NASI -** Nashr ishida kataloglashtirish usuli - sara-  
varaqning ichki qismida yoki nashrnning so‘nggi sahifasida bibliografik tasvirning (tasniflash indeksi, annotatsiyasi va boshqa unsurlari bilan birga) bosilishi.

**ANNOTATSIYALI  
BIBLIOGRAFIK  
QO'LLANMA -** Bibliografik qaydlarning barchasi yoki ko‘pchiligi annotatsiyali bo‘lgan bibliografik qo‘llanma.

## **ANNOTATSIYALI**

### **BIBLIOGRAFIK**

#### **MA'LUMOT-**

Annotatsiyaga ega bo'lgan bibliografik ma'lumot.

**ANONIM NASHR** - Muallifi ko'rsatilmagan nashr.

#### **ANOLOGIYA** -

Muayyan bir xalq, davr, janr, adabiy-badiiy va hokazolarga oid adabiyotlarni o'z ichiga oluvchi saylanma asarlar, odatda she'rlar to'plami. Masalan: O'zbek she'riyati analogiyasi.

#### **ANTONIMLAR**

#### **LUG'ATI** -

Ma'nosi qarama-qarshi (zid) bo'lgan yoki bir-biriga ma'lum bir jihatdan qarama-qarshi qo'yilgan so'z juftliklarini o'z ichiga olgan lingvistik lug'at. Bunda ularning qo'llanilishiga oid misollar ham beriladi.

#### **ARXIV NUSXA** -

Milliy kutubxonalar va davlat kitob fonda omborlarida saqlanadigan mammakatning o'zida chop etilgan asarlar nusxasi. Arxiv nusxasi doimiy saqlanishi, fonddan chiqarilmasligi va kutubxonadan tashqariga berilmasligi lozim.

#### **ASAR**

Til, belgi, ramz yoki o'zga vositalar yordamida fikrni ifodalovchi yoki obrazlarni gavdalantiruvchi tugal ko'rinishga ega bo'lgan badiiy yoki adabiy ijod natijasi.

#### **ASARLAR**

#### **TO'PLAMI** -

Muallifning barcha asarlarini yoki butun

ijodi haqida tassavur bera oladigan bir qism asarlarni o‘z ichiga olgan bir yoki ko‘p jildlik nashr.

**ASOSIY BIBLIO-  
GRAFIK YOZUV-**

Hujjat haqida to‘liq ma’lumot beruvchi kataloglashtirish yozushi bo‘lib, u hujjatni identifikasiyalash va qidirishni ta’minlaydi.

**ASOSIY BIBLIO-  
GRAFIK QAYD -**

Nashrning o‘xshashligini va asosiy izlash belgisiga ko‘ra izlanishini ta’minlaydigan yozuv.

**ASOSIY MATN -**

Nashr etilayotgan asarning asosiy mazmuni bayon etilgan nashr matni. U kiring so‘zi, so‘nggi so‘z va h.k. matnlardan farq qiladi.

**ASOSIY SARVAR-  
RAQ (titul varaq)-**

Bibliografik tasvir tuzishda asosiy manba bo‘lgan nashrga yoki uning qismlari (masalan, jild)ga oid eng asosiy ma’lumotlarni o‘ziga olgan titul varag‘i: bir qavatli titul varag‘ining yuza qismi, ikki qavatli titul varag‘ining 3-sahifasi.

**ASOSIY FOND -**

Kutubxona sohasi bo‘yicha hujjatlarning eng to‘liq komplektini o‘zida mujassamlashtirgan kutubxona fondining bir qismi. U adabiyotlarning doimiy saqlanishiga va turli davrlarga oid hujjatlarga bo‘lgan kitobxon talabini qondirishga qaratilgan.

|                                   |   |
|-----------------------------------|---|
| <b>ASOSIY SARLAVHA-</b>           | Nashrning asosiy mazmunini aks ettiruvchi sarlavhasi titul varag‘ining boshida joylashtiriladi yoki poligrafik usulda (shrift yoki rang orqali) ajratib beriladi.   |
| <b>ASOSIY INDEKS-</b>             | To‘liq indeks tarkibiga kiruvchi tasniflash indekslaridan birinchisi bo‘lib, mazkur hujjatning asosiy mazmuni aks ettiriladigan sistemali katalogning bo‘limiga ishora qiladi.  |
| <b>ASOSIY BIBLIOGRAFIK QAYD -</b> | Nashrning o‘xshashligini va asosiy izlash belgisiga ko‘ra izlanishini ta’minlaydigan yozuv.   |
| <b>ASTERISK -</b>                 | Havola belgisi sifatida, ayrim hollarda esa bosma so‘nggi sifatida chop etilayotgan asarni qismlarga ajratish uchun qo‘llanadigan yulduzcha shaklidagi grafik belgi.  |
| <b>ATAMA LUG‘ATI -</b>            | Ma’nosi qisqa shaklda ochib berilgan atamalar lug‘ati.  |
| <b>ATLAS -</b>                    | <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Xaritalarning tizimli to‘plami nashri.</li> <li>2. Muayyan bilim sohasini yorituvchi tasvirlarning tizimli to‘plami nashri. Masalan: anatomiya atlasi, geografik atlas, botanika atlasi.</li> </ol> |
| <b>AUDIOVIZUAL MATERIALLAR -</b>  | Texnika vositalari yordamida ma’lum qilinadigan ovozli, tasviriy yoki tasviriy ovozli xabarga ega bo‘lgan hujjatlar.  |

Bular qatoriga kinofotohujjatlar (kinofilmlar, diafilmlar, diapositlar, magnitli fonogrammalar, gramplastinkalar) magnitafonlar, video yozuvlar, magnitofilmilar, gologrammalar va boshqalar kiradi. Shuningdek, audiovizual materiallarga yuqorida qayd etilgan hujjatlarning o'zaro va nashr asarlari bilan qo'shilgan turli tuzilmalari ham kiradi.

#### AUDIOVIZUAL HUJJAT -

Tasviriy va ovozli xabarga ega bo'lgan hujjat.

#### AUDIOVIZUAL MATERIALLAR FONDI -

Maxsus texnik vositalar yordamida tiklash mumkin bo'lgan tovushli va tasviriy axborotni o'z ichiga olgan materiallardan tashkil topgan kutubxona fondining bir qismi.

#### AXBOROTNOMA (byulleten) -

Kitobxonlarga rasmiy, me'yoriy va boshqa hujjatlar mazmuni haqida ma'lumot beruvchi vaqtli yoki davomli nashr. U nashr etuvchi muassasa tasarrufida bo'lib, unda soha mutaxassislariga mo'ljalangan umumlashma va izohli maqollar ham chop etilishi mumkin. Masalan: Davlat test marazi axborotnomasi.

#### AXBOROTNI TAN- LAB TARQATISH

-Doimiy talablarga mos ravishda kundalik kelib tushayotgan hujjatlar haqida doimiy tarzda axborotni ta'minlash. Bun-

da kitobxonlar talabi bilan hujjatlarni, ularning ko‘chirma nusxalarini va faktografik axborotni berish shartdir.

**AXBOROT KUNI** - Ma'lum vaqt ichida (odatda hafta yoki bir oy ichida) kutubxonaga kelgan yangi adabiyotlar haqida axborot berishni nazarda tutuvchi tadbirlar majmui, bunda kitob ko‘rgazmalari uyushtiriladi, axborot xizmati xodimlari taklif etiladi.

**AXBOROT TA'-MINOTI** - Axborot massivlari majmui, bibliografik axborotlar tasnifi va kodlashtirish, bibliografik formatlar, ma'lumotlar bazasi. Axborot va til ta'minotini bir-biridan ajratish mumkin emas. Bu ikkaliasini axborot ta'minoti sifatida birlashtirish mumkin.

**AXBOROT TA-LABGORI** - Ma'lum axborotni oluvchi va undan o‘z ishida foydalanuvchi shaxs, jamoa yoki tashkilot.

**AXBOROTNI TAH-LILIIY SINTETIK**

**QAYTA ISHLASH** - Hujjatlarning mazmunini, ularni tahlil etish, zarur ma'lumotlarni olish va shuningdek, ularni baholash, solishtirish va umumlashtirish maqsadida qayta ishlash. Bu quyidagi jarayonlardan tashkil topadi: annotatsiyasini tuzish, referatlash, faktlarni ayirboshlash va obzor tayyorlash.

**AHOLIGA KUTUB-XONA XIZMATINI KO'RSATISH STATISTIKASI**

Kitobxonlar jamoasining miqdoriy o'zgarishi jarayonlarini, ularning dinamikasini, aholi soniga bo'lgan nisbatni, ijtimoiy fondlardan foydalanish darajasini o'rGANUVCHI kutubxona statistikasining asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardir: kitobxonlar soni, kutubxonaga kelish miqdori, kitob berish miqdori.

**-B-**

**BADIIY  
ADABIYOT**

Vogelikni o'rGANISH va aks ettirish vostasi badiiy so'z hisoblangan asarlar majmui.

**BADIIY REPRO-  
DUKSIYA**

Tasviriy san'at asarining bosma su'rati (nusxasi)dan iborat varaqli nashr.

**BALANSLASH-  
TIRILGAN KOM-  
PLEKTLASH-  
TIRISH**

Fond hajmi (miqdori)ning o'zgarmasligini ta'minlovchi, ya'ni qabul qilinayotgan hamda chiqarib tashlanayotgan hujjatlar sonining to'liq muvofiqligini ta'minlovchi fondni komplektlashtirish. Bu fond hajmi va kitobxon talablarining mazmuni doimiy (o'zgarmas) bo'lgandagina amalga oshishi mumkin. Amalda bunday ho-

latning mumkin bo‘lmagani tufayli muvozanatga keltirilgan (balanslashtirilgan) komplektlashtirish g‘oyasi xato hisoblanadi.

#### BEPUL NASHR

- Ma’lum doiradagi kitobxonlar orasida tarqatiladigan, bahosi ko‘rsatilmagan nashr. Bunday nashrlar soni cheklangan bo‘lib, asosan, reklamaga oid o‘quv-yo‘llanma, rasmiy-idoraviy nashrlarni o‘z ichiga oladi.

#### BEPUL MAJBURIY

##### NUSXA

Hukumat qarori bilan muayyan bibliografik muassasa va yirik kutubxonalariga jo‘natiladigan har bir davlat nashri nusxasi. Bepul majburiy nusxaning uch asosiy turi belgilangan: Xalqaro (kutubxonalarga markaziy kitob palatasi tomonidan jo‘natiladi) respublikaga oid (respublika kitob palatasi tomonidan yuboriladi) mahalliy (kutubxonalarga bevosita poligrafiya korxonalari va nashr etuvchi muassasalar tomonidan jo‘natiladi) Idora tarmog‘iga oid majburiy nusxa bepul majburiy nusxasining ko‘rinishi hisoblanadi. Qarang: nazorat nusxasi.

#### BEVOSITA KOM-

##### PLEKTLASH-

##### TIRISH-

Kutubxona komplektlashtiruvchisi tomonidan kutubxona kollektorlaridan shaxsan hujjatlarni ko‘rib chiqish va tanlash asosida komplektlashtirish.

## BEZAKLI TASVIR

(vin'etka) -

Naqshinkor-manzara yoki naqshinkor syujetli kichik surat shaklidagi va muqovasida, boblarning boshi yoki oxirida beriladigin badiiy bezak unsuri, dastlab albatta ushbu atama ifodasi bo'lgan uzum navdasi ko'rinishi bilan tasvirlangan bo'ladi.

## BIBLIOBUS

- O'z mehnat faoliyati yoki turmush sharoiti nuqtai-nazaridan ko'chmas kutubxonadan foydalana olmaydigan kitobxonlarga xizmat ko'rsatish uchun maxsus jihozlangan avtomashinada joylashgan sayyor kutubxona.

## BIBLIOGRAF

- 1. Bibliografik axborot manbalaridan (bibliografik qo'llanmalarni) tayyorlash va kitobxonlarga yetkazish bilan shug'ullanuvchi shaxs.
  2. Kutubxonalarda, shuningdek, kitob palatalarida, ilmiy va texnika axboroti muassasalarida, nashriyotlarda, kitob do'konlarida, gazeta va jurnal tahririylarida tayinlanadigan lavozim.

## BIBLIOGRAFIYA

- 1. Bibliografik ma'lumotning jamiyatda qo'llanilishini ta'minlash bilan bog'liq faoliyat. (O'z ichiga amaliy bibliografik ishni, bibliografiyashunoslikni, boshqaruva va mutaxassislar tayyorlashning ishini oladi).
  2. Bibliografik ma'lumotni tayyorlash va uni kitobxonga yetkazish bo'yicha ilmiy-amaliy faoliyat sohasi. Ushbu ma'noda bu tushuncha "Bibliografik faoliyat" tushunchasiga ma'nodoshdir.

3. Kitob haqidagi fan yoki bosma asarlarni o‘rganuvchi (tasvirlovchi) va bu o‘rganish natijalarini maxsus bibliografik kitoblar (adabiyotlar ko‘rsatkichi)da mujassamlashtiruvchi kitobshunoslikning tasviriyligi qismi.
4. Bibliografik axborot manbalari (alohida bibliografik qo‘llanmalar yoki ularning majmui), masalan, “Amerika bibliografiyasi”, vaqtli matbuot bibliografiyasi, u yoki bu masala bo‘yicha bibliografiyalar va h.k. Birinchi ikki ma’nosini ijtimoiy hodisa sifatida bibliografiyaning umumiy tasnifiga amaliy yondashishga asoslangan. Bunday yondashish so‘nggi yillarda ko‘pchilik bibliografiyashunoslari tomonidan faol talqin etilmoqda. Qolgan ikki ma’nosini eskirgandir.

## BIBLIOGRAFIYA SHUNOSLIK -

Bibliografik ma’lumotlarning tarkibi va xususiyatlari haqidagi, uni yaratish jarayonlarining qonuniyatlarini, tarqalish va tadbiq etilishi haqidagi ijtimoiy fan. Hozirgi zamон bibliografiyashunosligi umumiy va xususiy bibliografiyashunoslikka bo‘linadi. Umumiy bibliografiyashunoslik doirasida nisbatan mustaqil ilmiy sohalar sifatida quyidagilar ajralib chiqqan: bibliografiya nazariyasi, uning tarixi, tuzilishi, bibliografik faoliyat uslubiyoti. Xususiy bibliografiyashunoslik predmetlari bibliografik faoliyat jarayoni, uning ayrim qismlari va natijalarini o‘rganadi (masalan, soha bibliografiya-

**BIBLIOGRAFIYALASH -**

shunosligi, bibliografik manbashunoslik, bibliografiyalash uslubiyoti va h.k.)

Bibliografik axborot tayyorlash jarayoni.

**BIBLIOGRAFIK GURUHLASH-**

Ma'lum belgilari asosida bibliografik qayd-yozuvlarni guruhlarga birlashtirish.

**BIBLIOGRAFIK MA'LUMOTLAR BAZASI-**

Kutubxonada saqlanayotgan kitoblar, jurnallar va boshqa hujjatlar tasvirini aks ettirgan yozuvlardan iborat ma'lumotlar bazasi.

**BIBLIOGRAFIK FAOLIYAT -**

Bibliografik axborotga bo'lgan talabni qondirish bo'yicha hujjatli-axborot faoliyatining sohasi, ya'ni hujjat kommunikatsiyasi tizimida kutubxona ITA (ilmiy-texnika axboroti) organlari (muassasalar) nashriyot va boshqa ijtimoiy institutlar tomonidan o'quv-ilmiy ishlab chiqarish, tarbiyaviy, targ'ibot va boshqa maqsadlarda amalga oshiriladigan har tomonlama ta'minot (hujjatli axborotga bo'lgan talabni aniqlash va qondirish va shakllantirish), tarkibiy nuqtai nazardan esa turli jarayon (bibliografiyalash, bibliografik xizmat va h.k.)larni tashkiliy shakllarni, sub'ekt va ob'ektlarni, natijalar va vositalarni o'z ichiga oladi. Qarang: Bibliografik xizmat, Bibliografik faoliyat.

## BIBLIOGRAFIK

### XATCHO'P

(zakladka) -

1. Ma'lum bir kitob o'quvchisiga mo'ljallanib, uning mazmuni bilan bog'liq bo'lgan va unga havola tarzida solib qo'yilgan tavsiyanoma. Uning ikki asosiy ko'rinishi mavjud: kitob mavzui bilan dastlabki tanishuv uchun zarur bo'lgan adabiyotni tavsiya etuvchi "Nimadan boshlash kerak" xatcho'pi.
2. Kitobda yoritilgan masalalarni churqarrog' va har tomonlama o'rganish istagi bo'lgan kitobxonga qaratilgan "Yana nimalarni o'qish kerak" xatcho'pi.

## BIBLIOGRAFIK

### QAyd (yozuv) -

Hujjatli tarzda qayd etilgan bibliografik axborot. Bibliografik bayonidan iborat bo'lib, zaruriyatga ko'ra sarlavha, annotatsiya yoki referat, tasnifiy indekslar, predmetli ruknlar, saqlanish shartli belgilari va boshqa unsurlar bilan to'ldiriladi.

## BIBLIOGRAFIK

### AXBOROT -

Jamiyatda yaratiladigan va qo'llaniladigan hujjatlar haqida, ularni izlash, tanlab tavsiya va tashviqot etish to'g'risidagi axborot. Hozirgi zamon bibliografiya-shunosligida ushbu tushuncha bibliografiya nazariyasiga asos qilib olingan bo'lib, bibliografik holatlarni bibliografik bo'lмаган holatlardan farqlashga nisbatan umumiyl me'yor yoki mezon vazifasini bajaradi. Unga binoan bibliografik axborotni yaratish va talabgorga yetkazish bilan bog'liq

bo‘lgan har bir ish bibliografik holat si-fatida ro‘yobga chiqadi.

## BIBLIOGRAFIK

### KARTOTEKA(BK)-

Bibliografik axborotga ega bo‘lgan kartochka shaklidagi bibliografik qo‘llanma shaklidagi bibliografik qo‘llanma. Guruhlanish usuliga ko‘ra quyidagi kartochkalar farqlanadi: alfavitli, sistemali, predmetli va h.k. Kutubxona katalogidan farqli o‘laroq, bibliografik kartoteka o‘z ichiga kutubxona fondida yo‘q bo‘lgan hujjatlar haqidagi ma’lumotlarni olishi, kutubxona shartli belgisi va boshqa ma’lumotlarni bermasligi mumkin.

## BIBLIOGRAFIK

### TASNIF -

1. Amerikalik kutubxonachi Genri Ivlin Bliss (1870-1955) tomonidan ishlab chiqilgan kutubxona-bibliografik tasnifning bosqichli yig‘ma tizimi, “Bibliografik tasnif” ning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda kutubxona ixtisosidan kelib chiqib bir xildagi material tasnifiga turlicha yondashishga imkon beradigan muqobillik tamoyilini izchil qo‘llash mumkin.
2. Buyuk Britaniyada yaratilgan zamонавиy analitik-sintetik tasniflash tizimi.

## BIBLIOGRAFIK

### MASLAHAT -

Bibliografik izlanishning yo‘l va vositalaridan mustaqil foydalanish uchun alohida talabga ko‘ra beriladigan maslahatlarni o‘z ichiga olgan javob.

## **BIBLIOGRAFIK**

### **SATR -**

Vaqtli yoki davomli nashr nusxasining muqovasida bosiladigan (chiqariladigan ma'lumotlariga qo'yiladigan davlat standartiga muvofiq), o'z ichiga nashrning qisqartirilgan sarlavhasi, ba'zan bosilib chiqqan vaqt, joyi, chiqish tartibi, sahifasi (birinchi betidan oxirgi betigacha chiziqcha orqali ko'rsatiladi) ni olgan satr.

## **BIBLIOGRAFIK**

### **MAHSULOT -**

Bibliografik faoliyatning natijasi va vositasi sifatida rasman qayd etilgan bibliografik axborot. Ko'p hollarda bibliografik faoliyatining u yoki bu jihatini tuzish, yaratish, ishlarining natijasini ifodalash uchun qo'llaniladi: Masalan: A.Navoiy nomli milliy kutubxonaning bibliografik mahsulotlari.

## **BIBLIOGRAFIK**

### **MA'LUMOTNOMA-**

Alovida so'rovga binoan bibliografik axborotga ega bo'lgan javob.

## **BIBLIOGRAFIK**

### **HAVOLA -**

Sitata olinayotgan, ko'rib chiqilayotgan yoki eslatilayotgan hujjat haqida va uni bir xillashtirish va izlash uchun zarur bo'lgan bibliografik ma'lumotlar majmuasi.

## **BIBLIOGRAFIK**

### **MA'LUMOTLAR -**

Bibliografik tasvir va bibliografik qayd sarlavhasini tuzishda qo'llaniladigan hujjat haqidagi ma'lumotlar.

## BIBLIOGRAFIK

### KATALOG

- Bir yoki bir necha hujjat fondlari (kutubxonalar, kitob palatalari, ITA, arxivlar va h.k.)ning tarkibi va mazmunini ochib beruvchi bibliografik qo'llanma. Yaratilish va qo'llanish sohasiga ko'ra bibliografik katalog kutubxonaga oid, kitob savdosiga oid, arxivga oid va h.k. bo'lishi mumkin.

## BIBLIOGRAFIK

### OBZOR (umumlashma ma'lumot)

1. Bibliografiyalash manbaasi sifatida ajratilgani haqida bog'lanishli bayonga ega bo'lgan bibliografik qo'llanma.
2. Hujjatlar haqida og'zaki hikoya. Adabiyotni targ'ib etishning og'zaki usuli sifatida turli xildagi kutubxonalarda qo'llaniladi. Uning quyidagi shakllari farqlanadi: ma'lum vaqt mobaynida kutubxonaga keltirilgan kitob jurnallar bilan kitobxonini tanishtirishga qaratilgan yangi kelgan adabiyotlar obzori: u yoki bu mavzuga, muammoga oid adabiyotlarning mavzu jihatdan obzori.

## BIBLIOGRAFIK RO'YXAT-

Yordamchi jihozlar oddiy tuzilishiga ega bo'lgan bibliografik qo'llanma. Odatda bibliografik qaydlarning uncha katta bo'limgan ro'yxatidan iborat.

## BIBLIOGRAFIK KO'RSATKICH-

Yordamchi ko'rsatkichlarga ega bo'lgan murakkab tarkibli bibliografik qo'llanma.

Zaruriyat bo‘lganda mustaqil (alohida) nashr qilingan hujjatga mos boshqa unsurlarsiz (so‘z boshi sarlavha v.h.k.) ega bo‘lishi mumkin.

### BIBLIOGRAFIK ANIQLASH

-Bibliografik ishlov berish (tasvir tuzish, tanlash, guruhash va h.k.) maqsadida hujjatlarni bibliografiyalash manbai sifatida aniqlash.

### BIBLIOGRAFIK NASHR-

Seriiali, nodavriy (plakat, varaqlar ham bunga kiradi), davriy yoki davomli nashrlar shaklida chiqarilgan bibliografik qo‘llanma.

### BIBLIOGRAFIK AXBOROT BERISH -

Talabsiz va (yoki) uzoq vaqtga mo‘ljallangan talablar asosida ko‘rsatiladigan muntazam bibliografik xizmat ko‘rsatish.

Qarang: Informatsion - axborot xizmati.

### BIBLIOGRAFIK XIZMAT KO‘RSATISH -

Bibliografik axborotlarni kitobxon e’tiboriga havola etish jarayoni.

### BIBLIOGRAFIK TASVIR -

Qabul qilingan qoidalar asosida keltirilgan bir xillashtirilgan hamda umumiy bahs berishga mo‘ljallangan hujjat to‘g‘risidagi bibliografik ma’lumotlar majmui.

## BIBLIOGRAFIK

### QO'LLANMA-

Maqsadi, mazmuni, shakli va boshqa belgilari asosida birlashtirilgan bibliografik qaydlarning tartibga solingan yig'indisi.

## BIBLIOGRAFIK

### QIDIRUV -

Etishmaydigan (yoki) noto'g'ri berilgan (chalkashgan) elementlarni aniqlash bilan bog'liq bo'lgan bibliografik izlashning turi.

## BIBLIOGRAFIK

### TAHRIR -

Bibliografik qayd (yozuv)larni va bibliografik qo'llanmalarni me'yoriy va metodik hujjatlarni talab asosida tahrir qilish.

## BIBLIOGRAFIK

### XABAR -

Bibliografik axborotning bir qismi bo'lib, o'z ichiga bibliografik axborotning asosiy ijtimoiy maqsadlarini amalga oshirish uchun yetarli bo'lgan va hujjat haqida (uning qismi va bir nechta hujjatlar haqida) ma'lum qoidalar (o'lchovlar) asosida tashkil etilgan ma'lumotlarni oladi. Bibliografik xabar hujjatlashtirilgan yoki og'zaki shaklda berilishi mumkin.

## BIBLIOGRAFIYA-

### NING BIBLIOGRA-

### FIYASI -

Bibliografik ma'lumotning mavjud manbalaridan to'g'ri izlanishini ta'minlovchi bibliografiya.

Qarang: ikkinchi darajali bibliografiya.

|                                  |   |
|----------------------------------|---|
| <b>BIBLIOGRAFIK</b>              |   |
| <b>TASVIR TILI</b> -             | Qabul qilingan qoidalar bo'yicha yozilgan hujjat tili.  |
| <b>BIBLIOGRAFIK</b>              |   |
| <b>TASVIR SOHASI</b> -           | Bir yoki bir necha funktsional yoki mazmunan o'xshash (bir turdag'i) bibliografik tasvir unsurlarini o'z ichiga olgan bibliografik tasvirning tarkibiy bo'lagi.   |
| <b>BIBLIOGRAFIK</b>              |   |
| <b>TASVIRNING ZARURIY UNSURI</b> |   |
| (elementi) -                     | Hujjatni muvofiqlashtirishni ta'minlovchi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan qism.  |
| <b>BIBLIOGRAFIK</b>              |   |
| <b>TASVIR TUZISH-</b>            | Hujjat haqidagi bibliografik ma'lumotlarni aniqlash va belgilangan qoidalar asosida keltirish jarayoni. Bibliografik tasvir tuzish jarayoniga quyidagilar kiradi: nashrni tahlil qilish, bibliografik ma'lumotlarni aniqlash, tasvir unsurlarini (elementlarini) belgilash, bibliografik ma'lumotlarni belgilangan ketma-ketlikdagi tartibini tegishli shartli belgilar yordamida qayd etish. |
| <b>BIBLIOGRAFIK</b>              |   |
| <b>TASVIRNING XUSUSIY</b>        |   |
| <b>QISMI-</b>                    | Ko'p jildli (seriyali) hujjatning ayrim jild (seriya)lari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan yig'ma bibliografik tasvirning bir qismi.  |

**BIBLIOGRAFIK  
TASVIRNI MAR-  
KAZLASHTIRIB  
TUZISH -**

Ilmiy metodik markazlarda, ilmiy-texnik axborot muassasalarida, tahririyat va nashriyotlarda kataloglar sifatini os-hirish va bibliografik tasvirlar tuzish metodikasini muvofiqlashtirish maqsadida amalga oshiriladigan hujjatlarning bibliografik tasvirlarini tuzish.

**BIBLIOGRAFIK  
MA’LUMOTLAR-  
NING ASOSIY  
MANBASI -**

Tasvir tuzilayotganda birinchi navbatda foydalanish zarur bo‘lgan manba, tasvirning har bir sohasi uchun ma’lum bir asosiy manba mo‘ljallanadi.

**BIBLIOGRAFIK  
TASVIR UNSURI-**

Bir yoki bir necha belgilangan bibliografik ma’lumotni o‘z ichiga olgan bibliografik tasvirning eng kichik tarkibiy birligi.

**BIBLIOGRAFIK  
TASVIRNING YOR-**

**DAMCHI UNSURI -** Hujjat haqida, uning mazmuni, vazifasi, ma’lumot yoki tasviriy materiali va shu kabilar haqida qo‘shimcha axborot beruvchi unsur.

**BIBLIOGRAFIK  
QAYD  
SARLAVHASI -**

Shaxs ismini (yakka muallif, sarlavha), hujjat turi (sarlavha shakli) yoki boshqa

ma'lumotlarning bibliografik tasvir ol-didan joylashtiriladigan va bibliografik yozuvlarni tartibga solish va izlash uchun ishlataladigan bibliografik qaydning unsuri (elementi)

#### BIBLIOGRAFIK

#### MA'LUMOT

#### JARAYONI -

Kutubxonada bibliografik ma'lumotni tayyorlash jarayonlari va bajariladigan ishlarning belgilangan ketma-ketligi.

#### BIBLIOGRAFIK

#### QO'LLANMALAR

#### TIZIMI -

Biron bir muhim, ijtimoiy ahamiyatli belgi asosida birlashtirilgan bibliografik qo'llanmalarining yaxlit tizimi. Masalan: joriy ilmiy-yordamchi bibliografik qo'llanmalarining tizimi.

#### BIBLIOGRAFIK

#### QO'LLANMALAR

#### KO'RSATKICHI

#### (RO'YXATI)

#### UMUMLASHMASI-

Bibliografik qo'llanmalar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bibliografik qo'llanma.

#### BIBLIOGRAFIK

#### AXBOROT

#### TALABGORI -

Bibliografik axborotni oladigan va undan foydalanadigan shaxs, jamoa yoki tashki-lot, muassasa.

## **BIBLIOGRAFIK IZLANISHNING**

**MUKAMMALLIGI** - Izlanish olib borilgan bibliografik axborot majmuasidagi talabga mos (relevant) yozuvlarning umumiy soniga nisbatini ifodalovchi ko'rsatkich.

## **BIBLIOGRAFIK IZLANISH ANIQLIGI-**

Bibliografik izlanish natijasida berilgan bibliografik qaydlar nisbatini ifodalovchi ko'rsatkich.

## **BIBLIOGRAFIK YOZUVNING SARLAVHASI (SARLAVHA)-**

Bibliografik tasvir oldida joylashgan bibliografik yozuv elementi bo'lib, u bibliografik yozuvlarni qidirish va tartibga solishga mo'ljallangan.

## **BIBLIOGRAFIK TASVIR (TASVIR)-**

Hujjat to'g'risidagi bibliografik majmui bo'lib, u sohalar va elementlarning kelish tartibi ko'rsatilgan aniq qoidalar asosida keltiriladi va hujjatning umumiy xarakteristikasini aniqlash va identifikatsiya qilishga mo'ljallangan.

## **BIBLIOGRAFIK TASVIRNING FA- KULTATIV ELE- MENTLARI-**

Hujjat haqidagi qo'shimcha, ya'ni uni mazmuni, qaysi kitobxonga atalganligi, ma'lumotnomasi yoki illyustrativ xarak-

teri haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi bibliografik tasvir elementlari.

#### BIBLIOFILLIK-

Kitob, noyob va ahamiyatli nashrlarni toplash va chuqur o'rghanish ishtiyoqi, mayli.

#### BILDIRISH-LARNING TARQALISHI

Biron-bir soha, mavzu yoki muammo bo'yicha maqolalarning nafaqat unga bag'ishlangan yoki mavzusi bo'yicha yaqin bo'lgan jurnallarda, balki boshqa barcha ilmiy va texnikaga oid jurnallarda ham uchraydi.

#### BIOBIBLIOGRAFIK QO'LLANMA-

Ma'lum shaxs va yoki shaxslar asarlarini, shuningdek, ular haqidagi adabiyot va tarjimai holga oid ma'lumotlarni o'z ichiga olgan nashr.

#### BIRINCHI NASHR -Ilk bor e'lon qilinayotgan nashr.

#### BIRLASHGAN BIBLIOGRAFIK YOZUV-

Bir asarning turli nashrlari to'g'risidagi ma'lumotlarni (uning qayta nashri, ottisklari, tarjimalar va (yoki) u bilan bog'liq boshqa asarlar unga yozilgan taqrizlar, referatlar) birlashtirgan bibliografik yozuv.

#### BIR XILDAGI INDEKSATSIYA-

Tasniflash indekslarini harflar yoki raqam bilan (matematik), punktatsion va boshqa belgilari orqali belgilash.

**BIR JILDLI****NASHR -**

Bir jidda chiqarilgan nodavriy nashr.  
 Bu ma'noda "Bir jildlik" atamasini qo'llash mumkin emas.

**BIR MARTALIK****BIBLIOGRAFIK****TALAB -**

Bibliografik xizmat ko'rsatuvchi tashkilot (kutubxona, ITA organi, arxiv va h.k.) bibliografik axborot bo'yicha kitobxonidan tushgan bir martalik talab.

**BIR TILLIK****LUG'AT -**

Til birliklari va ular ifodalagan ma'nolar haqidagi ma'lumotlar bir tilda berilgan lug'at.

**BIR SHAKLGA KELTI-****RILGAN SARLAVHA**

(unifikatsiyalangan  
 sarlavha) -

Aniq nomi ma'lum bo'lмаган, shu tufayli turli sarlavhalar bilan nashr etilib kelangan mumtoz asarning eng keng tarqalgan (ko'proq ma'lum bo'lgan) sarlavhasining asar nomi sifatida qo'llangan ifodasi.

**BLOK-****KARTOCHKALI**

(varaqli)

**KATALOG-**

Chetlaridan qisqichlar bilan biriktirilgan alohida varaqlardan iborat katalog. Blok kartochkali katalog kitob nashri shaklidagi kataloglarning ko'rinishlaridan biri bo'lib, undan farqli o'laroq alohida varaqlarini almashtirish yo'li tezda o'zgarish kiritish imkonini beradi. Asosan,

bolalar kutubxonalari, shuningdek, texnik hujjatlarning maxsus turlarining fondlarini aks ettirishda qo'llaniladi.

**BOSH KATALOG** - Almashuv va zahira fondidan tashqari butun kutubxona fondini aks ettiruvchi va asosan ichki xizmatda foydalaniлади-  
gan kutubxona katalogi.

### **BOSH MA'LUMOT**

**KARTOTEKASI** - Maxsus ilmiy kutubxonadagi, asosan, davriy matbuot materiallarini (ularning fondda bor yoki yo'qligidan qat'iy nazar) kitoblarning asosiy guruhlari va mazkur kutubxona abonentining axborotga bo'lgan ehtiyojlariga muvofiq tarzda aks ettiruvchi bibliografik kartoteka.

### **BOSH SARVARAQ**

(titul varag'i) - O'z ichiga ko'p jildli yoki seriyali nashrga oid ma'lumotlarni oluvchi titul varag'i. Odatda kontrtitul qiyofasida bo'ladi.  
Sin.: Umumiy titul varag'i.

### **BOB** -

Matnning asosiy tarkibiy-kompozitsion qismlaridan biri. Odatda mavzu bo'yicha sarlavhaga ega bo'ladi va undan avval "bob" so'zi va uning tartib soni beriladi. Ko'p holatlarda yangi sahifadan boshlanadi.

### **BOLALAR**

**KUTUBXONASI** - Bolalar va bolalar kitobxonasi rahbarlariга xizmat qiluvchi kutubxona. Bolalar kutubxonalarida tarmog'i hududiy tamoyiliga ko'ra joylashtiriladi va o'z ichiga

quyidagilarni oladi: davlat bolalar kutubxonasi, viloyat, o'lka, respublika kutubxonalarini, shuningdek, MKG ni tashkil etuvchi nohiya, shahar kutub-xonalari.

**BOSMA ASAR-**

Harf bosish yoki bosma naqsh solish yo'li bilan olinadigan poligrafik sanoat mahsuloti. Nashr yoki boshqa turdag'i nashr mahsuloti (yorliqlar va h.k.) bo'lishi mumkin.

**BOSMA  
ASARLARNI  
TA'MIRLASH -**

Eskirgan yoki yirtilgan bosma asarlarni asl holiga keltirish yoki asliga yaqin holatga olib kelish.

**BOSMA  
KARTOCHKA -**

Kartochkali kataloglarni qo'lllash uchun mo'ljallangan tipografiya yoki boshqa usulda (harf bosish mashinkasidan tashqari) bosilgan katalog kartochkasi.

**BOSMA TABOQ -**

Belgilangan o'lchovdagi qog'oz varag'ining bir tomoniga teng bo'lgan bosma asar hajmi (yuzi)ning birligi. Unda bosma belgilarning soni harf shakli va satr oralig'i va h.k. larga bog'liq holda turlicha bo'lishi mumkin. Bosma taboqning ikki turi farqlanadi: biri hisob bosma tabog'i (uning hisobi bosma taboq soniga teng bo'ladi) va ikkinchisi 60x90 sm o'lchovdagi shartli bosma taboqdir, u turli o'lchovdagi qog'ozlarga bosilgan nashrning bosma hajmini solishtirish uchun xizmat qiladi.

**BUKLET -**

Bir varaqda bositgan, daftar shaklida yoki boshqa usulda buklangan alohida shakldagi nashr. Buklet shaklida buklama yo'l ko'rsatkich, shahar plani nashr etiladi.

**BUKINISTIK****KITOB -**

1. Qayta savdoga qo'yilgan qo'lyozma huquqidagi bosma nashr.
2. Sho'ro kitob savdosi tajribasida 1851 yildan 1961 yilgacha nashr etilgan kitob.

**BUYURTMA****NASHR -**

Buyurtmachi (tashkilot, muassasa, o'quv yurti) talabi bo'yicha uning hisobi va materialidan barcha nusxalari o'zi tarqalishi sharti bilan nashriyot tomonidan chiqariladigan nashr. Nashrning buyurtma asosida ekanligi chiqish ma'lumotlarida ko'rsatilishi shart.

**BO'LIM -**

Asarning turli mazmun va janrdagi raqamlangan va odatda o'z sarlavhasiga ega bo'lgan tarkibiy kompozitsion birligi.

**- D -**

**DAVLAT BIB-****LIOGRAFIYASI -**

Mamlakat miqyosida chiqqan barcha hujjatlarning (asosan bosma asarining) ro'yxitga olinishi va ular haqida bibliografik ma'lumotning universal mabvalari (davlat ko'rsatkichlari) orqali ma'lumot berishni ta'minlovchi umumiy bibliografiyaning bo'linmasi davlat

ko'rsatkichlarini tayyorlash respublika palatasi tomonidan amalga oshiriladi.

**DAVLAT  
BIBLIOGRAFIK  
KO'RSATKICHI**

Davlat tomonidan ro'yxatga olinganligi asosida mamlakatda chiqarilayotgan hujjatlar (asosan bosma hujjatlar) haqida ma'lumot beruvchi bibliografik qo'llanma.

**DAVRIY NASHR**

Ma'lum vaqt oralig'ida chiqadigan nashr bo'lib, mazmuni takrorlanmaydigan bir xilda bezalgan, raqamlangan va chiqish vaqtি ko'rsatilgan, doimiy yillik soniga va bir xil nomga ega bo'lgan, odatda bir xil hajm va o'lchovli alohida nashrlardan iborat. Davriy nashrlarga gazeta, jurnal, davriy to'plam va byulletenlar misol bo'la oladi.

**DAVRIY NASHRLAR-  
NI RO'YXATGA  
OLISH**

**KARTOTEKASI**

Shu yil kutubxonaga kelib tushadigan davriy nashrning alfavit kartotekasi. U ma'lumot-axborot berish vazifasini bajarib, quyidagi savollarga javob beradi: Kutubxona tomonidan qanday davriy nashrlar olinadi va qaysi so'nggi soni kelib tushgan.

**DAVOMLI  
NASHR**

Bir xil nomga ega bo'lgan va odatda bir xil hajm va o'lchovga ega bo'lgan, maz-

munan takrorlanmaydigan, bir tartibda bezatilgan, materialning to‘planishiga qarab noaniq vaqt oralab raqamlangan yoki vaqtি belgilangan alohida nashrlarda chiqarilgan nashr.

**DAVLAT KUTUB-XONASI -**

Davlat boshqaruv mahkamalari tomonidan ta’sis etiladigan, davlat idoralariga tegishli, davlat budgetidan mablag‘ ajratiluvchi kutubxonalar. Masalan: Madaniyat vazirligi kutubxonalari.

**DARSLIK -**

Ma’lum bir sohadagi bilim asoslari o‘quv rejasiga muvofiq izchillik bilan bayon etilayotgan hamda shu turdagи nashr sifa-tida rasman tasdiqlangan o‘quv nashri.

**DASTURIY TA’-MINOT -**

Kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirishga mo‘ljallangan dasturiy vositalar majmui. Bunga avtomatlashtirilgan kutubxona tizimini tashkil qiluvchi dasturlar kiradi. Ya’ni axborot qidiruv tizimi, shtrix kodlash tizimi.

**DASTURLASHTIRILGAN NASHR -**

Tarkibiy qurilishi muayyan dastur asosida programmalashtirilgan, o‘qish mezonlarida bo‘ysundirilgan nashr.

**DASTLABKI TANLOV -**

Joriy va retrospektiv komplektlashtirish jarayonida amalga oshirilib fondga kiri-

tiladigan hujjatlarni tanlash.

**DASTLABKI KOM-**

**PLEKTLASH-**

**TIRISH -**

Tarkibi va hajmi kutubxona ochishga imkon beruvchi kutubxona fondini tashkil etish maqsadidagi bir vaqtda o'tkaziladigan joriy yoki avvalgi holatni e'tiborga olgan komplektlashning shartli nomlanishi.

**DEPOZITAR**

**KUTUBXONA -**

Ma'lum bir soha bo'yicha hujjatlarning eng to'liq komplektlangan fondini kafolatli saqlashga va abonent talabi bo'yicha berishni ta'min etadigan, shuningdek, boshqa kutubxonalardan o'z fondida bo'limgan, kam qo'llaniladigan hujjatlarni saqlash uchun qabul qilishni ta'minlaydigan kutubxona.

**DIAPOZITIV-**

Fotopozitiv tasviri bo'lgan shaffof material, (shisha, plenka). Kutubxonalarda tasvirni yoruqqa qo'yib ko'rishda yoki ekranga tushirib ko'rishda ishlatalidi. Rangli diapozitivning sinonimi SLAYD.

**DIASLON -**

Shaffof va shaffof bo'limgan tashuvchilardagi tasvirlarni ekranda tiklashga (ko'rsatishga) xizmat qiluvchi proyeksiyon (tushiruvchi) moslama.

**DIKTOFON -**

Ovozli axborotni qayta eshittirish maqsadida aytib turish yo'li bilan yozib olishga mo'ljallangan moslama.

**DISSERTATSIYA** - Ilmiy darajani olish uchun himoyaga qo'yilgan bosma yoki qo'lyozma asar.

**DISSERTATSIYA-LAR FONDI** -

Fan nomzodi yoki fan doktori ilmiy daramasi olish chun yozilgan qo'lyozmalardan, shuningdek, dissertatsiya avtoreferatlaridan tashkil topgan kutubxona fondining bir qismi.

**DIAFILM** -

O'ramli fotoplenka bo'lagida joylash-tirilgan diapozitiv yoki diapozitivlar.

**DEZIDERATA** -

Fonddagi bo'shliqni to'ldirish, nuqsoni bo'lgan nusxani yangilash, fondni noyob va (yoki) ko'p ishlataladigan hujjatning qo'shimcha nusxasi bilan to'ldirish maqsadida kutubxonaga zarur bo'lgan hujjat.

**DESKREPTOR**

**AXBOROT**

**IZLASH**

**TILI** -

Deskreptorlar yordamida hujjatlarni jo-yiga qarab indeksatsiyalash va axborot talabnomalariga mo'ljallangan axborot izlash tili.

**DUBLET (takror)**

**NUSXA** -

Kutubxona fondidagi qo'shimcha takror nusxa komplektlash paytidagi rejala-sh-tirilgan dublet nusxa va ortiqcha dublet nusxalari farqlanadi.

- E -

EKSLIBRIS-

1. Kitob egasining nomi yozilgan kichik yorliq yoki muxr, odatda, "EX" so'zлari yozilgan bo'ladi va muqovaning ichki old tomoniga yopishtiriladi yoki (muxr bo'lsa) bosiladi.

2. Odatda muqovaning ichki old tomoniga yopishtirilgan badiiy uslubda tayyorlangan egalik belgisi. Qarang: kitob belgisi.

EKSPRESS-  
AXBOROT-

O'zi haqida darhol axborot berish, ogoh qilishni talab etuvchi dolzarb mazmunli, muhim bosilib chiqqan xorijiy minbarlarning va bosilmagan mamlakatning o'zida yaratilgan hujjatlarning kengaytirilgan referatlaridan iborat vaqtli jurnal yoki varaqli axborot nashri.

ELEKTRO-  
GRAFIYA-

Elektr hodisalarini ishlashiga asoslangan nusxalash usullari.

ELEKTR FOTO-  
SURATLASH-

Elektr bilan zaryadlangan tegishli yarim o'tkazgichli materiallarning asl nusxadan yashirin (yopiq) nusxa olish xususiyatiga asoslangan hujjatlarning nusxalash usuli.

EPIDIASKOP-

Shaffof va shaffof bo'lмаган ташувчилардаги гаракатсиз тасвирларни парда (екран) га тушіриш үчун xizmat qiluv-

|                                     |  |
|-------------------------------------|--|
|                                     | chi tasvir ko‘chirish (proyekcion) moslamasi.  |
| <b>ESDALIK</b><br>(yo‘riqnomा)-     | Biron-bir ishni bajarish uchun eng zarur bo‘lgan umumiy ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan risola yoki varaqা.   |
| <b>ESLATMALAR</b><br><b>SOHASI-</b> | Tasvirning alohida sohalari yoki butun hujjatga tegishli qo‘shimcha ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan bibliografik tasvir sohasi.   |
| <b>ESLATMA</b><br>(marginaliya)-    | <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Sahifaning hoshiyasiga chiqarilgan va tegishli matnning birinchi satri qarshisiga joylashgan sarlavha.</li> <li>2. Nashr hoshiyasidagi qayd (belgi, izoh)</li> </ol> |
| <b>ESKI BOSMA</b><br><b>KITOB-</b>  | Tegishli davlatga kitob bosish kirib kelgandan keyingi ma’lum bir davralig‘ida chiqarilgan kitoblardan biri. Qarang: birinchi kitob, bosma kitob.  |
| <b>ESTAMP-</b>                      | Bosma shakldagi (masalan, gravyurali) tasviriy san’at asarining rassomning o‘z tomonidan tayyorlangan bosma nusxasi.   |
| <b>ETIMOLOGIK</b><br><b>LUG‘AT-</b> | So‘zlarning kelib chiqishini tushuntiruvchi lingvistik lug‘at.   |

## EHTIYOT FONDI

(rezerv)-

Kutubxona va uning filiallari fondini to'ldirib borish uchun mo'ljallangan kutubxona fondining bir qismi.

- F -

## FASET-

Ikki nuqta bilan tasniflashdan mazmun birligi asosida jamlangan o'zaro bog'liq tushunchalarining qatori. Bu atama SH.R.Ranganat tomonidan qilingan.

## FASETLI SHARTLI

### IFODA-

"Ikki nuqta bilan tasniflashda" alohida ajratuvchilar indekslari orqali bosma asar mazmunini aks ettiruvchi har bir turkum uchun aniq belgilangan tartibda belgini umumlashtirish imkonini beruvchi tasnif-lash shartli ifodasini (formulasini) "Ikki nuqta bilan tasniflashda" universal fasetli shartli ifoda mavjud. Lekin har bir turkumda o'z fasetli shartli ifodasi asosida tuzilgan bo'lsada, aynan shu turkumning xususiyatlari aks ettiriladi.

## FAKTOGRAFIK

MA'LUMOTNOMA- Bir martalik talabnomasi, o'z ichida faktik ma'lumotlar berilgan javob.

## FONOTEKA-

Kutubxona fondining ovoz yozuvlaridan (grammafon likopchalari, magnit tasmlar, videodisklar) iborat bir qismi. Qarang: ovoz yozuvlari fondi.

## FONDNING AYLANISHI-

Kutubxona fondining ishlatalishi jadvalini ifoda etuvchi nisbiy ko'rsatgich. Ma'lum vaqt mobaynida fondning hisob birligiga to'g'ri keladigan kitob berish soni bilan o'lchanadi.

## FONDNING ARALASH JOYLASHUVI-

Fondning yotiqlari va tikka joylashtirish usullarining aralash qo'llanilib, uyg'unlashib ketishi.

## FONDNING ALFAVIT TARTIBDA JOYLANISHI-

Mualliflar yoki hujjat sarlavhalarining alfavit tartibda joylanishi. Fondni joylashda asosiy yoki (aksariyat hollarda) sistemali joylash bilan birga, shuningdek, xronologik tartibda joylash (odatda davriy nashrlarni joylash uchun) bilan birga qo'llaniladi.

## FONDNI BOSHQARISH-

Kutubxona vazifalari va kitobxonlar tabaqchilashlari mos ravishda fond tarkibi, hajmi va samaradorligini oshirish maqsadida fondni komplektlashtirish va tashkil etishni yo'lga qo'yish. (boshqarish)

## FONDNING UMUMIY HISOBI-

Har bir nusxani hisobga olish o'rniqa faqat nashr nomini ro'yxat qilishdan iborat fondning soddalashtirilgan xususiy

hisoboti. Ko‘p sonli nusxada keladigan adabiyotni hisobga olishda qo‘llaniladi.

## FONDNI JO‘G‘ROFIY

**JOYLASHTIRISH-** Hujjatlarni nashr joyi yoki hujjat maz-muni bag‘ishlangan joy nomlariga ko‘ra joylash uchun qo‘llaniladi: gazetalarni, texnik hujjatlarni ayrim turlarini, yordamchi sifatida fondni sistemali va nomerlangan joylarda qo‘llaniladi.

**FOND GIGIYENASI-** Fondni biologik ob’ektlari (mikroorganizmlar, hashoratlar kemiruvchilar va h.k.) dan halokatli ta’sirlardan saqlashga qaratilgan tadbirlar majmui. O‘z ichiga fond omborlaridan maqbul fizik-kimyoviy muxitni yaratish, “kasal” kitoblarni aniqlash va “davolash” dezenfeksiya (bakteriya va saprofitlarni yo‘qotish) dezensaksiya (hashoratlarni yo‘qotish) “deritizatsiya” (kemiruvchilarni yo‘qotish) ni oladi.

## FONDNING

**KERAKSIZ QISMI-** Kutubxona uchun o‘zining ilmiy, ma’rifiy va amaliy qimmatini yo‘qotgan kutubxona fondining qismi. Unga eskirgan adabiyotlar, qayta ta’mirlanishi mumkin bo‘lmagan omonat kitoblar, turli sabablar bilan kitobxonlarda qiziqish uyg‘otmagan nashrlar va h.q lar kiradi.

## FONDNING JOY-LASHISHI-

Foydalanish va saqlanishi qulaylashtirish

maqsadida fondni kutubxona bino (xona) larda va strukturaviy bo‘linmalari bo‘yicha joylashtirish. Fondni saqlash joyi-da joylashning uch usuliga ajratiladi: tik (vertikal), yotiq (gorizontal) va aralash.

#### FONDNI JOY-LASHTIRISH-

Fondning hajmini, uning vazifasini va hujjatlari tarkibiga bog‘liq tarzda fond saqlash joylarida (omborlarida) hujjatlarni joylashtirishning ikki asosiy turi farq-lanadi: mantiqiy (sistemali, tematik, predmetli) va formal (alfavitli, geografik, inventarli, nomerlangan, formatli, xronologik, til asosida). Fondni joylash-tirish turlari qo‘shtarzda ham qo’llanilishi mumkin: Masalan: sistematisk alfavitli, bunda birinchi belgisi-asosiy, ikkinchisi-yordamchi hisoblanadi.

#### FOND ZAHIRASI-NING SIG‘IMI-

Normativ ish sharoitida joylanishi mumkin bo‘lgan hujjatlarning soni bilan belgilanadigan fond omborlari (zahirasining) hajmining miqdoriy xarakteristikasi.

#### FONDNI DEPO-ZITARDA SAQLASH-

O‘lka va mamlakat kutubxona fondlarini oqilona joylash va ishlatish maqsadida ma‘lum soha bo‘yicha hujjatlar (kam ishlataladiganini ham) maxsus ajratilgan kutubxonalarda yoki kitob zahiralarida doimiy saqlash uchun o‘tkaziladi.

**FONDNI DEPOZI-  
TAR SAQLASH  
TIZIMI-**

Kam foydalaniladigan hujjatlarni reja bilan oqilona komplektlashtirish, ishlatish va saqlash maqsadida kutubxonalar-ning o'inka yoki umummilliy birlashmasi: hukumat qarorlari asosida amalga oshiriladi. Depozitar kutubxonalarda ma'lum bir soha bo'yicha iloji boricha to'liq fondni rejali asosida to'plashga imkon yaratadi.

**FONDNING ISHO-  
NARLILIGI-**

Fondning kitobxonlarni ma'lum sohasidagi hujjatlarga talabini yetarli darajada ta'minlay olish imkoniyati.

**FOND IXTISOSI-**

Kutubxona vazifalari va kitobxonlar tabbi bilan bog'liq bo'lgan, fondga olingan hujjatlarning (mavzusi, turi, xronologik chegaralari, til tarkibi va boshqa belgilariiga ko'ra) tarkibida o'z ifodasini topgan fondning o'ziga xos xususiyatlari.

**FONDNING KAM  
ISHLATILADIGAN  
QISMASI-**

Shu kutubxona uchun hujjatlarning eng maqbul iste'molda bo'lish ko'rsatgichlaridan, kam talab qilinadigan fondning bir qismi.

**FOND MODELI-**

Fondning asosiy xususiyatlarini va ularning o'zaro munosabat - aloqalarini aks ettiruvchi mavhumlashtirilgan timsoli, eng maqbul model o'zida asosiy son va maqbul model o'zida asosiy son va sifat parametrlarini mujassam qilgan ideal

timсли. Кутубхона фондining quyidagi modelлari yaratiladi: tasviriy (so‘zлari obrazni beradi), miqdoriy-sohaviy (matematik), bibliografik (aniq nashrlar ro‘yxatini taklif etuvchi) va boshqalar.

#### FONDNI MODEL-LASHTIRISH-

Kutubxona fondini xususiyatlari va parametrlarining modellari yordamida, tiklash va aniqlash: Fondlarni o‘rganish va keyingi optemallashtirish maqsadida amalga oshiriladi.

#### FONDLAR MAJMUI-

Yagona reja asosida shakllantiriladigan va ishlatiladigan bir yoki bir necha kutubxonalarning o‘zaro bog‘liq va bir-birini to‘ldirib keladigan fondlarning majmui.

#### FONDNI MANTIQIY JOYLASHTIRISH-

Hujjatlarni, ularning mazmun-mundarajasi belgilariga asosan, tartibga solishdan iborat joylash usullarining guruhi.

#### FONDNI MINIA-TURALASH-

Fondni (uning bir qismi) hujjatlarning mikronusxalari bilan almshtirish.

#### FONDNING MO-NANDLIGI-

Fondda bor bo‘lgan hujjatlar majmuining kitobxonlarning axborot ehtiyojlariga monandligi.

**FONDNING  
MOSLIGI-**

Kutubxona fondida bor bo‘lgan hujjatlar majmuining kitobxonlar ehtiyojiga mosligi.

**FONDNI MAVZU  
BO‘YICHA  
JOYLASH-**

Juda muhim mavzular bo‘yicha bosma asarlarni bir joyga to‘plash uchun qo‘llaniladigan mantiqiy joylash (odatda uncha katta bo‘lmagan fondlarni sistemali joylanishi asosida amalga oshiriladi).

**FONDNING  
MAVZUIY  
TIPOLOGIK  
TARKIBI-**

Fondning mazmuni, unda mujassamlangan axborotning tavsiyatlanish darajasi va uning maqsadiga va kitobxonlar talabiga muvofiqligi. Kitobxonlarning axborotga bo‘lgan talablariga mos tarzda xizmat ko‘rsatish tizimidagi o‘rnini hisobga olib har bir kutubxona uchun alohida belgilanadi. Fondni mavzuiy-tipologik tarkibi asosida fondga kirgan nashrlar tegishli bo‘lgan aniq mavzularning ro‘yxati turadi. Kutubxona ishining samaradorligi uchun zarur bo‘lgan fondning mavzuiy-tipologik tarkibi kompleklashning mavzuiy-tipologik rejasi-da o‘z ifodasini topadi.

**FONDNING NISBIY  
TO‘LIQLIGI-**

Kutubxona axborot jarayonlarida amal

qiluvchi axborotning tarqalishi va to‘planishi qonuniyatini hisobga olgan holda kutubxona fondini (uning olgan bo‘yicha) amaliy erishish mumkin bo‘lgan to‘liq komplektlashganligi darajasi.

#### FONDNING ORTIQ-

#### CHA TO‘LALIGI-

Fondda kam ishlataladigan hujjatlarning, shuningdek, fond sohasiga va kitobxonlarning haqiqiy talablariga to‘liq mos kelmaydigan turlagi va mavzudagi hujjatlarning ortiqcha sonining mavjudligi.

#### FONDNI TIK JOY-

#### LASHTIRISH-

Fondni tik, ko‘p qavatli saqlash joyi. Odatda katta fondlar uchun qo‘llaniladi.

#### FOND OCHIQLIGI-

Kitobxonga bosma asarlarni kutubxona fondida bevosita izlash va tanlash uchun imkoniyat yaratuvchi xizmat ko‘rsatish uslubi.

#### FONDNING

#### NOFAOL QISMI-

Fondning o‘rganilayotgan davr mobaynida kitobxonalar tomonidan ob’ektiv va sub’ektiv sabablar bilan foydalanilmagan qismi. Uning tarkibiga kitobxonalar talabiga mos, lekin nohaq unutib yuborilgan, sohaga to‘g‘ri kelmaydigan hujjatlar, ortiqcha dublet nusxalar, shuningdek, kam tasodifiy so‘raladigan hujjtlar kiradi. Fondning nofaol qismi fondning mustahkamligini ta’minlaydi.

**FONDNI PREDME-**  
**TIGA QARAB JOY-**  
**LASHTIRISH-**

Ma'lum predmet bo'yicha hujjatlarni toplash uchun qo'llaniladigan mantiqiy joylash.

**FONDNI**  
**SAQLASH-**

Fondni oqilona joylashga va foydalanish maqsadida uzoq vaqt saqlashga qaratilgan majmui. Fondni saqlash o'z ichiga quyidagilarni oladi: bino yoki xonalarni va jihozlarni fondni joylash uchun tay-yorlash, tokchalarga joylash, eng maqbul fizik-kimyoviy va biologik shart-sharoitini yaratish.

**FONDNING**  
**SAQLANISHI-**

Fondda saqlanayotgan (mavjud bo'lgan) hujjatlarning bus-butunligi va o'rtacha holatini ta'minlash. Fondni to'g'ri asrash va uni ishdan chiqish va o'g'irlanishdan saqlash yo'li amalga oshiriladi. Fondning saqlanishiga, shuningdek, hujjatlarni saqlash qonun-qoidalarga rioya qilish, buzishdan saqlash va o'z vaqtida tiklash (ta'mirlash) yordam beradi.

**FONDNI**  
**SAQLASH**  
**BIRLIGI-**

Saqlashda alohida birlik sifatida qayd etiladigan mustaqil (alohida) hujjat (yoki hujjatlar yig'indisini).

**FOND SAQLANA-**  
**DIGAN JOY-**

Bosma asarlarni va boshqa materiallarni

saqlash uchun foydalanadigan maxsus  
jihozlangan bino yoki xona.  
Sin: kitob saqlaydigan joy.

**FONDNI SISTEMA-  
LI JOYLASH-**

Hujjatlarni bilim sohalari bo'yicha man-  
tiqiy joylash. Kichik fondli kutubxo-  
nalarda, yirik kutubxonalarining yordam-  
chi va ixtisoslashtirilgan fondlarda,  
ochiq fondlarda keng qo'llanilishi.

**FONDNING SIG'IM  
IMKONIYATI-**

Fondning kitobxonlar soni va ular ta-  
lablarining mavzu doirasi salmoqli  
o'sganda kitobxonalr talabini qondira-  
lish imkoniyati.

**FONDNING SOHALI  
TARKIBI-**

Kutubxona fondidagi bo'limning turli  
sohalarga oid adabiyotlar soniga nisbati.  
Odatda har bir sohaga oid adabiyotning  
butun fondga nisbatan solishtirish  
hajmini ko'rsatuvchi foiz ko'rsatkichla-  
rida ifodalanishi.

**FOND TARKIBI-**

Hujjatlarni turi, bosma asarlar va boshqa  
materialarning mazmuni, tili, qaysi dav-  
latga mansubligi, nashr yili qimmati  
bo'yicha fondning ta'rifi.

**FOND TUZILMASI-**

Kutubxona fondi bo'linmalarining bir-  
biriga nisbatan joylashgan tartibi va  
o'zaro munosabatlarining nazarda tutgan  
holda fondni ish berishi nuqtai-nazaridan  
tashkil etish. Fond tuzilmasi fondning

hajmiga, sohaviy va til tarkibiga, hujatlarning turlariga, kitobxonlarga xizmat ko'rsatishni ixtisoslashtirish zaruriyatiga bog'liq.

#### FONDNI TARTIB RAQAMI BILAN JOYLASHTIRISH-

Hujjatlarni kutubxonaga kelishi tartibiga qarab nomerlash yoki xalqaro standart nomerlar asosida formal (yuzaki) joylashtirish.

#### FONDNI TASHKIL ETISH-

Fondni uning oldida turgan vazifalariga qo'yilgan talablariga muvofiq tarzda ishlashini ta'minlaydigan ish va jarayonlarining majmuasi. Fondni tashkil etish o'z ichiga hujjatlarni qabul qilish, hisobga olish, kutubxona texnikaviy ishlov berish, joylash va saqlashni oladi.

#### FONDNI TEKSHIRISH-

Kutubxona hujjatlarida ro'yxatga olin-gan bosma asarlar va o'zga materiallarni fond-da bor yoki yo'qligini aniqlash maqsadida individual hisob hujjatlari bilan fondda saqlanadigan har bir hujjatni tekshirish.

#### FONDDA TIL BEL- GISI ASOSIDA JOYLAsh-

Bosma asarlarni yozilgan tili bo'yicha shakliy joylashish: sistemali va alfavitli joylash bilan birga qo'llaniladi.

## FONDNING TIPOLOGIK TARKIBI-

Ko‘zda tutilgan turlicha maqsadi va kitobxonlar doirasiga ko‘ra adabiyotlarning (fonddag'i yoki uning bo‘limlaridagi) nisbatan odatda fonddag'i har bir turdag'i adabiyot salmog‘ining foiz darajalarida ifodalanadi.

## FONDNING TO'LALIGI-

Fondni komplektlashtirish vaqtida kitobxonlar talabini iloji boricha to‘liq qondirish maqsadida hujjatlarni qamrab olish darajasi. Kutubxona fondida ma'lum mavzu bo‘yicha bor bo‘lgan hujjatlarni kitobxonlarning axborotga bo‘lgan ehtiyojini optimal qondirish uchun zarur bo‘lgan (soha bo‘yicha) hujjatlar soniga nisbati bilan belgilanadi.

## FOND HAJMI-

Belgilangan hisob birliklaridagi hujjatlar soni. Fond hajmi kutubxonalarining ma'lumot tashish imkoniyatlari va aholining kutubxona kitoblari bilan ta'minlash darajasi me'yorlaridan biridir.

## FOND HARAKATI-

Hujjatlarni qabul qilish va ro‘yxatdan chiqarish jarayoni. Yalpi hisob-kitob bo‘yicha belgilanib boradi.

## FONDNI HISOBBLASH-

Fondni hajmi, tarkibi va harakati haqidagi aniq ma'lumotlarni olishga yordam beruvchi, shuningdek, fondning butunligini ta'minlovchi ishlar yig‘indisi.

## FOND HISOB

### BIRLIGI-

Fond hajmini hisob qilish birligi. Nusxa va asar nomi barcha turdag'i nashrlar (gazetalardan tashqari) va nashr etilayotgan materiallar o'quv fondni qayd etish birligi hisoblanadi: gazetalar uchun yilik kompleks va nomi, kinofoto hujjatlar uchun nomi, bu turdag'i hujjatlar hisobi material birligi hisobidan (o'ram, kadr, bobina va h.k.) kelib chiqib olib boriladi. Qarang: hisob birligi.

## FONDNI XRONOLOGIK (davriy-tarixiy) JOYLASHISHI-

Hujjatlarni chiqarilgan yillari bo'yicha formal joylashtirish: alfavitli, nomerlangan va boshqa joylashtirish bilan qo'shilib kelishi.

## FONDNING XRONOLOGIK KO'LAMI-

Ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan kolleksiyanı yoki hujjatlar yig'indisini tashkil etuv-chi bosma asarlarning tizimli komplektlash boshlangan davr bo'yicha fondning ta'rifi, ular nashr etilgan avvalgi yili bo'yicha ifodalanadi.

## FONDNI O'LCHAM ASOSIDA JOYLASH-

Bosma asarlarni o'lchami bo'yicha formal (balandligi) joylash. Sistemali yoki xronologik joylashlarda yordamchi sifatida qo'llaniladi.

FONDNI  
SHAKLAN  
JOYLASH-

Hujjatlarning tashqi belgilari (o'lchami, muallif va sarlavhalarning alfavit tartibi nashr joyi)ga asosan joylash. Mazkur joylash guruhiga quyidagilar kiradi: alfavitli, raqamlangan, o'lchamli, xronologik, pullik.

FONDNING  
FAOL  
QISMI-

Muayyan fondning boshqa qismlariga nisbatan ko'proq foydalanishda bo'ladigan qismi.

FONDNING  
FOYDALANILMAY  
QOLGAN  
QISMI-

Kutubxonaga kelgan vaqtidan buyon biron marta ham talab qilinmagan hujjatlardan tashkil topgan fondning bir qismi. Fondning ishlatilmaydigan qismi tarkibida fond ballastini va fond mustahkamligini ta'minlovchi fondning passiv qismi farqlanadi.

FONDNI  
SHAKLLAN-  
TIRISH-

Kutubxona fondini yaratish va rivojlan-tirishga qaratilgan jarayonlar yig'indisi. Komplektlashdan fondni tashkil etish va boshqarishdan, shuningdek, bosma asarlarni va boshqa materiallarni fonddan chiqarib tashlashdan iborat, kutubxona turiga. kitobxonlarning tarkibiga soni va

qiziqishlariga, nashriyot mahsulotining chiqarilishiga, ilm va ishlab chiqarishning axborotga bo‘lgan ehtiyojining rivoj-lanishiga boqlig‘.

## FONDNI YANGILASH-

Fondni shakllanishi jarayonida yangi kelgan va chiqarib tashlangan adabiyotlar hisobiga fond hajmi va tarkibining o‘zgarishi.

## FONDNI YANGI- LANISHI-

O‘rganilayotgan davr mobaynida (bir yildan 5 yilgacha) fondning yangilanish darajasini ifodalovchi ko‘rsatgich. Quyidagi shartli ifoda asosida aniqlanadi.

P  
N= - - 100  
Fk

Bunda P (YA)-o‘rganilayotgan davr mobaynida yangi kelgan hujjatlar hajmi,

Fk (Fo) - o‘rganilayotgan davrning oxirida fond hajmi

YA  
N= - - x 100 foiz  
Fo

## FOND O‘ZAGI-

Kutubxona fondining ixtisosligi mos bo‘lgan bilim sohalari va nashr turlari bo‘yicha ilmiy, badiiy jihatdan katta qimmatga ega bo‘lgan eng muhim asarlar va boshqa hujjatlarning yig‘indisi.

**FONDNING  
O'ZGARISHI-**

Tinimsiz yangilash, fond tarkibining, tulishining, tashkilining va sifat o'zgarishlarining, shuningdek, alohida kutub-xonalar tarmog'i doirasida fondni harakati natijasida fond xususiyatlarining o'zgarishi.

**FONDNING O'TA  
FAOL QISMI-**

Fondning o'rtacha ishlatalishiga qarab nisbatan ikki va undan ortiq marotaba ko'proq ishlataladigan hujjatlardan iborat fondning bir qismi.

**FONOTEKA-**

Qarang: Yozilgan ovoz manbalari fondida tovush yozilgan materiallardan iborat (grammafon, likobchalari, magnitafon tasmalari) kutubxona fondining bir qismi.

**FOTOHUJJAT-**

Tovush yozish moslamasi yordamida qayd etilgan tovushli axborotni o'z ichiga olgan hujjat.

**FORZATS-**

Kitob blokini boshini muqovasining old tomoni bilan va kitob blokining oxirini muqovaning orqa tomoni bilan birlash-tiradigan ikki bukilgan qog'oz varaq yoki latta tizimchasi yordamida o'zaro biriktirilgan ikki varaqdan iborat konstruksiya. Forzats toza, yoki bezak, yoki syujetli tasvir tushirilgan, hamda nashr mavzusidagi axborot yoki o'zga ma'lumotlarni o'ziga olgan bo'lishi mumkin.

**FILM-**

Fotografiya usulida qator tasvirlar tu-

shirilgan yorug'likni sezuvchi qoplamadagi shaffof lenta.

## FUNKSIONAL ABONEMENT-

Har bir kutubxonachi bajarishi uchun kitobxonlarga xizmat qilish doirasidagi ma'lum bir ish (kutubxonaga a'zo qilish, kitob qabul qilish, tokchalar oldida maslahat berish, kitob berishni rasmiylashtirish) belgilab qo'yilgan abonementi.

## - G -

### GAZETA -

Vaqtli matnli varaqa shaklidagi nashr. O'z ichiga rasmiy materialarni, amaliy axborotlarni va dolzarb ijtimoiy-siyosiy, ilmiy ishlab chiqarishga oid va boshqa masalalar bo'yicha maqolalar, shuningdek, badiiy asarlar, rasm, suratlar, reklamalarni oladi.

GAZETA NASHRI - Ma'lum hajmda, nashriyot tomonidan ayni shu nashrga moslashtirilgan bir yoki bir necha sahifa tarzidagi varaqa nashri.

### GAZETA FONDI -

Gazeta nashri belgilariga ega bo'lgan bosma asarlardan iborat kutubxona fondining bir qismi.

### GAZETADAGI BIBLIOGRAFIK QO'LLANMA -

Gazeta sahifalarida mustaqil material siyatida bosilgan bibliografik qo'llanma.

## **GAZETALARНИ**

### **TIKISH**

Gazeta fondlarining hisobga olishning qo'shimcha birligi, gazetalarning yig'ib, tikib qo'yilgan sonlari, har sonning hajmi va chiqish vaqtiga qarab shakllanadi.

### **GEKTOGRAF**

Matndan nusxa ko'chirib ko'paytirish qurilmasi. Jelatin qavatining matn yozilgan maxsus siyohni o'zida ushlab qolish va unga qisilgan qog'ozga ko'chirish quvvatiga asoslangan.

### **GURUHLAB ANNOTATSIYALASH-**

Ikki yoki undan ortiq hujjatlarni umumiy tasvirini o'z ichiga olgan annotatsiya.

### **GURUHLAB BIBLIOGRAFIK AXBOROT BERISH-**

Axborot talabgorlari guruhida bibliografik ma'lumot berish. Bunda guruh a'zolari mazmunan bir-biriga yaqin axborotga ehtiyoj his qiladilar va ular kasbi, yoshi, bilim darajasi va shu kabilalar belgilariga ko'ra guruhga ajratiladi.

### **GURUHLAB ISHLOV BERILGAN MATERIALLAR FONDI -**

Kutubxona fondining kataloglarda aks ettirish kitobxonlar tomonidan ishlatilishini yengillashtirish maqsadida bir xildagi belgilari asosida birlashtirilgan hujjatlardan iborat bir qismi.

- H -

**HAVOLA-**

1. Matndan tashqari sahifa ostida izoh yozuvchi yoki bibliografik izoh. Matnni tegishli joyi bilan turli usullarga beriladigan tartib nomeri orqali bog'lanadi.
2. Manbaa haqidagi ma'lumotni (qarang: bibliograf, havola) yoki hujjatning qismlarini o'zaro bog'lovchi qisqacha qaydni o'z ichiga olgan nashr apparatining bir qismi. Umumiyligi va xususiy havolalar farqlanadi. Umumiyligi havola (qaralsin) hujjatning boshqa bir o'rni e'tiborni qaratadi. Xususiy havola (qaralsin) yaqin, yondosh, bir-birini to'ldirib keladigan hujjatning qismlarini o'zaro bog'laydi.

**HAVOLA**

**IZOH-**

Tushuntirish yoki ma'lumot berish ruhidagi yordamchi matndan iborat nashr apparatining tarkibiy qismi, sahifa ostida joylashtiriladi va asosiy matn bilan havola izoh belgisi orqali yoki asteristik yordamida bog'lanadi.

**HAMMUALLIF-**

Asarni boshqa shaxs (shaxslar) yoki tashkilot (tashkilotlar) bilan birgalikda yaratgan shaxs yoki tashkilot.

**HAMMUALLIFLIK-** Asarga nisbatan ikki yoki bir necha shaxsiga tegishli bo'lgan mualliflik huquqi. Alovida mualliflik (bunda har bir muallif biron bir qismini alovida yaratadi va o'z qismiga mualliflik huquqini oladi) va alovida bo'lмаган hammualliflik (bunda

asarni alohida mustaqil qismlarga ajratishning imkonini bo‘lmaydi) farqlanadi.

#### HAMKORLIKDAGI

#### NASHR-

Ikki yoki undan ortiq nashriyot nomidan chiqariladigan, birgalikdagi mualliflik va muxarrirlik nashriyot ishlari natijasida yaratiladigan nashr. (bunda nashriyotlar bir yoki turli davlatlarga tegishli bo‘lishi mumkin. Har bir nashr etuvchi tomonning mualliflik huquqiga ega bo‘lishi va nashr etish uchun o‘z iqtisodiy ulushini qo‘sishi nazarda tutiladi.)

#### HARAKATDAGI

#### FOND-

Kutubxonalarga xizmat ko‘rsatish sistemasida ishlatiladigan kutubxona fondining bir qismi.

#### HAFTANOMA-

Haftada bir marta chiqadigan davriy nashr.

Qarang: haftalik nashr.

#### HISOB KATALOGI

MKTda yagona fondining har bir kitob va risola alohida ro‘yxatga olingan kartochkalardan iborat yordamchi katalog. Hisob katalogida bibliografik qaydlar alohida shakldagi kartochkalarga yoziladi va alfavit tarzida joylashtiriladi. Hisob katalogining kartochkasi varaqasi standartlashtirilgan.

#### HISOB - NASHR

#### TABOG‘I-

40 ming bosma belgiga yoki 700 misraga teng she’riy matnga yoki 3000 sm<sup>2</sup> teng

tasviriy materialga teng nashr hajmi birligi.

**HISOBLASH TEX-**

**NIKASI-**

Axborotni ishlash jarayonlarini mexanizasiyalash va avtomatlashtirish uchun ishlatiladigan hisoblash mashinalari, qurilmalari va asboblari.

**HUJJAT-**

Istalgan moddiy tashuvchi saqlash, tarqatish va ishlatish maqsadida qayd etilgan ijtimoiy axborot. Kutubxona-bibliografik fani va amaliyotida hujjat deganda, asosan, bosma asarlar, jumladan, nashr etilmagan ham audiovizual va boshqa hujjatli axborot manbalari nazarda tutiladi.

**HUJJATLI AXBOROT IZLANISH**

**TIZIMI-**

Hujjatlarni va (yoki) ular haqidagi ma'lumotni izlashga qaratilgan axborot izlanish tizimi.

**HUJJAT ALMASH-**

**TIRILUVCHI-**

Fondga yo'qotilgan hujjat o'rniliga uning ko'chirma nusxasini, boshqa nusxasini yoki unga teng boshqa hujjatni kiritish.

**HUJJATNI IZLASH-**

Axborot talabnomasida ko'rsatilgan hujjatni izlash.

**HUJJATNI IZLASH**

**TO'LALIGI-**

Topilgan talabnomaga mos hujjatlar sonining izlanish olib borilgan hujjatlar

to‘plamidagi shu talabnomaga mos hujjatlar soniga bo‘lgan nisbatini ifoda etuvchi ko‘rsatgich.

## HUJJATNI IZLASH

### TIMSOLI (XAT)-

Axborotni izlashda foydalaniladigan va hujjatning asosiy mazmunini axborot izlash tilida ifoda etadigan matn.

## HUJJATLI TALAB-

### NOMA-

Axborot xizmatini o‘tovchi tashkilotga (kutubxona, ITA, muassisi, arxiv va h.k.) axborot iste’molchisidan kelib tushgan hujjatlarga talabnomasi.

## HUJJATNING SAQ-

### LANISH SHIFRI-

Harf yoki raqam belgilari ko‘rinishidagi hujjat saqlanadigan joyning shartli belgilanishi, o‘z ichiga hujjatlarning kutubxonaga kelib tushishi tartibidagi nomerini, inventar nomerini, tasniflash indekslarini, mualliflik belgilarini oladi.

- I -

## IDENTIFIKASIYA-

### LOVCHI

### BELGILAR-

Bibliografik yozuvlar sarlavhasini aniqlovchi ma’lumotlar: sanalar, mutaxassislik, titul, son, geografik nom va boshqalar.

## IDEOGRAFIK

### LUG‘AT -

So‘zlarning ma’no jihatdan yaqinligiga qarab joylashtirilgan lingvistik lug‘at.

**IZOH-**

1. Asarning asosiy matni, nashrning aniq bir o‘rnini qisqacha tushuntirish va aniqlik kiritish. Muallifga, muxarririga, tarjimonga va h.k.ga tegishli bo‘lishi mumkin. Joylashtirilgan o‘rniga qarab matni (tegishli matn ketidan joylashtiriladi va odatda qavs ichida beriladi) bet osti (ayni shu sahifadagi matnning bet ostiga tushiriladi), matndan tashqari (bob yoki kitobning oxirida joylashtiriladi) da bo‘lishi mumkin.
2. Bibliografik tasvirning alohida o‘rinlariga yoki butun nashrga tegishli qo‘srimcha ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan bibliografik tasvir unsuri (elementi).

**IZOHLI LUG‘AT-**

So‘zlarning ma’nosini tushuntirib beruvchi va ularning grammatik va stilistik tabiatini ochib beruvchi, shuningdek, qo‘llanilishi misollar bilan izohlangan lug‘atdir.

**IJTIMOIY-SIYOSIY ADABIYOT -**

Ijtimoiy munosabatlar va davlat faoliyati mamlakatlarning ichki iqtisodiy, ijtimoiy mavzulardagi asarlar majmuasi.  
Qarang: siyosiy adabiyot.

**IJTIMOIY-SIYOSIY NASHR -**

Ijtimoiy-siyosiy adabiyot asarlarining o‘z ichiga olgan nashr, ya’ni bayoni keng kitobxonlar ommasi uchun tushunarli bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy mavzudagi, targ‘ibot va tarbiyaviy mazmundagi asarlar.

**IKKILAMCHI  
SARALASH -**

Fondning tarkibi, rivoji va foydalanilishini o'rganish natijalari asosida amalga oshirilgan ayni shu fond uchun zarur bo'lgan hujjatlarni va chiqarib tashlash kerak bo'lgan hujjatlarni saralash.

**IKKI  
KARTOCHKALI  
ABONEMENT  
TIZIMI -**

Nashrlarni berish va qaytarishni, olish va qaytarish muddatini barobar, ham kitobxon formulyari, ham kitob formulyarida yozib borish yo'li bilan nazorat qilish tizimi.

**IKKI TILLIK  
LUG'AT -**

Ikki til lug'aviy tarkibidagi so'zlarning tarjimalari orqali qiyoslab beruvchi lug'at.

**IKKILAMCHI  
HUJJAT -**

Bir yoki bir necha birlamchi hujjatlarni tahliliy qayta ishlash natijasida yaratilgan hujjat.

**ILOVA -**

1. Alovida nashr etilgan, lekin asosiy nashr bilan bog'langan, uni tushuntirib to'ldirgan, izohlab beradigan mustaqil bo'lman bosma asar. (Masalan: xaritalar albomi fotosuratlar albomi va h.k.)
2. Nashrning oxirida shu nom bilan berilgan, ma'lumot yoki hujjatli qismi (maqola, hujjat, matn, chizma jadval h.k.)
3. Asosiy davriy nashr (Masalan: "Sharq

Yulduzi” jurnali) bilan birga obuna yo‘li bilan tarqatiladigan nashr (Masalan: Yo-zuvchilarning asarlari to‘plami).

#### ILOVALAR

#### RO‘YXATI -

Nashrda keltirilgan ilovalarning, ularning qisqacha tasviri berilgan va ular bosilgan sahifalar ko‘rsatilgan ro‘yxatdan iborat nashr apparatining bir qismi.

#### ILMIY KENGASH

#### (yig‘in) MA’RUZALARINING TEZIS-

#### LARI -

Xabar ruhidagi kengash (yig‘in) dan avval nashr etilgan (ma’ruzalarning qisqacha matnlari) ularning izohlari yoki referatlarini o‘z ichiga olgan ilmiy davriy to‘plamlar.

#### ILMIY-TEXNIKA

#### AXBOROTI

#### MUASSISI

#### (ITA) (organi) -

Ilmiy axborot faoliyatining olib boruvchi, shuningdek, shu sohada ilmiy izlansishlar bilan shug‘ullanuvchi maxsus tashkilot yoki muassasa tarkibiga kiruvchi bo‘linma.

#### ILMIY-TEXNIKA

#### AXBOROTI

#### DAVLAT

#### TIZIMI (GSNTI)

#### MUASSISI (organi)- Davlat budjetida bo‘lgan va tegishli

hokimiyat muassisi tomonidan boshqariladigan ilmiy-axborot va ilmiy-texnika kutubxona muassislarining majmuasi (ITADT)

**ILMIY  
KUTUBXONA -**

Kutubxona sohasida ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanuvchi, ilmiy-tadqiqot muassasa maqomini olgan, ijodiy va il-miy faoliyat bilan bog‘liq kitobxonlarning talabini qondiruvchi kutubxona.

**ILMIY AXBOROT** - Ilmiy izlanish natijasida olingan, jamiyat hayotining tegishli sohasida tadbiq etilishi mumkin bo‘lgan ma’lumot.

**ILMIY MULOQOT**- Olim va mutaxassislar o‘rtasida o‘zaro ilmiy axborot almashish.

**ILMIY ADABIYOT** - Ilmiy-texnika axborotga bo‘lgan talablarни qondirishga qaratilgan xalq xo‘jaligi faoliyatining bir sohasi. IAF tushunchasi ichiga ilmiy texnik axborotni analitiksintetik ishlab chiqish, saqlash, izlanish, tarqatish kiradi.

**ILMIY-TEXNIKA AXBO-  
ROTIGA RAHBARLIKNI  
TABAQALASHTIRISHNI  
TA’MINLASH**

(DORNTI) - Boshqarish muammolarini differensial hal etishga qaratilgan maxsus tayyorlangan axborot orqali turli darajadagi rahbarlikni ta’minlash.

## **ILMIY-**

### **METODIK ISH -**

Kutubxonalar ishi darajasini oshirish maqsadida kutubxona ishini yanada samarali usul va shakllarini aniqlash va ishlab chiqarishga, ularni amalda joriy etishga qaratilgan faoliyat. Ilmiy-uslubiy ish tu-shunchasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: a) qat’iy qoidalarni belgilovchi hujjat va standartlarni, uslubiy tavsiyanomalarni va h.k. ishlab chiqish. b) uslubiy das-turlar (qo‘llanmalar) d) uslubiy yordam ko‘rsatish. Ilmiy-uslubiy ishni kutubxo-na ishini boshqaruv muassislari va il-miy-uslubiy markazlar olib boradi.

### **ILMIY-METODIK MARKAZ -**

Tarmoq kutubxonalarini uslubiy boshqa-  
rish va ilmiy-uslubiy ishini amalgalashchi  
markaziy kutubxona. Kutubxonalarining  
yagona tizimi mavjudligida ilmiy-uslubiy  
markaz vazifasini tegishli umumittifoq,  
jumhuriyat, o‘lka, viloyat  
markaziy nohiya va markaziy shahar ku-  
tubxonalari bajaradi. Barcha kutubxo-  
nalar uchun (qayerga qarashli bo‘lishidan  
qat’iy nazar) bosh ilmiy-uslubiy markaz  
hisoblanadi. (Masalan: A.Navoiy nomli  
milliy kutubxona, Respublika bolalar ku-  
tubxonasi, “Turon” viloyat kutubxonasi).

## **ILMIY**

### **NASHRLAR -**

1. Ilmiy ishga mo‘ljallangan va o‘z ichiga nazariy va eksperimental tadqiqotlarni olgan nashr.
2. Mumtoz asarlar, hujjatlar, arxiv mate-

riallari nashrining turi bo'lib, matnning nashriga alohida sinchkovlik bilan tayyorlanganligi va keng ilmiy-axborot qismini o'z ichiga olganligi bilan ajralib turadi.

**ILMIY-  
YORDAMCHI**

**BIBLIOGRAFIYA-**

Ilmiy-tadqiqot faoliyat sohasidagi axborot ehtiyojlarini ta'minlovchi maxsus bibliografiya.

**ILMIY-OMMABOP  
NASHR -**

Ilm-fan, madaniyat va amaliy faoliyat sohalaridagi nazariy va eksperimental tadqiqotlar bo'yicha mutaxassis bo'lмаган kitobxonga mos shaklda berilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan nashr.

**ILMIY-AMALIY  
ANJUMAN -**

Ilmiy-tahliliy va umumiylar masalalarini va kutubxona ishlarining dolzarb muammlarini amaliy ish bilan shug'ullanuvchi xodimlar ishtirokida jamoa tarzida muhokama qilish.

**ILMIY-TEXNIKA  
KUTUBXONASI -**

Sanoat, qurilish, transport, aloqa sohalaridagi mutaxassislarni ilmiy va bibliografik ma'lumot bilan ta'minlovchi mustaqil tashkilot. Markaziy sohaviy ilmiy muassasaning bir qismi sifatida faoliyat olib boruvchi maxsus kutubxona. Uch asosiy ko'rinishga ega: sohaviy, hududiy va sohalararo.

**ILMIY ISHLARNI  
DEPONENTLASH-**

Qo‘lyozmalarni kutubxonada yoki axborot devonida saqlashni, kutubxonalarini qo‘lyozmalarini saqlashga qabul qilganligi to‘g‘risida va qo‘lyozma nusxalarini talab bo‘yicha jo‘natishni o‘z zimmasiga olgan, ilmiy ishlarni to‘plash va tarqatish usulidir.

**ILMIY ISHLAR  
TO‘PLAMI -**

Bir yoki bir necha o‘quv yurtlari yoki ilmiy tekshirish muassasalarining ilmiy ishlarini davriy yoki davomli to‘plamining namunaviy nashri.

**IMLO LUG‘ATI -**

So‘zlarning to‘g‘ri (normativ), adabiy til me‘yorlariga muvofiq yozilishini beruvchi lug‘at.

**INDEKSLAR  
TO‘G‘RILIGI -**

Sistemalashtirish metodikasi talablariga klassifikatsion indeks tarkibining to‘la mosligi.

**INDEKSLASH  
ATAMASI-**

Hujjatning qidiruv obrazida keltirilgan, aniq bir axborot qidiruv tili qoidalari asosida rasmiylashtirilgan, bir yoki bir necha bog‘langan leksik birlik.

**INDEKSAT-  
SIYALASH  
BELGILARI -**

Indeksatsiyalash jarayonida qo‘llaniladigan belgililar (harflar, sonlar, matematik va punktasion belgililar) majmuasi. Kod-

lashtirish nazariyasidagi kod alfaviti atamasasi shunga monanddir.

**INKUNABU-LALAR FONDI**

Kutubxona fondining bosma kitob chiqqan dastlabki davrida (1501 yil 1 yanvargacha) bosilib chiqarilgan kitoblardan tashkil topgan bir qismi.

**ISMLAR LUG'ATI** - Bir yoki bir necha (ko‘p) millatlarga oid bo‘lgan shaxsiy ismlarni o‘z ichiga olgan hamda ularning grammatik ta’rifi va tar-kibiy so‘zlari berilgan lingivistik lug‘at.

**ISTIQBOL BIBLIOGRAFIYASI**

Hali chiqmagan, nashrga tayyorlanayotgan hujjatlar haqidagi axborotni ta’minlovchi bibliografiya.

**ISTIQBOL BIBGRAFIYASI**

**QO‘LLANMASI**

Nashr etilishi ko‘zda tutilgan hujjatlar haqida ma’lumot beruvchi bibliografik qo‘llanma.

**ICHKI SARVARAQ**

Asar boshlanishidagi to‘rt sahifali sarvaraq. U avantitul, kontrtitul, titul sahifasi va titul sahifasining orqa tomonidan iborat. Kontrtitulda yaxlit holda ko‘p jildli yoki seriyali asar haqida ma’lumotlar joylashtiriladi, tarjima asarlarda titul sahifasidagi matn original tilda beriladi. Titul sahifasida (asosiy titul betida) ushbu jild yoki tarjima asar to‘g‘risidagi

ma'lumotlar nashr etilayotgan tilda yoziladi.

**IXTISOSLASHTI-RILGAN KUTUBXONA-**

Ixtisoslashtirilgan kutubxona fondiga ega bo'lgan, ma'lum toifadagi kitobxonlarga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan kutubxona. Bunday kutubxonalar qatoriga masalan, patent kutubxonasi kiradi.

**IXTISOSLASHTI-RILGAN FOND -**

Ma'lum bir belgisi (hujjatlar turi) bo'yicha tanlab olingan hujjatlardan tarkib topgan kutubxona fondi.

**IXTISOSLASHTI-RILGAN BIBLIOGRAFIYA -**

Vazifasi bo'yicha ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi axborotga bo'lgan talabni qondirishdan iborat bo'lgan bibliografiya.

**ISHLAB  
CHIQARISH  
ME'YORI**

- Vaqt birligi oralig'ida (1 daqiqa, 1 soat ish kuni) bajarilishi lozim bo'lgan ish hajmining aniq belgilangan miqdori.

**ISHLAB  
CHIQARISH  
KORXONASI  
KUTUBXONASI -**

Kitobxonlarning moddiy boyliklarni ishlab chiqarish bilan bog'liq madaniy ta-

lablarini qondirishga qaratilgan, biror zavod, fabrika va boshqa korxona tasarrufidagi kutubxona.

**ISHLAB  
CHIQARISH-  
GA OID NASHR -**

Turli masalaga ega bo‘lgan mutaxassis-larga mo‘ljallangan, texnologiya, texnik va (yoki) ishlab chiqarishni tashkil etish haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan nashr.

**IQTISODIY TA’-  
MINOT-**

Avtomatlashtirilgan kutubxonani moliyalashtiruvchi vositalar majmui. Bunga davlat tashkilotlaridan olinadigan mablag‘lar, davlat dasturlaridan ajratiladigan mablag‘lar va boshqalar kiradi.

**- J -**

**JAVOBGARLIK  
HAQIDAGI MA'-  
LUMOTLAR -**

Asarni yaratishga o‘z hissasini qo‘shegan va uning mazmuni va nashr etilishiga ma’sul bo‘lgan shaxslar va (yoki) tashkilotlar, muassasalar haqidagi ma’lumotlar.

**JAJJI NASHR -**

Kitob blokinning o‘lchami chegaralangan, jüda kichik hajmdagi nashr.

**JAMOALARING  
YORDAMCHI  
KO‘RSATKICHI -**

Bibliografik qo‘llanmada o‘z ifodasini

topgan hujjatlarni yaratishda ishtirok etgan va ularni nashr ettirishda mas'ul bo'lgan uyushma muassasa, korxonalar nomining alfavit tartibidagi ro'yxatdan iborat yordamchi ko'rsatkich.

#### JAMOATCHILIK

#### KUTUBXONASI -

Shaxsiy kitob va o'zga bosma hujjatlar asosida tashkil etilgan bu to'plamlarni ko'pchilik foydalanishiga taqdim etadigan kutubxona.

Ma'nodosh: Jamoatchilik asosida tashkil etilgan kutubxona.

#### JAMOAVIY MUAL-

#### LIF SARLAVHASI-

Hujjatni o'z nomidan e'lon qilishga mas'ul bo'lgan (doimiy yoki vaqtinchalik xarakterdagi) tashkilot nomini saqlovchi sarlavha.

#### JILD -

1. Ko'p jildli nashrning alohida poligrafik tugal qismi.
2. Vaqtli va yoki davomli nashrning, uning alohida sonidan yoki qator sonlarini yig'indisidan iborat qismi.

#### JORIY BIB-

#### LIOGRAFIYA -

Yangi paydo bo'layotgan hujjatlar haqidagi muntazam tarzda va ayni paytdagi axborotni ta'minlovchi bibliografiya.

#### JORIY BIBLIOGRA-

#### FIK QO'LLANMA-

Har bir soni yangi paydo bo'layotgan hujjatlarni muntazam tarzda va darhol akslantiruvchi bibliografik qo'llanma.

|                                 |  |
|---------------------------------|--|
| <b>JORIY KOMPLEKT-LASH</b>      | - Yangi nashr etilgan bosma asarlar va boshqa hujjatlar bilan fondni to'ldirib borish.   |
| <b>JORIY NASHR</b>              | - Har kuni chiqariladigan davriy nashr.  |
| <b>JOYLASHTIRISH JADVALLARI</b> | - Fondni alfavit yoki xronologik tartibda joylashtirishni osonlashtiradigan shartli harf-son belgilarining tartibga solingan ro'yxatlari.  |
| <b>JOYLASHTIRISH REJALARI</b>   | - KBTda (andoza) tipovoy bo'linmalaridan tasnifiy indeksda taniqli belgisi yo'qligi bilan ajralib turadigan yordamchi tasnifiy jadvallarning bo'linmalari.   |
| <b>JURNAL</b>                   | - Ijtimoiy-siyosiy, ilmiy ishlab chiqarish va boshqa masalalar bo'yicha maqola va (yoki) referatlar, adabiy asarlar, illyustratsiyalar berilgan davriy nashr. Shu turdag'i nashr sifatida rasmiy tasdiqlangan. |
| <b>JURNAL NASHRI</b>            | - Ta'sis etilgan o'lchovdagi bosma material varaqlari kitob shaklida mahkamlangan, shu davriy nashr xususiyatlariga moslashtirilgan nashr. Jurnal nashri turlari: jurnallar, davriy to'plamlar, bulletenlar.   |
| <b>JURNAL FONDI</b>             | - Jurnal nashri belgilariga ega bo'lgan bosma asarlardan iborat kutubxona fondining bir qismi.   |

## JURNALLARDAGI

### BIBLIOGRAFIK

#### QO'LLANMA -

Jurnalda yoki davomli nashrda mustaqil material sifatida bosilgan bibliografik qo'llanma.

#### JO'G'ROFIY

#### YORDAMCHI

#### KO'RSATKICH -

Bibliografik qo'llanmada yodga olingan jo'g'rofiy joylarning nomlarini alfavit tartibidagi ro'yxati shaklidagi bibliografik ko'rsatkich.

#### JO'G'ROFIY

#### KATALOG -

Bibliografik yozuvlari bosma asarlarning va boshqa hujjatlarning nashr joyiga ko'ra alfavit tartibida joylashtirilgan kutubxona katalogi.

## - K -

#### KADRLAR TA'

#### MINOTI -

Alfavit katalogi faoliyatini yurituvchi xodimlar majmui, kadrlar malakasini turli ta'minot ko'rinishlari (texnikaviy, axborot va dasturiy ta'minotlar) ga mos ravishda saqlab turishga mo'ljallangan tadbirlar. Kadrlar ta'minoti yana kutubxonachilar tayyorlash va ularni malakasini oshirish avtomatlashtirilgan kutubxonadan foydalanishning zamonaviy usullarini o'qitishni ham o'z ichiga oлади.

**KARTOGRAFIK  
MATERIALLAR  
FONDI-**

Kutubxona fondining Yer va Samo jism-lari yuzasining shartli umumlashma tas-virini, hamda turli ob'ektlarining fazoviy joylashishi va rivojlanishi ta'sirini o'z ichiga olgan materiallardan iborat bir qismi (qo'lyozma va bosma xaritalar, atlas va globuslar).

**KASBIY-ISHLAB  
CHIQARISH  
BIBLIO-  
GRAFIYASI  
QO'LLANMASI**

- Amaliy faoliyatning turli sohalari (xalq xo'jaligi, madaniyat, boshqarish va b.) mutaxassislariga yordam berish uchun chiqarilgan maxsus qo'llanma.

**KASABA  
UYUSHMASI  
KUTUBXONASI**

- Shu o'lka (hudud) kutubxona tarmog'ini rivojlantirish rejasiga muvofiq fabrika-zavod yoki mahalliy kasaba uyushmasi tomonidan o'z byudjetidan olingen mablag' hisobiga ochilgan ommaviy universal kutubxona.

**KATALOGNI  
BEZASH-**

Kutubxona katalogini tashkil etishga alo-qador jarayonlar majmuasi. Bunga qu-yidagilar kiradi: Tashqi bezash - katalog qutilar uchun yorliq va tartib raqamlari beligilarini, javon ustti yozuvlarini, katalog javonlari ustida joylashgan axborot

vositalarini bezash. Ichki bezash - katalog ajratgichlarini bezash. Katalogni tashqi bezash kutubxona kataloglarining ko'rgazmali tashviqot vositalari tizimiga bog'liqdir.

**KATALOGLARNI  
TASHVIQOT  
QILISH-**

Kataloglarni ommalashtirish va mavjud kataloglar tizimi haqida kitobxonalarga axborot berish, ularni har biriga vazifasini tushuntirish, ulardan foydalanish ko'nikmasini hosil qilish bo'yicha kutub-xona tomonidan o'tkaziladigan tadbir yig'indisi.

**KATALOGNI  
TASHKIL  
QILISH -**

Kutubxona katalogining tarkibini aniqlash va uni tashqi va ichki bezash bilan bog'liq jarayonlarining majmui.

**KATALOGNI  
TAHRIR  
QILISH -**

Kutubxona katalogining tuzilishi, mazmuni va bezatilishiga qo'yiladigan talab larga mosligini tekshirish va tekshirish mobaynida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish. Bu ma'noda "Katalog tahriri" terminini qo'llash yaramaydi.

**KATALOG VA  
KARTO-**  
**TEKALAR TIZIMI-** Reja bilan tashkil etilgan, o'zaro bog'liq bo'lgan bir-birini to'ldirib turuvchi ka-

talogs va kartotekalardan iborat kutubxona ma'lumot-bibliografik tizimining bir qismi.

**KATALOG-  
LASHTIRISH  
MANBAI-**

Kataloglashtiruvchiga ishslash uchun keltililgan alohida hujjat, uning tarkibiy bir qismi yoki hujjatlar yig'indisi.

**KATALOG  
PASPORTI-**

Ma'lum bir katalog haqidagi ma'lumotlar qayd etilgan yordamchi hujjat. Tashkil etilish vaqt, bibliografik qaydlarning guruhlarga bo'linishi usuli aks ettirilgan fondlar, katalogni tashkil etish bo'yicha uslubiy hujjatlar.

**KATALOG-  
LASHTIRISH  
METODIKASI-**

Kataloglashtirish jarayonlarini aniq belgilovchi usul va qonun-qoidalarning yig'indisi.

**KATALOG-  
LASHTIRISH-  
NING METODIK  
TUZILMASI-**

Kataloglashtirish usullarini takomillash tirishga, bajarilayotgan ishlarning sifatini oshirishga yordam beruvchi qo'llanma, kartoteka va ko'rsatgichlar yig'indisi.

**KATALOG-  
LASHTIRISH  
YOZUVI-**

Kutubxona katalogi va hujjatni saqlash-

ni ifodalovchi shifrni majburiy ravishda o‘z ichiga olgan bibliografik yozuv.

**KENGAY-TIRILGAN TASNIF-**

Yirik Amerika kutubxonashunosi Charlz Ketter (1837-1902) tomonidan ishlab chiqilgan kutubxona-bibliografik tasnifning bog‘langan kompozitsion tizimi.

**KENGAYTIRILGAN BIBLIOGRAFIK TASVIR -**

Ma’lum muassasa nashrlari, kataloglari va sh.k. uchun doimiy bo‘lgan barcha zarur unsurlarni (ularning doirasi bibliografik tashkilotlar tomonidan belgilanadi) va bir (yoki bir nechta) ikkinchi darajali unsurni o‘z ichiga olgan tasvir.

**KITOBOXON-**

Doimiy faoliyat sifatida o‘qish jarayoni ni ijtimoiy sub’ekti: maxsus kitobxonalar ruhiyati bilan xarakterlanadi va ayni paytda muallif, bosma nashr mahsuloti, uning tomonidan ta’sir o’tkaziladigan ob’ekt hisoblanadi.

**KITOBOXONSHU-NOSLIK-**

V.P.Talavov, I.S.Barenbaum, V.G. Umnov asarlarida asoslab berilgan umumlashma tushuncha. Hozirgi zamon kitobxonshunosligi tizimi o‘zaro bog‘liq quydagi bo‘limlar ajralib turadi: kitobxon ta’ixi, o‘qish sotsiologiyasi kitobxon ruhiyati. Kitobxonashunoslikning psixolo-giya fani va kutubxonashunoslik

fani bilan o'zaro munosabati asosida kutubxona psixologiyasi fani rivojlanadi.

## KITOBOXNLAR DAVRASI-

Ma'lum bir turdag'i adabiyot (masalan: kitob yoki davriy nashr) bilan yoki bosma axborot kanallari (masalan kutubxona) bilan tanish bo'lgan kitobxonlarning keng doirasi. Radio va teleeshittirishlardan farqli o'laroq kitobxonlar davrasi vaqt jihatidan ham tarqoq bo'ladi. Bir kitob kitobxonlari davrasini tashkil etuv-chi kitobxonlar, ushbu kitobga bir paytning o'zida murojaat etishmaydi. Kutubxona kitobxonlari davrasining ko'rinishlaridan biri muloqotdagi davra bo'lib, u bilan kutubxonachi ommaviy ish jarayonida bevosita munosabatga kirishadi.

## KITOBOXNLAR KATALOGI-

Kitobxonlar foydalanishiga mo'ljallangan kutubxona katalogi. Kitobxonlar katalogi tizimida yordamchi katalog yo'qligida bir paytning o'zida yordamchi katalog vazifasini ham bajarish mumkin. Masalan: MKT sharoitida markaziy sistemali katalog yordamchi va kitobxonlar kataloglari vazifasini bajaradi.

## KITOBOXNLAR GURUHI -

Ma'lum bir belgi asosida (ijtimoiy demografik kasbkori va sh.k.) birlashgan kutubxonalarining ma'lum guruhi. Bu guruhlar ichida o'qilishiligi, kitobxon-

lik qiziqishlarining yo‘nalish va turg‘unligi va sh.k. bo‘yicha kichik guruhlar ajralib turadi. Kitobxonlar guruhini aniqlash darajalangan holda xizmat ko‘rsatish va o‘qishga rahbarlik qilish-ning zarur shartidir.

## KITO BXONLIK

### DIDI-

Bosma asarning nafosatli qimmati haqidagi kitobxonning mulohaza yuritish qobiliyati. Kitobxonlik ruhiyatining xususiyati sifatida did ma’lum ijtimoiy guruh yoki bir butun jamiyatning nafosatga ehtiyoj-lari bilan bog‘liq. Didning rivojlanishi xususiy kitobxonlik tajribasiga, shuningdek, odamning bilimdonligi va madaniyatiga bog‘liq.

## KITO BXONLIK

### DASTURI-

Shaxsning (guruhning, jamiyatning) bosma asarga ma’lum bir tarzda munosabat bildirish (asarni tashlash, o‘qish, ma’lum bir nuqtai nazardan baholash va tushunish) orqali ifodalangan yaxlit ruhiy holat.

## KITO BXONLAR

### ANJUMANI-

Kutubxonada amalga oshiriladigan adabiyotini og‘zaki targ‘ib qilish usuli kitob-xonlar davrasida kitoblarni muhokama qilish. Kitobxonlar anjumanining ko‘rinishlari quyidagilar: kitobxon-tomoshabinlar anjumani (bunda bir paytning o‘zida asar va shu asar asosida ishlangan film muhokama qilinadi) sirtqi ki-tobxonlar anjumani.

## KITOBOXONLIK GUVOHNOMASI-

Kitobxon haqidagi asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va kutubxonadan yoki markazlashgan kutubxona tizimidan foy-dalanish huquqini beruvchi hujjat.

## KITOBOXONLAR BILAN ISHLASH-

Kitobxonlarni va o'qish qonuniyatlarini o'rghanishga asoslangan, ommaviy tarbiyalash va ilmiy-texnika rivojlanishini jadallashtirish maqsadida amalga oshiriladigan kutubxonaning to'liq faoliyati: o'qishga rahbarlik qilish, bibliografiya va axborot ishini o'zida jamlaydi: adabiyotni targ'ib qilish usullari tizimi yakka va ommaviy ta'sir o'tkazish yordamida kutubxona xizmatining turli-tuman shakllarida amalga oshiriladi.

## KITOBOXON JOYI-

Zarur kutubxona uskunalarini bilan ta'minlangan kitobxonning kutubxonada ishlashi uchun mo'ljallangan alohida joyi.

## KITOBLAR MUHOKAMASI-

Badiiy va ma'lum sohadagi adabiyotgao id asarlarni bir guruh kitobxonlarning kutubxonachi, muallif, tanqidchi, jurnal, nashriyot tahririyligi vakillari bilan birgalikdagi jamoa bo'lib tahlil qilishi va baholash.

## KITOB MUXLISLIGI NASHRI-

Ommaviy kitob mahsulotidan cheklangan nashr soni (nusxa) va kitob muxlislari

tomonidan e'zozlanadigan tashqi sifatlar bilan ajralib turadigan nashr.

## KITOBOXONLIK PSIXOLOGIYASI-

Kitobxon (shaxs, ijtimoiy guruh) bilan bosma nashr mahsuloti o'rta sidagi o'zaro munosabatlarni boshqaruvchi (tartibga soluvchi) ijtimoiy yoki alohida shaxs ongida-gi bir butun tarkibiy hosila. Kitobxonlarning o'zini tutishi va faoliyat doirasida kitobxonlik ruhshunosligi o'qish usuli va mazmunini tanlashda, adabiyotga bo'lgan ehtiyojda, matnni tu-shunish va baholash xususiyatlarida, o'qilgan narsa haqida bildirilgan fikr-mulohazalarda o'zini namoyon etadi. Kitobxonlik ruhshunosligining tarkibi shaxsning hayotiy tajribasida (o'qishlilik, kitobxonlik ko'nikmalari va h.k.) yoki alohida xususiyatlar (xususiy kitobxonlik iste'dodi, shaxs tabiat, (xarakteri) xususiyatlari bilan belgilanadigan o'qishning o'ziga xos tomonlari)ga bog'liq yoki ijtimoiy ruhshunoslikdan kelib chiqadi.

## KITOBOXON RUHIYATI-

Kitobxonlar ruhiyatining strukturasi, asosiy yo'nalishlarining xususiyatlari va qonuniyatlarining (o'qishga bo'lgan ehtiyoj, o'qish borasidagi qiziqishlar doirasi va h.k.) uning shakllanishi va tarbiyalashning omillari, kitobxonlar tipologiyasini, kitobxonlar guruqlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganuvchi ilm-fan.

## KITOBOXON

### STOLI-

Kitobxonlarning bosma asarlar bilan, shuningdek, (tegishli moslamalarni ishlatganda, mikronusxalar bilan ishlashi, yozilgan tovushni eshitish uchun mo'ljallangan stol. Kitobxon stollari alohida ikki, uch o'rini va guruhli bo'lishi mumkin).

## KITOBOXONLAR

### SIRTQI

### ANJUMANI-

Adabiy asarlarni bir paytning o'zida kutubxonalarda o'tkaziladigan kitobxonlar anjumani (yoki) matbuot sahifalarida muhokama qilish. Gazetalardagi kitobxonlar chiqishlari, kitobxonlar anjumanlarida muhokama qilinadi. Bularga ifodali o'qishlar, badiiy o'qish, og'zaki journal, munozaralar kiradi.

## KITOB SAVDOSI

### TASHKILOTI

(kutubxona  
kollektori)-

Kutubxona fondalarini rejali tarzda kitob bilan ta'minlash uchun mo'ljallangan maxsus kitob savdosi muassasasi. Quyidagi ishlarni amalgalashiradi: kutubxonalarni nashr va kitob savdosi xabarlar bilan ta'minlaydi. Kutubxonalarning adabiyotga talabnomalarini to'playdi, ularga bibliografik maslahat yordamini ko'rsatadi, kutubxona fondlarini to'ldi-rish, kutubxona texnikasi buyumlari bilan ta'minlash ishlarni amalgalashiradi.

**KITO BXON  
SO'ROVLARI  
MUNDARIJASI-**

Kitobxonning adabiyotni olish talabini bajarish bo'yicha qilinadigan ishlarining belgilangan ketma-ketligi.

**KITO BXONLIK  
TALABNOMASI-**

Kutubxonada saqlanayotgan bosma va boshqa asarlarga buyurtma berish uchun kitobxon to'ldiradigan varaqasi.

**KITO BXONLARNI  
TABAQALASH-  
TIRISH-**

O'qish va kitobxon ruhiyatining shakllanishiga jiddiy ta'sir etuvchi belgilarga (demografik, ijtimoiy, kasbiy, ijtimoiy-ruhiy va b.) ko'ra guruhlarga ajratish.

**KITO BXONLAR  
TIPOLOGIYASI-**

Kitobxonlarning umumiy belgilari bo'yicha ilmiy-tasnifi: kitobxonlarni toifalarga ajratish vositalaridan biri hisoblanadi: ikki asosiy yo'nalishda rivojlanadi. 1. Kitobxonlarning qiziqish doirasi, kitob o'qishdagi faollik darajasi, bilimdonlik va h.k. e'tiborga olingan holda. 2. Har xil turdag'i adabiyotlarni tushunish xususiyatlarini e'tiborga olgan holda.

**KITO BXONLAR  
TARKIBI-**

Kutubxona kitobxonlari jamoasining ijtimoiy-demografik belgilari - yoshi, jinsi, kasbi kori, ma'lumoti va boshqalar bo'yicha ta'rifi.

**KITOB UMRI  
JARAYONI-**

Kitob ustida uning kutubxonaga kelib tushishidan to fonddan chiqarib tashlanguncha bajariladigan ishlarining belgilangan ketma-ketligi.

**KITOBOXON  
FORMULYARI-**

Kitobxonlarning alohida tarzda hisobga olib, ularga berilgan adabiyotlarni qayd etib borish, ular tomonidan kitob o‘qilishi-ni tahlil qilishga mo‘ljallangan muayyan shakldagi kartochka.

**KITOB  
FORMULYARI-**

Kitob haqidagi asosiy ma’lumotlar ko‘rsatiladigan muayyan shakldagi kartochka: u fondni o‘rganish, kitobning berilishi qayd etish va o‘z vaqtida qaytarilishi nazorat qilish uchun xizmat qiladi.

**KITOBOXON-  
LARNI  
RO‘YXATGA  
OLISH  
KARTOCHKASI-**

Kitobxon haqidagi asosiy ma’lumotlarni (ismi, nasabi, yoshi, ish joyi, kasbi, turar joyi va h.k.) o‘z ichiga olgan kartochka. Kitobxon kutubxonaga a’zo bo‘layotgan paytda to‘ldiriladi va ro‘yxatga olish kartochkasida saqlanadi.

**KITOBOXONLARNI  
QAYTA  
RO‘YXATGA  
OLISH-**

Kutubxonaga kitobxonlarning vaqtiga-vaqtiga bilan ro‘yxatga olish, kitobxonlarning

soni, tarkibini aniqlash va kitobxon hujjatlariga yangi ma'lumotlarni kiritish.

## KITOBXON

### QATNOVI-

Kutubxonadan foydalanish darajasini ifodalovchi kitobxonlarga xizmat ko'rsatishning nisbiy ko'rsatgichi. Ma'lum bir vaqtda bitta kitobxonga to'g'ri keladigan qatnov miqdori bilan belgilanadi.

## KITOBLAR

### HAQIDA

### SUHBATLAR-

1. Kitobxon bilan asosan kitob berayotgan va qabul qilayotgan paytdagi suhbat: Ikki xil suhbatni farqlash lozim: kitobni tavsiya etuvchi suhbat va o'qilgan kitob haqida suhbat. Suhbat kutubxonada kitobxon bilan yakka tartibda ishlashning asosiy shakli hisoblanadi.
2. Tavsiya bibliografiyali qo'llanma janri.

## KITOBXONLAR

### EHTIYOJI-

Kitobxonlarning kutubxonaga murojaat etib izlagan adabiyotga bo'lgan ehtiyoji aniq (muallif ismi yoki kitob sarlavhasi bo'yicha) ko'rinishida: yoki ma'lum bir mavzudagi adabiyotga ehtiyoj ko'rinishida, noaniq ehtiyoj ko'rinishida bo'ladi.

## KITOBXON-

### LARNI RO'Y-

### XATGA OLISH-

1. Kutubxonadan foydalanish huquqini rasmiylashtirish.
2. Kitobxonlar tarkibini hisobga olish.

## KITOBOXNOLAR

### QIZIQISHI-

Biron bir jihat bilan o'ziga jalb etuvchi bosma asarni o'qishga bo'lgan kitobxonning saylanma ijobiy munosabati. Kitobxonlik qiziqishlarini bildiruvchi sub'ektning kim ekanligiga bog'liq ravishda, ularni shaxsiy, guruhiy, ijtimoiy qiziqishlari sifatida talqin etish mumkin. Kitobxonlik qiziqishlari, shuningdek, mazmuni va turg'unligi va faolligi jihatdan ham guruhlanadi. Kitobxonlik qiziqishlarini tarbiyalash (shakllantirish) va qondirish - kutubxonaning eng muhim vazifalaridan biridir.

## KITOBDAKI BIB-

### LIOGRAFIK

### QO'LLANMA-

U yoki bu nodavriy nashr tarkibida alohida material sifatida bositgan bibliografik qo'llanma.

## KITOB ICHIDAGI

### BIBLIOGRAFIK

### QO'LLANMA-

Kitob ichida joylashtirilgan va foydalaniqan, qayta keltirilgan va (yoki) tavsiya etiladigan hujjatlarni aks ettiruvchi bibliografik qo'llanma.

## KITOBNING

### XALQARO

### STANDART

### RAQAMI,

### (ISBN) SOHASI,

### NARXI

### VA NUSXASI-

Kitobni identifikatsiyalash va ro'yxatga

olish uchun, kitob almashish, kitob savdosи, nashr statistikasi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan bibliografik tasvir sohasи.

## KIRISH SO‘ZI-

Kitobda e’lon qilinayotgan material (asarlardan) oldingi sahifalarda bosiladigan kitob muallifi bo‘lmagan shaxs tomonidan yozilgan va odatda muallifning ijod yo‘li, kitobning ahamiyati va h.k.ni ta’riflovchi maqola.

## KOMPLEKTLASH-TIRISHNING AMA-LIY REJASI-

Adabiyotni olish uchun komplektlashtirish manbalari, hujjatlarning turi va soni bo‘yicha taxminlar, shuningdek, moliyaviy hisob-kitoblarni ifodalovchi miqdor ko‘rsatkichlaridan iborat reja. Komplektlashtirishning mavzuiy-tipologik rejasi asosida ma’lum bir davrga mo‘ljallanib (yil, chorak, oy) tuziladi.

## KOMPLEKTLASH-TIRISHNING MAV-ZUIY TIPOLOGIK REJASI-

Kutubxona ishining samaradorligini oshirish uchun zarur bo‘lgan kutubxona yoki uning biron bir tarmog‘i fondining mavzuiy-tipologik tarkibini belgilovchi hujjat. Turli darajadagi tafsilotlari bilan berilgan mavzular va har bir mavzu bo‘yicha adabiyot turlari ro‘yxatidan iborat (nashr tili va kerakli miqdori ham ko‘rsatiladi). Nashriyot tomonidan chiqariladi.

riladigan adabiyotlarning mavzu rejalari asosida avvaldan buyurtma berilayotgan paytda hamda fondning tartibi va ishlatalishi o'rganilayotgan paytda qo'llaniladi.

**KOMPLEKT-LASHTI-RISH IXTISOSI-**

Kutubxona vazifalariga va xizmat ko'rsatilayotgan o'lkaning xalq xo'jaligi va madaniy ixtisosiga mos ravishda kutubxona fondini komplektlashtirishning yetakchi yo'naliishlari va xususiyatlarini belgilovchi hujjat.

**KOMPLEKT-LASHTIRISH-NING ISTIQ-BOL REJASI-**

Fondni komplektlashtirishning asosiy maqsadlari va kutiladigan natijalarini belgilovchi hujjat. Besh va undan ko'proq yillarga tuziladi.

**KOMPLEKTLASH-TIRISH KO'LAMI-**

Fondni komplektlashtirishda nashr yillari mavzulari va turlariga ko'ra hujjatlar-ning qamrab olinish darajasi.

**KUTUBXONACHI-**

1. Mazmuni kutubxona jarayonlarini (fondni komplektlash va tashkil etish, kitobxonlarga xizmat ko'rsatish, adabiyotni targ'ib etish, o'qishni boshqarish va h.k.) amalga oshirishdan iborat.
2. Kutubxonadagi lavozim. Kutubxona jarayonlarining murakkabligi va maxsus tayyorgarlikning darajasiga ko'ra quyi-

dagi toifalarga bo‘linadi: kichik kutubxonachi, kutubxonachi, katta kutubxonachi, bosh kutubxonachi.

## KUTUBXONA-SHUNOSLIK -

Kutubxona ishini, kutubxona tizimini tashkil etilishi, taraqqiyoti, ish olib borishi tamoyillari, turli jihatlardan kutubxonalarining o‘zaro munosabatlarini o‘rganuvchi ijtimoiy fan. Kutubxonashunoslik fan sifatida XIX asrning boshlarida vujudga kelgan. Kutubxonashunoslik-ning zamonaviy tizimi o‘z ichiga quydagilarni oladi: umumiy kutubxonashunoslik, kutubxonashunoslik, kutubxonashunoslik fanining nazariyasi, metodologiyasi va tarixi, xususiy kutubxonashunoslik; kutubxona kataloglari haqidagi ta’limot, kutubxona fondlari haqidagi ta’limot, kutubxonada o‘qishga rahbarlik qilish nazariyasi, kutubxona va kutubxona tizimlarining faoliyati nazariyasi. Kutubxonashunoslik tarkibiga, shuningdek, kutubxonashunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi natijasida vujudga kelgan kutubxonashunoslik sohalari kiradi: kutubxona pedagogikasi, kutubxona ruhshunosligi, kutubxona statistikasi, kutubxona ishi iqtisodiyoti, kutubxona huquqi, kutubxona etikasi, kutubxona nafosati va kutubxona ishi ta-rixi va h.k.

## KUTUBXONA ABONENTI -

Kutubxona xizmatidan asosan kutubxo-

nalararo abonementdan foydalanadigan kitobxon yoki muassasa, tashkilot.

**KUTUBXONA-  
LARARO  
ABONEMENT-**

Mamlakat kutubxonalari fondlaridan qabul qilingan qoidalarga asosan o‘zaro birgalikda foydalanishga asoslangan kutubxona abonementi.

**KUTUBXONA-  
LARARO  
ABONEMENT  
MARKAZI  
(KAAM)-**

Kutubxonalararo fondlaridan (ularning faoliyati doirasida) kutubxonalararo abonement bo‘yicha foydalanishni muvofiqlashtiruvchi kutubxona. KAAMning xalqaro va o‘lka universal va sohaviy markazlari mavjud.

**KUTUBXONA-  
LARARO  
ABONEMENT-  
NING YAGONA  
DAVLAT TIZIMI**

- Abonementlarning bosma asarlar va boshqa materiallarga bo‘lgan ilmiy va ishlab chiqarish talablarini qondirishga qaratilgan barcha kutubxona va ilmiy texnika axboroti (ITA) fondlari va ma’lumot-izlanish apparatidan o‘zaro foydalanishni tashkil etish tizimi.

**KUTUBXONA FAO-  
LIYATI TAHLILI-**

Kutubxona faoliyatining mazmuni, shakl-

lari va usullarini, shuningdek, uning natijsalarini o'rganish; ishdagi yangi ilg'or tomonlarni ko'rsatish, asosiy kamchiliklarni ochish va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Kutubxona faoliyatini tahlil etishda ikki turdan: miqdor va sifat turlaridan foydaliladi.

### KUTUBXONA- CHINING

**ASOSIY ISH JOYI** - Biron bir alohida ishni yoki jarayonni bajarish uchun zarur bo'lgan maxsus qurilma va moslamalar bilan jihozlangan kutubxonachining ish joyi. Kutubxonachi faoliyati uchun zarur bo'lgan qurilma va moslamalar bilan jihozlangan: kitobxon-larga xizmat ko'rsatish bo'limi, ma'lumot-bibliografiya bo'limi, kitoblarga qayta ishlov berish bo'limi va h.k.

### KUTUBXONANI BOSHQARISH-

Kutubxonani yaxshi ishlashini va rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan kutubxona rahbariyati va mehnat jamoasi tomonidan ongli va reja asosida olib boriladigan faoliyat. O'z ichiga quyidagilarni oladi: mehnatni rejlash, tashkil etish va rag'batlantirish, kutubxona jarayonlarini boshqarish, ishni hisob qilish va nazorat qilish, xodimlar bilan ish olib borish va h.k.

### KUTUBXONA ISHI NING JORIY REJASI-

Ma'lum bir davrga (oy, chorak, yil) ish-

larining hajmi va ularni bajaruvchi tomonidan belgilab beriladigan joriy rejalash hujjati. Ba'zan kundalik rejani tezkor reja deb ham atashadi. (Masalan: komplektlashning tezkor rejasi).

**KUTUBXONA-BIBLIOGRAFIK TASNIF (KBT) -**

Kutubxona-bibliografik tasnif (BBK) 1958-1968 yillarda GPB davlat ommaviy kutubxonasi, SSSR FAK Butunittifoq kitob palatasi va boshqa qo'shma muassasalari olimlarining ishtirokida ishlab chiqilgan bosqichli murakkab tizimi. KBT (BBK)ning bir guruh yaratuvchilariga 1981-yili SSSR davlat mukofoti taqdim etilgan.

**KUTUBXONANI  
BIBLIOGRAFIK  
TASNIFFLASH**

**TIZIMI -**

Hujjatlarni mantiqiy ketma-ketlikda va nashrning mazmuni, shakli, maqsadi va shu kabilar asosida tartib bilan joylash-tirish uchun mo'ljallangan tasniflovchi tarmoqlar tizimi: sistemali kartotekalarning tarkibiy tuzilishi asosida fondni joylash uchun qo'llanadi.

**KUTUBXONA BIBLIOGRAFIK**

**TA'LIMI -**

Oliy va o'rta malakali kutubxonachi-bibliograflarni tayyorlash tizimi. Oliy malakali kutubxona mutaxassislarini madaniyat institutlari, ayrim dorilfunun va pedagogi-

ka institutlarining kutubxonashunoslik bo‘limlari (fakultetlari) tayyorlaydi. O‘rta kutubxonachi-bibliograf ma’lumoti bera-digan asosiy o‘quv yurtlari madaniyat texnikumlari va bilim yurtlaridir.

#### KUTUBXONA BINOSI-

Kitobxonlarni joylash uchun mo‘ljallan-gan binolar. Maxsus, alohida joylashgan binolar quriladi yoki boshqa maqsadlarda qurilgan binolarga yondosh qilib quriladi. Turar joy binolarining birinchi qa-vatlariga ham kutubxonalarini joylashtirish mumkin.

#### KUTUBXONA BINOLARINING JOYLASHISHI-

Kutubxona tarmoqlariga tegishli imorat va kutubxonalarining kutubxona texnologik jarayonlarining mazmuni va ketma-ketligiga javob bera oladigan tarzda joylashtirish tizimi.

#### KUTUBXONA BO‘LIMI-

Kutubxonaning eng yirik strukturaviy bo‘limlari odatda funksional, kompleks va sohaviy bo‘limlariga ajratiladi.

#### KUTUBXONA BO‘YICHA YO‘LLANMA-

Kitobxonlarga kutubxona haqida batafsil ma’lumot (tarixi, fondlari, kitobxonlar- ga xizmat ko‘rsatish tartiblari va h.k.) beruvchi ma’lumotnoma.

**KUTUBXONANING  
DAVRIY ISH  
JARAYONI-**

Kutubxona texnologiyasining alohida qismi, ma'lum vaqt ichida doim takrorlanadigan, ma'lum texnologik tartibda amalg'a oshiriladigan jarayon va ishlarni o'z ichiga oladi. Kutubxona davriy ishlari, asosan quyidagicha farqlanadi: kitob yo'li, bibliografik ma'lumotnoma yo'li, kutob-xona talabnomasi yo'li.

**KUTUBXONA  
JARAYONLARINI  
AVTOMATLASH-  
TIRISH-**

Ishni jadallashtirish kitobxonlarning tablalarini aniq va to'liq qondirishni tezlashtirish maqsadida kutubxona xizmatlarini bevosita shaxs ishtirokida qisman yoki to'liq ozod etuvchi avtomatik moslama va qurilmalarni qo'llash. Alohida jarayonlarni avtomatlashtirish bilan bir qatorda yirik kutubxonalarda kitobxonlarga xizmat ko'rsatishni avtomatlashtirish tizimlari ishlab chiqarish amaliyotida joriy etilmoqda.

**KUTUBXONA ISH  
JARAYONLARINI  
MEXANIZAT-  
SIYALASH-**

Kutubxonachi mehnatining samaradorligini oshiradigan va kitobxonlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilaydigan mexanik turdag'i mashinalar, sistemalarni kutubxona texnologiyasiga joriy etish. Maxsalan: katalog kartochkalarini maxsus

moslamalar yordamida ko‘paytirish, kitobxon talabnomalarini pnevmopochta yordamida uzatish va h.k.

**KUTUBXONA  
ISHINI NAZORAT  
QILISH-**

Kutubxona davriy ishlarini markaziy nazorat qilish va zudlik bilan tartibga solish.

**KUTUBXONA  
JIHOZLARI-**

Kutubxona jarayonlarini bajarish va kutubxonada kitobxonlarning ishlashi uchun zarur bo‘lgan kutubxonalarini moddiy-texnik jihozlash vositalari: stellaj, katalog javonlari, ko‘rgazma peshtaxtalari, hujjat berish minbari, kitobxon stoli, display, mikrotashuvchini o‘qish apparati, mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish vositalari va h.k.

**KUTUBXONA  
FONDI -**

Ma’lumot bibliografik apparati yordamida har tomonlama ochib beriladigan kitob, boshqa bosma asarlar, qo‘lyozmalar, video yozuvlar, audio yozuvlari va o‘zga materialarning kutubxona tomonidan uning vazifasiga muvofiq tarzda shakllantiradigan, tartibga solinadigan jamlamasi. Komplektlash yo‘nalishiga ko‘ra universal, ko‘p sohali, sohaviy, moslashtirilgan kutubxona fondlaridan farqlanadi.

**KUTUBXONA  
ZAHIRALARI-**

O‘z vazifalarini bajarish uchun kerak bo‘lgan kutubxona manbalari (imkonи-

yatlari). Bularning qatorida kutubxonalar tarmog‘i, kutubxona fondlari, axborot-bibliografik apparat, kutubxona xodimlari, moddiy texnika bazasi, pul mablag‘lari.

## KUTUBXONA KATALOGI -

Kutubxona (yoki bir necha kutubxonalar) fondida bor bo‘lgan hujjatning ma’lum qoida asosida tuzilgan va kutubxona fondlarini tarkibi va mazmunini ochib beruvchi ro‘yxat. Kartochka mashina o‘qiy oladigan shaklda, mikro tashuvchilar shaklida va shuningdek, kitob nashri shaklida amalga oshirilgan bo‘lishi mumkin. Katalogning nomida turli belgilar tartib bilan aks etadi: “Kitobxon, xizmat kataloglari Asosiy, Yig‘ish usuli bo‘yicha (alfavitli, sistemali, predmetli), katalogda aks etgan hujjat turi bo‘yicha (kitoblar, davriy nashr, notalar, kartografik nashrlar) kutubxonaning tarkibiy tarmog‘i bo‘yicha (qiroatxona, noyob kitoblar bo‘limi va h.k.)

## KUTUBXONA KASBSHU- NOSLIGI-

Kutubxona xodimi faoliyatining maqsadlari, mazmuni, shakli va o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganuvchi ilmiy kutubxonashunoslik fani (sohasi).

## KUTUBXONA KENGASHI-

1. Turli muassasa kutubxonalarining vakillaridan iborat va shu kutubxonalar-

ning o‘zaro aloqadorligini tashkil etish-dan iborat maslahat beruvchi tashkilot. Quyidagilar bilan farqlanadi: respublika va viloyat kengashlari.

#### KUTUBXONA

#### KITOBXONI-

Tegishli hujjatlarda rasmiy qayd etilishi asosida kutubxonadan foydalanuvchi shaxs.

#### KUTUBXONA

#### KICHIK

#### MANZILGOHI-

Maydon jihatdan alohida bo‘lgan kutubxona bo‘limi. Unda doimiy xodim yoki jamoatchi kutubxonachi ish yuritadi. Bu ma’noda “Kutubxona” filiali yoki “Ko‘chma kutubxona” atamalarini qo’llab bo‘lmaydi.

#### KUTUBXONA

#### ISHINI

#### BOSHQARISH-

Kutubxona sistemasining, ya’ni ishslashni va rivojlanishini ta’minlashga, kutub-xona ishining mafkuraviy, ilmiy-axborot, madaniy-ma’rifiy vazifalarini kuchaytirish maqsadida uni yo‘naltirishga, uning yetakchi ko‘rsatkichlarini doimiy o‘sishini ta’minlashga va barcha imkoniyatlarini ishga solishga qaratilgan ongli va reja asosida amalga oshiriladigan faoliyat.

#### KUTUBXONANI

#### BOSHQARISH -

Kutubxona rahbarining yetakchiligi, yo‘naltirish va tashkilotchilik faoliyati. Boshqarish jarayoni nuqtayi nazaridan

buning mazmuni quyidagilardan iborat: shakllanayotgan shart-sharoitlarning rivojlanish yo‘nalishlari va istiqbollarini o‘rganish, har bir holatda faoliyat maqsadlarini belgilash, reja dasturlarini (faoliyat dasturlarini) ishlab chиqish, muammolarni hal etishda shaxsiy ishtiroki darajasini va o‘z vazifalarini aniqlash, xodimlarining faoliyatini va oldiga qo‘ygan maqsadlarini amalgaloshirishlarini nazorat qilish.

#### KUTUBXONA ISHLOVI

Kutubxonada saqlash va foydalanish uchun hujjatlarni tayyorlash jarayonlari: bibliografik tasvir tuzish, sistemalashtirish, hujjatlarni predmetlashtirish va texnik ishlov berish. Kutubxona ishlovi yo‘llanma va o‘lchovlari orqali tartibga solinadi.

#### KUTUBXONA- CHILIK ISHI-

Aholini bosma asarlar va boshqa hujjatlarga bo‘lgan ehtiyojini kutubxonalar orqali qondirishga qaratilgan mafkuraviy, madaniy-ma’rifiy va ilmiy-axborot faoliyatining sohasi.

#### KUTUBXONASHU- NOSLIK TADQLI- QOTLARIDA QIYO- SIY METOD-

Ilmiy izlanishlarda qiyoslash, chog‘ish-tirish usullarining har tomonlama sistemali qo‘llanishi: ushbu metod o‘rganilayotgan muammoning mohiyati va

qonuniyatlarini aniqlashga imkon beradi va uni yagona holatdan olib chiqib, bu hodisani bir qator o‘xshash holat (ko‘rinishlar) bilan birga o‘rganilishini ta’minlaydi.

## KUTUBXONA

### ILMIY TEKSHIRISH

#### ISHLARI(KITI)-

Aholiga kutubxona-bibliografik xizmatini takomillashtirishga, uning nazariy asoslarini mustahkamlashga yordam beradigan, kutubxonachilik bibliografiyashunoslik, kitob tarixi va kitobshunoslik, kutubxona texnologiyasini optimallash-tirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar quyidagicha farqlanadi: kutubxona ishi sohasida nazariy bilimlarni chuqurlashtirishga yordam beruvchi, nazariy-amaliy ishning biron muammosini nazariy hal etishni tavsiya etuvchi, amaliy faoliyatni ma’lum jarayonini takomillashtirishga qaratilgan aniq takliflarni o‘z ichiga olgan ishlardan iborat amaliy tadqiqotlar. Ilmiy tekshirish ishlari bevosita kutubxona-bibliografik muassasalarida amalga oshiriladi va ular faoliyatining bir yo‘nalishi sifatida rivojlantiriladi va bunga mablag‘ ajratiladi.

## KUTUBXONA ISHI-

### NING ISTIQBOL

#### REJASI-

Kutubxona-faoliyatining uzoq muddatga (besh yil va undan ortiq) mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlarini hamda nazorat ko‘rsatkichlarini belgilovchi hujjat. Rejalar umumiyl va kutubxona faoliyatining

alohida yo‘nalishlari bo‘yicha (masalan komplektlashtirish rejası) bo‘lishi mumkin.

### KUTUBXONA ISH VAQTINING FONDI-

Ma’lum bir muddat mobaynida barcha kutubxona xodimlari ishining rejalash-tirilgan ish vaqtini. Kutubxona ish vaqtining yillik, choraklik, oylik fondlari farqlanadi.

### KUTUBXONACHILIK ISHINI OLDINDAN

#### BELGILASH-

Oldindan belgilashning umumiyligi nazariyasining metodik asoslariga tayangan holda kutubxonachilik ishi taraqqiyoti ob‘yektiv yo‘nalishlarining yetakchi omillaridan va istiqbollarini ilmiy asosda belgilash. Oldindan belgilash kutubxona ishini boshqarishning muhim qismi bo‘lib, rejalash bilan yaqin aloqada va uning ilmiy asosini tashkil etadi. Oldindan belgilashning quyidagi turlari bor: aniq masalalar bo‘yicha, vaqt bo‘yicha (qisqa muddatli 3-7 yil, o‘rta muddatli 7-15 yil, uzoq muddatli 15 yildan ortiq) va oldindan belgilash usullari bo‘yicha (evristik usul, modellashtirish va h.k.)

### KUTUBXONA ISHINI

#### TASHKIL ETISH-

Kutubxona faoliyatini ta’minlashga va faoliyatini tartibga tushirish yo‘li bilan eng maqbul natijalarga erishishga qaratilgan tadbirlar va ularni amalga oshiradigan qoidalar yig‘indisi kutubxona tu-

zilishi Nizomiga yuqori tashkilotlarning ko'rsatmalariga, kitobxonlar talabi va ehtiyojiga tayangan holda belgilangan yo'naliш va yuritish uchun tuziladi.

#### KUTUBXONA ISHI

##### JARAYONI-

1. Muayyan, nisbatan mustaqil vazifani bajarishdan iborat izchil kutubxona ishlaring majmuasi. (Masalan: kataloglashtirish, talabnomma asosida kitob tanlash va h.k.)
2. Bir joyda xodim tomonidan bajariladigan kasb lavozimiga mos hatti-harakatlarni hisobga olish, xatlarni qabul qilish va jo'natish va h.k.

#### KUTUBXONA ISHI

##### IQTISODI-

Mazmunini kutubxona faoliyatining iqtisodiy tahlili va kutubxona ishida iqtisodiyot qonuniyatlarini va mezonlarini qo'llash xususiyatlarini o'rghanishni tashkil ettirgan madaniy iqtisodiyotni bir qismi.

#### KUTUBXONA ISHINING YILLIK

##### REJASI-

Kutubxona faoliyatining barcha jabhallari bo'yicha kelgusi yilga, choraklarga bo'lingan holda qilinadigan ishning mazmuni va hajmini belgilovchi kundalik rejalari hujjati.

#### KUTUBXONA ISHINI MABLAG' BILAN TA'MINLASH-

Kutubxona ishini rivojlantirish va takomillashtirish uchun mo'ljallangan

mablag‘ni markazlashgan daromad fonda dan ajratish.

## KUTUBXONA ISHIDA MARKAZLASH- TIRISH-

Kutubxona ishini boshqarishning yoki ma’lum bir kutubxona jarayonlarini yagona markazga to‘plash. Markazlashtirish tamoyillarini qo‘llash quyidagilarda o‘z ifodasini topgan: 1. Mamlakatdagi barcha kutubxonalarни davlat boshqaruviga bo‘ysundirish. 2. Davlat miqyosida tashkiliy masalalarни bir tartibda hal etish. 3. Kutubxona ishini takomillash tirish maqsadida kutubxonalarга kunda lik (har kunlik) metodik yordamni tashkil etish. Davlat miqyosida markazlashtirish namunalari markazlashgan kitob ta’minoti jabhasini tashkil etish, kutubxona tarmog‘ini markazlashtirish.

## KUTUBXONA ZA- HIRALARINI RE- JALASHTIRISH-

Hudud (muassasa) aholisining ob’yektiv ehtiyojlarini o‘rganish asosida amalga oshiriladigan rejalahtirish bo‘lib, ma’lum davrdan kutubxona resurslari rivojining yo‘nalishlari va istiqbollarini aniqlashdan iborat. Kutubxona zahiralari rivojini ishlab chiqish istiqbol rejasining tarkibiy qismiga kiradi.

## KUTUBXONA ISHI- NING REJASI-

Ishlarning mazmuni, hajmi, ularni baja-

rish ketma-ketligi va muddati hamda bajaruvchilarini belgilovchi hujjat bo‘lib, istiqbolli va joriy rejalgarda bo‘linadi.

### KUTUBXONA ISHINI REJALASH- TIRISH-

Kutubxonani boshqarish ishining tarkibiy qismi ma’lum muddatga mo‘ljallan-gan kutubxona ishini aniq vazifalari, ularni bajarish yo‘llari va rejali ko‘rsatkichlarini ifodalovchi tadbirlar tizimini ishlab chiqish. Kutubxonachilik ishini rejalashtirishni istiqbolli va joriy turlarga ajratiladi. Ba’zan “joriy rejalashtirish” atamasi o‘rniga “tezkor rejalashtirish” qo‘llaniladi (Ayniqsa choraklik va oylik rejalariga nisbatan).

### KUTUBXONA- LARNI LOYIHALASH- TIRISH-

Kutubxonalarni qurish uchun ularning barcha xususiyatlarini e’tiborga olgan holda zarur bo‘lgan texnik hujjatlar (lo-yihani) yaratish. Bular tipovoy (bir xil) va individual (yakka) loyihalarga ajratiladi.

### KUTUBXONA- CHILARNING MALAKASINI OSHIRISH-

Madaniyat, ilm-fan texnikaning eng yangi yutuqlari, ilg‘or kutubxona tajribasiiga tayangan holda kutubxonachilarning umumiy bilimlari darajasini oshirish,

kasb bo'yicha bilimlari, ko'nikmalari va mahoratini oshirish tizimi. Bu malaka oshirish ilmgohlari, ilg'or tajriba maktablarida o'qish, ilmiy-nazariy kengashlarda ishtirok etish va kutubxonachilarning mustaqil bilim olishi orqali amalga oshiriladi.

## KUTUBXONA

### ME'MORCHILIGI

- Kutubxona binosi va ichki bo'linma (xona) larining tuzilishi. Kutubxonaning tashqi va ichki ko'rinishi uning qiyofasini tashkil etadi. Kutubxonalar qurilishida imoratlarning bajarishi kerak bo'lgan vazifasiga asosiy e'tibor qaratiladi.

## KUTUBXONADA

### MEHNATNI TAQ-

### SIMLASH -

Tarkibiy bo'linmalar vazifasini belgilash, shuningdek, xodimlar o'rtasida vazifalarni taqsimlash va ularni ixtisoslashtirish. Mehnatni taqsimlash tarkibiy bo'linmalar haqidagi amaliy yo'llanma va mezonlar bilan qonunlashtiriladi.

## KUTUBXONACHI

### MEHNATINING

### UNUMDORLIGI-

Kutubxona xodimini sarf qilgan mehnatini samaradorlik darajasi: vaqt birligida (soat, kun, oy, chorak, yil) kutubxonachi mehnatining hajmi bilan yoki bir ishni (talab bo'yicha kitob berish va h.k.) bajarish uchun sarf qilingan vaqt bilan o'lchanadi.

**KUTUBXONA****MUQOVASI-**

Yumshoq yoki bo'sh muqovada nashr etilgan kitoblarni yaxshi saqlash uchun mustahkam matodan tayyorlangan muqova.

**KUTUBXONADA****MEHNATNI TASH-****KIL ETISH-**

Kutubxona xodimlaridan samarali foydalanishni ta'minlovchi tadbirlar majmui. Mehnat qilish jarayonida xodimlarni taqsimlash, jamoada mehnatni taqsimlash va kooperatsiyalash ish metodlarini ishlab chiqish va me'yorlashtirish, ish o'rinlarini tashkillashtirish, mehnat uchun zaruriy ish sharoitlarini yaratishni o'z ichiga oladi.

**KUTUBXONA****MUHRI-**

Kutubxonaning nomi bitilgan to'g'ri to'rtburchak shaklidagi muhri. Odatda o'lchami 1,5 x 4,0 sm ga teng bo'ladi.

**KUTUBXONA****NASHRI-**

1. Kutubxona chiqargan nashr.
2. Kutubxonada foydalanish uchun mo'l jallangan va shunga mos bezalgan nashr.

**KUTUBXONA****NAFOSATI****(estetikasi)-**

Kutubxona sharoitini estetik shakllanishiiga yordam beradigan usul va metodlarini ko'rib chiquvchi ilmiy kutubxonachilik sohasi fondni joylash, uni kitobxonlarga ko'rsatish kataloglarini jihozlash ish jarayonlarini estetik did bilan uyushtirish, shuningdek, kutubxonani

ichki va tashqi tomondan bezashda texnik estetik yutuqlardan foydalanish (badiiy bezash, mebelni tanlash, yorug'lik manbalari va jihoz uskunalarini joylash, ko'rkmash-tirish va h.k.)

#### KUTUBXONA ODOBI-

Kutubxonashunoslik va odobning uyg'unlashuvi asosida vujudga kelgan, ilmiy kutubxonashunoslik sohasi, kutubxonachilarning ishida o'zlarini tutish qoidalarini o'rgatadi (shirinso'zlik, farosatlilik va h.k.).

#### KUTUBXONA PASPORTI-

Kutubxona binosi (tuzilishi, qurilmalar ning ishlovi, injener texnik jihozlari va moslamalari yordamchi inshootlari, balans bo'yicha bahosi va joylashgan yer) haqida asosiy ma'lumotlarni aks ettirgan ma'lum shakldagi hujjat. Ko'zda tutilgan maqsadga qarab (masalan: kutubxonada izlanishlar olib borilayotganda) kutubxona haqidagi boshqa ma'lumotlarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

#### KUTUBXONA PE- DAGOGIKASI-

Pedagogika va kutubxonashunoslikning uyg'unlashuvi asosida shakllangan ilmiy kutubxonashunoslik sohasi kutubxona ishining pedagogik asoslarini, o'qish, nazariyasining muammolarini, adabiytini targ'ib etish va ta'lim-tarbiyaning nazariy asoslariga suyangan pedagogika qonuniyatlariga tayangan holda o'qishga rahbarlik qilishni ko'rib chiqadi.

## **KUTUBXONA PESH-**

**QOG‘OZI (plakati)-** Kutubxona diqqatini dolzarb mavzu, aniq bir kitob yozuvchi ijodiga qaratish maqsadida qog‘oz yoki qog‘oz taxtada (karton) bajarilgan matn va suratlari ko‘rgazmali targ‘ibot shakli.

## **KUTUBXONA PSI-XOLOGIYASI-**

Kutubxona ishining psixologik asoslarini o‘rganuvchi va psixologik va kutubxonashunoslikning uyg‘unlashuvi asosida shakllangan kutubxonashunoslikka oid ilm sohasi.

## **KUTUBXONA TARMOG‘I-**

Yagona markaziy boshqariladigan, vazirlik, muassasa, jamoat tashkilotiga tegishli asosida birlashgan kutubxonalar majmuasi.

## **KUTUBXONA TARKIBI-**

Kutubxona bo‘linmalarining o‘zaro munosabati va aloqalarini hamda ular o‘rtasida vazifalarning taqsimlanishi ko‘zda tutilgan. Kutubxonaning tashkiliy tuzilishi tizimi. Kutubxona tarkibi, kutubxonaning turi, uning vazifasi, fon-dining hajmi va boshqa sharoitlariga bog‘liq. Odatda kutubxona tarkibini qu-yidagilar tashkil etadi: bo‘lim, tarmoq, bo‘linma, shu’ba, guruh.

## **KUTUBXONA TIZIMI-**

Respublika yoki hudud miqyosida yagona ko‘p bosqichli tuzilma sifatida ishlaydigan asosiy maqsad va faoliyat tamoyillarining umumiyligi asosida birlashgan kutubxonalar majmuasi. O‘zbekiston Respublikasi kutubxonalari, qaysi tar-moqqa bo‘ysunishidan qat’iy

nazar, qu-yidagilardan tashkil topuvchi yagona tizimni tashkil etadi: madaniyat vazirligi kutubxonalari, Fanlar Akademiyasi va uning institutlari kutubxonalari, barcha vazirlik, qo‘mita, birlashma, jamoatchilik va jamoa tashkilotlari kutubxonalaridir. Kutubxonalar yagona tizimining qo‘llanishi quyidagilarga asoslanadi: 1. kutubxonalarning tarmoq va tarmoq-lararo birlashtirilishi. 2. Respublika miqyosida turli hudud va xalq xo‘jaligi sohalari bo‘yicha markazlashtirilgan komplektlash-tirish va qayta ishslash, fan va texnika tashkilotlari bilan birgalikda yagona axborot -ma’lumotnomma fondini yaratish. 3. Kutubxonalar ishini muvo-fiqlashtirish va kooperatsiyalashining turli shakllarini qo‘llash. 4. Kutubxona-larning boshqa madaniy-ma’rifiy va ilmiy tashkilotlar, xalq ta’limi, matbuot, kino, radio va televideniye, kitobsevarlar jamiyati, ijodiy uyushmalar, madaniy markazlar va b. bilan o‘zaro aloqalarini ta’minlash.

#### **KUTUBXONA TAR- MOG‘INI MARKAZ- LASHTIRISH** -

Ma’muriy va metodik rahbarlikni, adabi-yotni markazlashgan komplektlashtirish va qayta ishslashni amalga oshiruvchi markaziy kutubxonadan va o‘z tumanidagi aholiga xizmat ko‘rsatuvchi filial-kutubxonalardan iborat kutubxonalar birlashmasini yaratish. Kutubxonalar faoliyatining muhim muammolarini kom-

pleks tarzda hal etish vositasi hisoblana-di. (Kutubxona tarmog‘ini tartibga sol-ish, mehnatni muvofiqlashtirish va b.) Markazlashgan bir muassasa doirasida olib boriladi. To‘liq markazlashtirish (yag-ona fondga, xizmatchilarning umumiyligiga, yagona rahbarlikka, markaz-lashgan komplektlashtirishga asoslangan holda kutubxonalarни birlashtirish) va qisman markazlashtirish (bunda faqat komplekt-lash, adabiyotni ishslash va boshqa umum-tarmoq sarf-xarajat uchun mablag‘lar bir-lashtiriladi) bilan farqlanadi.

### KUTUBXONANI TEXNIK JIHOZLASH-

Boshqaruv ishini (kutubxona ishini hisobga olish, nazorat qilish va o‘rganish jarayonlarini) mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish uchun ishlatiladigan texnika vositalari. Texnik jihozlash vositalari qatoriga asboblar, moslamalar va mashinalar kiradi. (avtoruchka, qalam-ta-roshdan tortib to diktofon, yozuv mashinkalari, nusxa ko‘chirish va ko‘paytirish apparatlari va EHM gacha).

### KUTUBXONA TARMOG‘I STATISTIKASI

Kutubxonalar miqdorini, ularning rivoj-lanish dinamikasini turli belgilari bo‘yicha guruhanishni kutubxona tarmog‘ining shakllanishi xususiyatlarini o‘rganuvchi kutubxona statistikasining bir bo‘limi.

## KUTUBXONADAN TASHQARIDA XIZ- MAT KO'RSATISH-

Kitobni ish, o'qish, yashash joyiga yaqinlashtirishni ta'minlaydigan ko'chma kutubxona, bibliobus va boshqa ish usullarini qo'llash orqali kitobxonlarga kutubxonadan tashqarida xizmat ko'rsatish.

## KUTUBXONALAR TIPOLOGIYASI-

Kutubxonaning tarkibi, kitobxonlari doirasи, mamlakat kutubxona muassasalari tizimidagi egallangan o'rnnini belgilashda yordam beruvchi belgilar majmuasi bo'yicha kutubxonalarning ilmiy tasnifi.

## KUTUBXONA TEXNOLOGIYASI-

Kutubxonaning me'yoriy ishlanishini ta'minlovchi kutubxona ishi va jarayonlarini shuningdek, ularni amalga oshiruvchi usul va vositalar majmui. Kutubxona texnologiyasi kutubxona sikllariga bo'linadi.

## KUTUBXONA TURLARI-

Qaysi ijtimoiy-axborot ehtiyojlarini qondirishga ko'ra kutubxonaning ta'rifi. Ushbu belgisiga ko'ra ikki turdag'i kutubxonalarни ajratish mumkin: universal va maxsus.

## KUTUBXONALAR UYUSHMASI-

1. Tarkibiy tashkil etilishi yoki faoliyatining muvofiqlashtirish nuqtai nazaridan bir yoki har xil turdag'i kutubxonalar majmuui. Kutubxonalar birlashmalariga TSBS (MKT) BTK (TKT) territorial tarmoq kutubxonalari, muassasalararo

markazlashgan sistemalar, zavodlararo va ittifoqlararo kutubxonalar kiradi. 2. Tajriba almashish va malaka oshrish maqsida bir yoki bir necha muassasa kutubxonalarini xodimlarining ixtiyoriy birlashuvi.

### KUTUBXONASHU-NOSLIK FANI-

Madaniyat institutlarining kutubxona-shunoslik fakultetlarida va dorilfununlarida, pedagogika institutlarining maxsus bo‘limlarida oliy malakali mutaxassislarini tayyorlash sohasida alohida ilmiy soha sifatida shakllangan kutubxonashunoslikning bo‘limi. Masalan: umumiy kutubxonashunoslik, kutubxona ishi tarixi, kutubxona fondlari, kutubxona kataloglari, kutubxonalar bilan ishslash va b.

### KUTUBXONA FONDI STATISTIKASI-

Turli nuqtai nazardan (hujjat turlari, til va bilim sohalari, kutubxona turlari) tarkibining dinamikasini o‘rganuvchi kutubxona statistikasining bir bo‘limi.

### KUTUBXONANING FUNKSIONAL BO‘LIMI

Kutubxonaning asosiy vazifalarining birinchi bajaruvchi bo‘limi (komplektlash bo‘limi, kitobxonlarga xizmat ko‘rsatish bo‘limi va h.k.)

### KUTUBXONADAN FOYDALANISH QOIDALARI

Kutubxonada kitobxonlarga xizmat

ko'rsatishning eng muvofiq usul va tariblarini belgilovchi hujjat.

## KUTUBXONA HUJJATLARI

Kutubxona faoliyatining huquqiy, texnologik va tashkiliy jihatlarini belgilovchi hujjatlar majmui. Quyidagilarga bo'linadi: hamma kutubxonalar uchun umumiyligiga (kutubxona fondini saqlash haqidagi instruktsiya) ma'lum muassasalarga qarashli kutubxonalar uchun umumiyligiga bo'lgan hujjatlar (kutubxona ustavlari) faqat belgilangan kutubxonaga tegishli bo'lgan. Kutubxona hujjatlariga yana kutubxona rejali, qayd daftarlari (inventar, kitoblar, kutubxona kundaliklari, hisobotlar kiradi). Kutubxona hujjatlarining barcha kutubxonalar uchun yagona bo'lgan turli qolipqog'ozlar, blankalar, hujjatlar namunasi, rasmiy hujjatlar, axborotlar, kutubxona hujjatlarining ko'rinishlari hisoblanadi.

## KUTUBXONALAR HAMKORLIGI

Axborotga bo'lgan talabni to'liqroq qondirish va kutubxona resurslaridan unumli foydalanish maqsadida birgalikda ish yuritish va buning natijalarini o'zaro almashish uchun kutubxonalarning birlashishi. Birgalikdagi faoliyat kutubxona faoliyatining barcha jabhalarini o'z ichiga oladi.

## KUTUBXONA- LARNING HAMMABOPLIGI

Kitobxonlarning kutubxonalardan foy-

dalanishdagi huquqiy tengligini ta'minlovchi (ifodalovchi) kutubxonalar tarmog'ini tashkil etuvchi tartibi. Kutub-xonalarning ommaviyilagini ta'minlovchi shart-sharoitlar: a) kutubxonalardan bepul foydalanish; b) kutubxonalarni aholiga yaqinlashtirish; c) aholiga xizmat ko'rsatishning va kitob targ'ibotining turli shakl va usullaridan foydalanish, d) kutubxonalarda kitobxonalar uchun iloji bor qulayliklarni yaratish.

## KUTUBXONA XIZMATI -

1. Bosma asarlarni va boshqa hujjatlarni yoki ularning nussxalarini targ'ibot qilish va kitobxonga berish (uzatish) ularni tanlash va ishlatishda yordam ko'rsatishdan iborat kutubxona faoliyat.
2. Kitobxonlarga vaqtinchalik foydalanish uchun kitob va boshqa bosma asarlar va o'zga hujjatlarni kutubxona fondidan berish, kitobxonlarga kutubxona tomonidan bibliografik va axborot-ma'lumot be-rish xizmatini ko'rsatish.

## KUTUBXONA XODIMLARI-

Kutubxonaning asosiy doimiy xodimlari. Kutubxonachi va bibliografik kadrlar. Bu o'z navbatida kutubxona kadrlarini oliy va o'rta malakali kadrlarga taqsimlashga imkon beradi. Kutubxona kadrlari qatoriga shuningdek, kutubxonalarda ishlaydigan boshqa bilim sohalaridagi mutaxassislar ham kiradi.

## KUTUBXONA XONALARI-

Kitobxon va kutubxonachilarning ishlashtiga mo‘ljallangan xonalar: qiroatxonalar, kitob berish xonalari, axborot-bibliografik xodimlari xonalari, fond omborlari va shuningdek, kutubxona jarayonlarini amalga oshirish uchun xonalar (komplektlash, kitobga ishlov berish, bibliografik va ilmiy metodik ishlar xonalari)

## KUTUBXONA STATISTIKASI-

Kutubxonashunoslik va statistikaning qo‘shilishi asosida vujudga kelgan ilmiy kutubxonashunoslik sohasi. Kutubxona ishidagi ommaviy hodisalar va jarayonlar ni miqdoriy jihatdan o‘rganish. Ijtimoiy-iqtisodiy statistika va madaniyat sohasida statistikaning nazariyasi va metodologiyasini qo‘llaydi. Qator bo‘limlarni o‘z ichiga olgan, ulardan eng muhimlari quyidagilar: kutubxona tarmog‘i statistikasi, kutubxona kadrlari statistikasi, aholiga xizmat ko‘rsatish statistikasi.

## KUTUBXONADAGI HISOB-KITOB ISHLARI -

Kutubxona faoliyatini ifodalaydigan miqdor ko‘rsatkichlarini muntazam qayd etib borish va hisoblash.

## KUTUBXONA HISOBOTI-

Vaqti-vaqti bilan yuqori tashkilotlarga, davlat statistikasi tashkilotlariga, shuningdek, kitobxonlar ommasiga beriladigan ma’lum vaqt mobaynida kutub-

xona ishlarining natijalari haqidagi ma'lumotlar majmui. Kutubxona hisobotining asosiy turi yillik hisobotlardir.

## KUTUBXONA STA-TISTIKASINING KO'RSATGICH-LARI

Kutubxonachilik ishi jarayonining yoki biron-bir ko'rinishining son xarakteristikasi (sonlarda ifodalangan) absolyut (kitobxonlar, kitoblar va h.k. soni ta'rifi) va nisbiy (fondning ishlatalishi, o'qilishi darajasi va h.k) kattaliklarda (o'lcham-larda) ifodalananadi.

## KUTUBXONA STA-TISTIKASINING NISBIY KO'RSAT-KICHLARI

Mazmunan o'zaro aloqador bo'lgan ikki absolyut (mutlaq) qiymatning munosabati orqali ifodalangan ko'rsatkichlar: o'rganilayotgan hodisaning unda ro'y berayotgan o'zgarishlarni, uning rivojlanishi darajasini qiyosiy baholash uchun qo'llaniladi. Uch turdag'i nisbiy qiymatlar farqlanadi, rivojlanish ko'rsatkichlari, strukturaviy va daraja ko'rsatkichlari.

## KUTUBXONADA STATISTIK HISOB KITOB -

Kutubxona fondining hajmi, tarkibi va harakatining kitobxonlar soni va tarkibini, kitob berilishi miqdorini, ommaviy bibliografik va boshqa turdag'i kutubxona ishlarining miqdori va tarkibini qayd etish, hisoblash va miqdoriy ta'rifini ber-

ish. Kutubxona faoliyatini o‘rganish natiijalarini umumlashtirish va kutubxona ishini bundan keyingi rivojini rejalash maqsadida amalga oshiriladi.

**KUTUBXONA STA-TISTIKASINING O‘RTACHA KO‘RSATGICHLARI**

Sifat jihatdan bir turdag'i va son jihatdan bir-biridan farq qiluvchi kattaliklarning umumiyligi va jamlama xususiyatlarini ifodalovchi umumlashma ko‘rsatgichlar.

**KUTUBXONA STA-TISTIKASIDAGI SUR’AT KO‘RSATGICHLARI**

Hodisaning sur’atlari, takroriyligi darajasini ifodalovchi nisbiy o‘lchamlar (kattalik) masalan: kutubxona fondining ishlatalish darajasi, bir yil mobaynida berilgan kitob sonini kutubxonachilar soniga nisbat qilish yo‘li bilan aniqlanadi.

**KUTUBXONA SIRTQI ABO-NEMENTI (KSA)**

Bosma asarlarni va boshqa hujjatlarni bevosita yashash, yoki ish joyida pochta orqali jo‘natish yo‘li bilan olish imkoniyatini beruvchi kutubxona abonementi.

**KUTUBXONANING SOHALI BO‘LIMI**

Xalq xo‘jaligi, ilm-fan, madaniyatning ma’lum bir sohasiga oid adabiyotlar bilan kitobxonlarga xizmat qiluvchi bo‘lim (san’at bo‘limi, texnika adabiyotlar bo‘limi va h.k.)

## KUTUBXONA

### O'QUVI-

Nazariy tayyorgarlikni amaliy mashg'ulotlar bilan qo'shib olib boradigan yakka tartibdagi ishlab chiqarish o'qishi shakli, bevosita kutubxonaning o'zida amalga oshiriladi.

## KO'PJILDLI

### NASHR-

Mazmunan va bezatilishi nuqtai nazardan bir butunni tashkil etgan ikki va undan ortiq nomerlangan jildlardan iborat vaqtli bo'lmagan nashr. Bu ma'noda "ko'p jildlik" terminini qo'llash yaramaydi.

## KO'P QISMLI PRED-

### METLI RUKN-

Murakkab predmetli rubrika, bunda leksik birliklari ma'lum tartibda joylashgan va bir-biridan ayirish belgilari bilan ajratilgan bo'ladi. Ayirish belgisi sifatida tire, ba'zan esa nuqta va vergul ishlatiladi.

## KO'P SOHALI

### FOND-

Bir necha bilim sohalari bo'yicha hujjatlardan tashkil topgan kutubxona fondi.

## KO'P TILLI

### LUG'AT-

Bir necha yoki ko'pchilik tillarning til birliklarini qiyoslovchi lug'at.

## KO'RLAR UCHUN

### NASHR-

So'qirlar uchun alohida shrift bilan bosilgan nashr.

## KO'RGAZMALI

### QO'LLANMA-

Kasbni, ishlab chiqarish jarayonini yengillashtirish maqsadida mazmunan

ko'rgazmali, asosan tasviriy shaklda bo'lgan qo'llanma.

- L -

LAKUNA

(bo'sh o'rin)-

1. Kutubxona fondidagi bo'sh o'rin.
2. Matnda tushib qolgan, yetishmaydigan, ochiq qolgan joy.

LITOGRAFIYA-

Litografik tosh yoki metall plastinkalardan bosib tasvir tushirish usuli: bunda litografik tosh (temir plastinkaning) bosma tasvir tushiradigan unsurlari kimyoviy ishlov berish natijasida yog'liq bo'yoqni o'ziga olmaydigan qilingan. Hozirgi davrda litografiya asosan shtamplarda qo'llaniladi.

LITOGRAFIYALI

NASHR-

Matni va ilovalari litografiya uslubida bosilgan nashr.

LUG'AT-

Til birliklarining (so'z, ibora va h.k.) tartibga solingan ro'yxatidan iborat ma'lumot nashri: bunda ularning qisqacha ta'rifi yoki ular ifodalagan tushunchalarning tavsifi yoxud ularning boshqa tilga tarjimasi bilan beriladi. Bu ma'noda "Lug'at-ma'lumot-noma" atamasini qo'llab bo'imaydi.

LUG'AT KO'RINISHI-

DAGI BIBLIOGRA-

FIK QO'LLANMA-

Bibliografik qaydlar mualliflari ismi, asar sarlavhasi va predmetli ruknlarning ya-

gona alfavit asosida joylashtirilgan bibliografik qo'llanma.

## LUG'AT TARTIBI-DAGI KATALOG-

Bibliografik qaydlar alohida muallif ismlari, jamoa avtorlarining nomlari, sarlavha va predmetli ruknlari alfavit tarzda joylashtirilgan katalog.

## - M -

### MA'RUZA-

Ma'lum mavzu bo'yicha ma'lumotlarning og'zaki bayoni. Kutubxona odatda ma'ruba mavzu kechasi yoki og'zaki jurnal rejasiiga yoki dasturiga kiritilgan bo'ladi.

### MAJBURIY NUSXA-

Mamlakatda chiqarilgan har bir nashrning poligrafik muassasalar va nashr etuvchi tashkilotlar tomonidan qonunga yoki maxsus hukumat farmoyishlariga muvofiq tarzda davlat kitob omborlariга, yirik kutubxonalarga, ma'lumot va bibliografik markazlarga mamlakatdagi nashr mahsulotlarini markazlashgan tarzda hisobga olish, kutubxonada fondlarni va bosma mahsulot arxivlarini komplektlashtirish, ma'lumot va bibliografik faoliyatni taminlash maqsadida yuborilishi shart bo'lgan nusxa. Majburiy nusxaning pullik va bepul turlari bor.

### MA'LUMOTNOMA-

Bir tizimli qurilishga ega bo'lgan va amaliy ruhdagi ma'lumot nashri.

**MA'LUMOTNOMA  
AXBOROT FONDI  
(MAF)-**

Ilmiy-texnika axborotiga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun mo'ljallangan qisqartirilgan ma'lumot-izlanish apparati majmuasi.

**MA'LUMOTNOMALI  
ANNOTATSIYA-**

Hujjatning noaniq sarlavhasiga aniqlik kirituvchi va ma'lumot berish maqsadi-da qo'shimcha axborot (bibliografik tasvirda bo'lмаган) beruvchi annotatsiya.

**MA'LUMOT-  
BIBLIOGRAFIK  
APPARAT (MBA)-**

Axborotni izlash, adabiyotni targ'ib qiliш va o'qishga rahbarlik qilish uchun mo'ljallangan ma'lumotli va bibliografik nashrlar, kutubxona katalogi va kartotekalarining majmuasi.

**MA'LUMOT-BIB-  
LIOGRAFIK FOND  
(MBF)-**

O'z ichiga ma'lumot nashrlarni va bibliografik qo'llanmalarini (kartochkali kataloglar) va kartotekalardan tashqari, bibliografik faoliyatning barcha jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan, eng muhim va ko'rsatmali materiallarni olgan kutubxona fondining ma'lumot-bibliografik apparatining bir qismi.

**MA'LUMOT-BIB-  
LIOGRAFIK XIZ-  
MAT KO'RSATISH  
(MBXK) -**

Axborot talabgorlarining bir martalik

talablarini qondirishdan iborat bibliografik xizmat ko'rsatish (talab-javob tizimida).

### MA'LUMOT-

### IZLASH

### APPARATI (MIA)-

Ilmiy-texnik axborotni izlash uchun mo'ljallangan tartibga solingan ikkilamchi hujjatlar majmuasi. Bu kutubxona amaliyotida ma'lumot apparatini ifodalash uchun "Ma'lumot-bibliografik" apparat atamasi qo'llaniladi.

### MA'LUMOT

### NASHRI-

Ilmiy, ilmiy-ommabop, tashviqot yoki amaliy mazmundagi qisqacha ma'lumotlarni topishni osonlashtiruvchi shaklda bayon etilgan, jihozlangan va joylashтирilgan nashri. Bu ma'noda "ma'lumot-noma" terminini qo'llab bo'lmaydi.

### MAVZUIY-BIBLIO-

### GRAFIK

### IZLANISH-

Mavzuiy talabnomaga mos bo'lgan bibliografik axborotni izlash.

### MAVZUIY-BIBLIO-

### GRAFIK

### MA'LUMOT-

Mavzuiy talabnomaga mos bo'lgan hujjatlarning ro'yxatini o'z ichiga olgan bibliografik ma'lumot.

### MAVZUIY-

### BIBLIOGRAFIK

### QO'LLANMA-

Qaysi sohaga tegishli ekanligidan qat'iy

nazar ma'lum bir mavzudagi hujjatlarni aks ettiruvchi bibliografik qo'llanma.

MAVZUIY-YOR-DAMCHI  
KO'RSATGICH-

Bibliografik qo'llanmada aks ettirilgan hujjatlar mavzularining tegishli bibliografik qaydlarga havola etilgan holdagi ro'yxatidan iborat yordamchi ko'rsatkich.

MAVZUIY  
KARTOTEKA -

Kutubxona fondida bor-yo'qligidan qat'iy nazar ma'lum mavzudagi hujjatlarni aks ettirigan bibliografik kartoteka.

MAVZUIY KECHA-

Kitobxonlarni o'tkazilayotgan kecha mavzusiga oid adabiyotlarni o'qishga jalb etish maqsadida uyushtiriladigan ommaviy tadbir.

MAVZUIY  
KO'RGAZMA-

Ma'lum bir mavzudagi bosma asarlarining va boshqa materiallarni targ'ib qilish maqsadidagi ko'rgazmasi.

MAGNITOFON-

Ovozli axborotni yozib olish va eshittirish uchun xizmat qiluvchi, tovushni magnit orqali yozib olish usuli, qo'llaniladigan qurilma.

MAKRONUSXA-

Makronusxalash yo'li bilan olinadigan nusxa.

MAKRONUS-XALASH-

Asl nusxdadan tasvirni kattalashtirib nusxa olish.

## **MAKTAB KUTUBXONA-SI**

O‘quvchi va o‘qituvchilarga kutubxona xizmatini ko‘rsatuvchi tashkil etuvchi, umumiy ta’lim maktabining tarkibiy qismi bo‘lgan kutubxona.

## **MARKAZIY KATALOG-**

Markaziy kutubxona fondi va uning barsha filiallari fondlarini aks ettiruvchi kutubxona katalogi. Masalan: MKT sharoitida va oliy o‘quv yurtlarining yirik kutubxonalarini.

## **MARKAZLASHGAN KATALOGLASH-TIRISH-**

Kutubxonalar tarmog‘i uchun metodik markazlarda yoki ularning rahbarligi ostida hujjatlarni kataloglashtirish. Markazlashgan kataloglashtirishning tarkibiy qismlari quyidagilardir: bibliografik tasvir tuzishni markazlashtirish, markazlashgan sistemalshatirish, markazlashgan predmetlashtirish. Markazlashgan kataloglashtirishning asosiy shakllari bosma katalog kartochkasida va nashr-dagi annotatsiyasi berilgan bosma katalog kartochkasining andozasidan iborat.

## **MARKAZIY KUTUBXONA -**

1. Muvofiqlashtirish va ilmiy-metodik markaz vazifalarini bajaruvchi, shuningdek, ma’lum o‘lka va soha kutubxonalarini uchun KAA (kutubxonalararo abonnement) markazi vazifasini o‘tovchi kutubxona.

2. Markazlashgan kutubxona tizimining tarkibiy qismi bo‘lgan kutubxona filiallariiga uning boshqaruv markazi bo‘lgan va filialga nisbatan markazlashgan vazifalarini bajaruvchi kutubxona. Markazlashgan kutubxonada markazlashgan komplektlash va yangi kelgan adabiyotlar bilan ishslash amalgalashiriladi. Yagona ma’lumot apparati bilan (markaziy katalog va kartotekalardan iborat) ma’lumot-bibliografik va axborot xizmatini ko‘rsatadi.

### **MARKAZLASHGAN KUTUBXONA TIZIMI (MKT)**

Umumiy fond va xodimlar bilan ish olib boruvchi tashkiliy va texnologik bir butunlikni tashkil etgan tarkibiy yaxlit muassasa bo‘lgan kutubxonalar majmui. MKT markaziy kutubxona, uning bo‘limlari, ixtisoslashtirilgan qiroatxonalar, kutubxona filiallari, bibliobus (ko‘chma kutubxonasi) va h.k.larga ega bo‘lgan keng tuzilmani tashkil etadi. MKTda adabiyotlarning keng ko‘lamita’milanadi va tizim ichida kitob almashtirish yordamida kitobxonlar talabini qondirish imkoniyati yaratiladi.

### **MARKAZLASHGAN KUTUBXONALAR TIZIMINING YAGONA FONDI**

MKT bo‘linmalarining bir butun tizimga birlashgan fondlari majmuasi. Fondni quyidagi belgilar ta’riflaydi: komplekt-

lashning yagona mavzuiy-tipologik rejası asosida barcha bo‘linmalari fondlarini markazlashgan komplektlash, fondni tashkil etishning boshqariluvi, MKSning turli bo‘linmasiga a’zo kitobxonlar uchun butun fonddan foydalanish imkoniyati.

#### **MARKAZLASHGAN**

##### **SISTEMALASH-**

##### **TIRISH-**

Ilmiy-metodik markazlarda (kutubxona bibliografik muassasalarda, ITA muassasalarida) muassasa va tashkilotlar uchun amalga oshiriladigan hujjatlarni sistemalashtirish: tahririyat va nashriyotlarda sistemali kataloglar sifatini oshirish va sistemalashtirish metodikasini muvofiqlashtirish maqsadida amalga oshiriladi. Mazkur atama “Markazlashgan tasniflash” atamasi o‘rnida qo‘llana oladi.

#### **MARKAZLASHGAN**

##### **PREDMETLASH-**

##### **TIRISH-**

Predmetli kataloglarning sifatini oshirish va predmetlashtirish metodikasini muvofiqlashtirish maqsadida ilmiy-metodik markazlarda kutubxona-bibliografik muassasalar, ilmiy tadqiqot tashkilotlari, tahririyat va nashriyotlarning muassasa va tashkilotlari tarmog‘ida amalga oshiriladigan hujjatlarni predmetlashtirish ishi.

#### **MARKAZLASHTIRIL-**

##### **GAN QAYTA ISHLOV**

##### **BERISH-**

Bir qator kutubxonalar uchun yoki bir kutubxonaning bir necha filiallari uchun

bir muassasa (kutubxona kollektorlari-da) hujjatlarni qayta ishlash. To‘liq va tugallanmagan ishlash farqlanadi.

#### MATBUOT-

1. Yalpi nashr mahsuloti.
2. Vaqtli nashrlar majmuasi.

#### MATN-

1. Ma’lum bir belgilar tizimi yordamida ifodalangan, mavzu jihatdan o‘zaro bog‘liq fikrlar yoki bir fikr-mulohazalar, shuningdek, ularning yozma bayoni.  
2. Leksik, grammatik, mantiqiy, uslubiy jihatdan o‘zaro bog‘liq jumlalar ko‘rinishida ifodalangan badiiy asarning asosiy qismi. Nashrda asosiy (badiiy asar yoki asarlar) yordamida (ilmiy, ma’lumot apparati) qo‘srimcha (asosiy matnga ilova) matnlar farqlanadi.

#### MATNGA QIZIQISH-

Kitobxonda paydo bo‘lgan diqqat bilan o‘zlashtirish, fikrlash tasavvur etish, yodda saqlash jarayonlarining yuqori darajasida o‘z ifodasini topgan o‘qishning ijobiy ohangini o‘zida mujas-samlashtiruv-chi ruhiy holat.

#### MATNLI NASHR-

Hajmnning asosiy qismini matn tashkil etgan nashr.

#### MATNNI TUSHUNISH-

Matn mazmunini tushunib o‘zlashtirishga qaratilgan o‘quvchining aqliy faoliyati. Matnni tushunish obyektiv (matn tuzilishi, murakkabligi darajasi) va subyektiv (o‘quvchining predmet bo‘yicha bilimla-

rining hajmi va chuqurligi va h.k.) omil-larga bog'liq. Matnni tushunish xususiyatlari quyidagilar: anglashning chuqurligi, to'laligi va aniqligi.

**MATBUOT  
STATISTIKASI -**

Bosma asarlar haqidagi statistik ma'lumotlarni to'plash, ishlash, o'rganish va nashr etish.

**MANTIQIY  
INDEKSATSIYA-**

Tasniflash bo'linmalari, ularning o'zaro bog'liqligini ifodalovchi belgilarga ega bo'lgan indeksatsiya.

**MAMLAKATSHU-  
NOSLIK  
KATALOGI-**

Mazmunan bir mamlakatga tegishli bo'lgan hujjatlarni aks ettirgan kutubxona katalogi. Mamlakatshunoslik katalogi regional (o'lka) katalogining bir turi-dir.

**MAMLAKAT-  
SHUNOSLIK  
BIBLIOGRA-  
FIK QO'LLANMA-**

Mazmunan bir mamlakat yoki bir necha mamlakatga tegishli bo'lgan hujjatlarni aks ettiruvchi bibliografik qo'llanma.

**MASHINA O'QIY  
OLADIGAN  
KATALOG-**

Magnitli (doira, tasma) va boshqa tashuvchilarga tushirilgan kutubxona katalogi. "Talab-javob" tartibida ishlaydigan AIS-da yoki EHM yordamida kitob shaklidagi

kataloglarni tayyorlashda qo'llaniladi. Bu ma'noda "mashina katalogi" atamasini qo'llash tavsiya etilmaydi.

#### **MAHALLIY**

#### **MATBUOT**

#### **KO'RSATGICHI-**

Mamlakatning biron-bir joyida (o'lkasida) chiqarilgan hujjatlarni (ularning mazmunidan qat'iy nazar) aks ettirgan bibliografik qo'llanma.

#### **MAXSUS BIBLIOGRA-**

**FIK QO'LLANMA-** Aniq ko'zlangan bir maqsadga qaratilgan (masalan, ilmiy yordamchi, tavsiyanoma va h.k.) bibliografik qo'llanmadir.

#### **MAXSUS**

#### **KUTUBXONA-**

Xalq xo'jaligining turli sohalaridagi mutaxassislarining ijtimoiy axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondiruvchi, aholining kasb-malakalarini oshirishga imkon yaratuvchi kutubxona.

#### **MAXSUS MA'LUM**

#### **MOTLAR SOHASI-**

Faqat ma'lum turdagи hujjatlarga xos bo'lgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bibliografik tasvir sohasi.

#### **MAQOLADA BERIL-**

#### **GAN BIBLIOGRA-**

#### **FIK RO'YXAT -**

Maqolada foydalanilgan, sitata olingan va tavsiya etilgan hujjatlarning maqola bilan birga berilgan bibliografik ro'yxati.

**MAQOLALARING  
SISTEMALI KARTO-  
TEKASI (MSK)-**

Kutubxona fondida bor-yo‘qligidan qat’iy nazar turli toifadagi kitob va kutubxona abonentlari uchun kerak bo‘lgan davriy davomli nash va to‘plamlardagi materiallarni aks ettiruvchi bibliografik kartoteka. Maqolalarning sistemali kartotekasi va sistemali katalog uchun yagona alfavit-predmetli ko‘rsatkich yaratiladi. Qarang: maqolalarning universal kartotekasi.

**MAQSADLI MAJ-  
BURIY NUSXA-**

Ma’lum bir davrga yoki biron maqsadga muvofiq olinadigan hujjatning bepul nusxasi.

**ME’YOR (norma)-**

Kitob blokidagi har bir daftар betining pastki qismida (odatda 17 yoki 33 betlarida) joylashtiriladigan nashrning qisqa, ko‘pincha esa qisqartirib olingan nomini yoki muallif ismini yoki bosmaxona buyurtmasini o‘z ichiga olgan qayd bo‘lib, nashr nusxalarida daftarlarning komplektlashtirilishi ustidan nazorat qilish maqsadida beriladi. Me’yor oldidan signatura beriladi.

**ME’YORIY NASHR**- Biron bir amaliy faoliyat sohasi bo‘yicha normativ hujjat qoida talablarini o‘zida mujassam qilgan nashr.

**ME’YORIY TEKNIK  
VA TEKNIK HUJ-  
JATLAR FONDI-**

Kutubxona fondini standartlash bo‘yicha

normativ-texnik hujjatlardan, texnik-iqtisodiyot normalaridan, patent hujjatlariidan, namunaviy loyiha va chizmalardan, sanoat mahsulotlari va ishlab chiqarish vositalari kataloglaridan materiallarning turiga ko‘ra narx ko‘rsatkichlaridan ilmiy texnik adabiyot va hujjatlarning e’lon qilinmagan tarjimalaridan iborat bo‘lgan bir qismi. Ba’zan alohida fondlar sifatida mavjud bo‘ladi.

#### METROPOLKA-

Fond hajmini qiyosiy o‘lchash uchun qabul qilinadigan xalqaro o‘lchov birligi. Tokcha metr (metropolka) birligi sifatida kitob bilan band bo‘lgan bir metrga teng ochiq javon tokchasi qabul qilingan.

#### METODIK SEMINAR-

Kasbga oid masalalarni muhokama qilish va uni tajribasini almashish maqsadida o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar.

#### METODIK-BIBLIO- GRAFIK MATE- RIALLAR (HUJJATLAR)-

Kutubxonachining turli bilim sohalari bo‘yicha adabiyotlarni targ‘ib qilishi usulini ochib beruvchi va keltirilgan mavzu bo‘yicha adabiyotlarining bibliografik ro‘yxatini o‘z ichiga olgan metodik nashr.

#### METODIK TAVSIYA-

Kutubxona ishining biron-bir muammosini hal etishga qaratilgan eng samarador ish usullarini joriy etishga yordam

beruvchi taklif va ko'rsatmalar majmua-sini o'z ichiga olgan metodik nashr.

**METODIK  
YORDAM-**

Ilmiy-metodik markazlarning kutubxona ishida eng samarador usul, shakllarni joriy etishda va qo'llashda kutubxonalarga yordam ko'rsatishdan iborat faoliyati.

**METODIK  
YORDAMCHI  
NASHR-**

Ommaviy tadbirni o'tkazishga yordam beradigan aniq hujjat va ma'lumotlarni o'z ichiga olgan metodik maslahatlar bilan birga adabiyotlarni tavsiya etuvchi metodik nashr.

**METODIK  
QO'LLANMA-**

Kutubxona ishining umumiylar masalalari bo'yicha bilimlar doirasini oshirish maqsadida chiqarilgan metodik nashr. Quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:  
1. Kompleks mazmunda tegishli turdag'i kutubxonalarning ishiga oid asosiy ma'lumot va qoidalarning yig'indisidan iborat.  
2. Kutubxona ishining alohida yo'naliishlari bo'yicha.  
3. Ularni joriy etish bo'yicha rasmiy ko'rsatma va qoidalarni o'z ichiga olgan qo'llanmalar.

**METODIK  
MASLAHAT-**

Kutubxona ishining biron-bir masalasi bo'yicha kutubxonachiga metodik yordam ko'rsatish usuli. Alovida guruhash, og'zaki yoki yozma qayd etilgan bo'lishi mumkin.

## METODIK KO'RSATMA-

Har bir kutubxonaning xususiyatlaridan kelib chiqib aniqlashtirilgan metodik yordam uslubi. Quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi: 1. Kutubxonachilarning so'roqlari asosida maslahat berish; 2. Kutubxonalarga borish va joyida ko'rsatma berish; 3. Rejalar, hisobotlar va h.k. 4. Kutubxona xodimlarini turli maqsadlarda (ish rejalarini ko'rib chiqish, hisobotini eshitish va h.k.) metodik markazlarga chiqarish.

## METODIK RAHBARLIK-

Kutubxona ishining eng samarali usul va shakllarini joriy etish yo'li bilan kutub-xona faoliyatini boshqarish maqsadida olib boriladigan kutubxona ishini boshqaruvchi tashkilotlar va ilmiy metodik markazlarning faoliyati. Metodik rahbarlik metodik tavsiyalarning joriy etilishi va qarorlarning bajarilishini nazorat qilishni taqazo etadi.

## MIKRONASHR-

Matnli va tasviriy ilovalar mikronusxalash usulida kichraytirilgan bosma asar (kitob, jurnal, gazeta).

## MIKRONUS- XALASH-

Nusxalash usuli, bunda nusxadagi tasvir hajmi asl nusxadagi tasvir hajmidan ancha kichik bo'ladi.

## MIKRONUSXA-

Mikronusxalash bilan olingan nusxa.

|                                   |   |
|-----------------------------------|---|
| <b>MIKROFILM-</b>                 | Kadrli mikrotasvirni o‘z ichiga olgan o‘ramli fotoplenka.   |
| <b>MIKROFILMLASH-</b>             | Mikrofilm olish maqsadida hujjatlarning fotosuratini tushirish.   |
| <b>MIKROFIL<br/>SELEKTORI-</b>    | Hujjatlarning mikronusxalarini izlashni mexanizatsiyalovchi yoki avtomatlash-tiruvchi qurilma.  |
| <b>MIKROAFISHA-</b>               | Hujjatlarning mikrotasvirlari tu-shirilgan kadrlar muayyan ketma-ketlikda joylashtirilgan to‘g‘ri to‘rburchakli fotoplenka ko‘rinishidagi axborot tashuvchi. Qarang: Mikroxarita. |
| <b>MIKRONUSXA-<br/>LAR FONDI-</b> | Kutubxona fondining bir necha bor kichraytirilgan (o‘nlab, yuzlab marta) bosma va qo‘lyozma matnlar, ilovalar, chizmalar, notalar va h.k. iborat bir qismi.                       |
| <b>MIKROFILMLAR<br/>FONDI-</b>    | Kutubxona fondining mikrofilmlardan iborat bir qismi. Ba’zan mikronusxalar fondining tarkibiga ham kiritiladi.  |
| <b>MIKROAFISHALAR<br/>FONDI-</b>  | Kutubxona fondining mikroafishalardan iborat bir qismi. Ba’zan mikronusxalar fondining tarkibiy qismiga ham kiritiladi.   |

**MIKROTASHUV-  
CHILARDAGI  
KUTUBXONA  
KATALOGI-**

Kutubxona kataloglarining shakllari mikrotashuvchilardan yoki mikrofilm-larda qilingan shakllaridan biri.

**MILLIY BIBLIO-  
GRAFIYA-**

Mamlakat miqyosida chiqgan hujjatlar-ning va ular haqidagi ma'lumotlarning barchasini qayd qilinishini ta'minlovchi umumiyl bibliografiya. Ba'zi bir hollarda bu tushunchaga milliy tillardagi hujjat-larni aks ettirish ham, milliy mualliflarga mansub hujjatlarni aks ettirish ham, milliy mualliflarga mansub hujjatlarni, mazmunan u yoki bu mamlakatga mansub biron-bir chet elda nashr etilgan hujjatlarni aks ettirish ham kiradi. Oxirgi ikki belgining yig'indisi "eksteritorika" tushunchasini tashkil etadi. Bu atama chet elda qo'llaniladi va turli mamlakatlarda turli mazmunda tushuniladi.

**MILLIY  
KUTUBXONA-**

Jamiyatga foyda keltirish yo'lida vatan va jahon kutubxona zahiralaridan samarali foydalananishni ta'minlovchi Bosh Davlat kutubxonasi. Bunday milliy kutubxona quyidagi vazifalarni bajaradi: mamlakat va jahon bosma asarlarini va boshqa hujjat-larni saqlovchi davlat (ombor) muassasasi sifatida hujjat va ular haqi-dagi ma'lumotni beradi, kutubxona xizmatini ko'rsatishning butun mamlakat tizimini rivojlantirishda yetakchi vazifani bajaradi: xalqaro kutubx-

ona ishlaridagi hamkorlikda o‘z davlati kutubxonalariga boshchilik qiladi.

**MINTAQAVIY  
KUTUBXONA -**

Ma’lum joy (respublika, viloyat, shahar chegarasining bir qismi) kutubxonalari uchun muvofiqlashtirilgan ilmiy-metodik markaz, shuningdek, KAA (MBA) markazi vazifasini o‘tovchi universal kutubxona.

**MIQDORIY XA-  
RAKTERISTIKA  
SOHASI -**

Hujjatning hajmi (sahifalar soni) o‘lchovi, ilova yoki boshqa materiallari bilan to‘ldirilganligi haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan bibliografik tasvir sohasi.

**MONANDLIK  
(pertinentlik)-**

Hujjat mazmunining axborot ehtiyojiga mosligi.

**MOSLIK  
(relevantlik) -**

Hujjat mazmunining axborot talabiga mutanosibligi.

**MONOGRAFIYA -**

Biron-bir mavzu yoki muammoning to‘liq va har tomonlama tadqiqidan iborat bo‘lgan, bir yoki bir necha muallif tomonidan yozilgan kitob yoki risola tarzidagi ilmiy asar.

**MONOGRAFIK-  
BIBLIOGRAFIK  
TASVIR -**

Bir jildlik nashrning to‘laligicha, shuningdek, ko‘p jildlik yoki seriyali nashrning alohida jildli bibliografik tasviri. Bir qismdan tashkil topadi.

## MOSLASHTIRILGAN NASHR -

Bosilayotgan asar matnining bu asarni to‘liq hajmda o‘zlashtirishga yetarlicha tayyorgarligi bo‘lmagan kitobxon (masalan: chet tilini o‘rgana boshlaganni imkoniyatlariga moslashtirilgan qisqartirilgan) nashri.

## MUALLIF-

Asarni yaratgan yoki uni yaratishda ishtirok etgan shaxs, shuningdek, hujjatni o‘z nomidan nashr qilgan muassasa yoki tashkilot nomi.

## MUALLIFLIK BELGISI-

Hujjatlarni alfavit tartibda joylashtirish uchun qo‘llaniladigan muallif ismi-nasabi yoki hujjat sarlavhasidagi birinchi so‘zning shartli belgisi. Mualliflik belgisi muallif ismining yoki hujjat sarlavhasining birinchi harfini va mualliflik jadvali asosida aniqlanadigan raqamini o‘z ichiga oladi.

## MUALLIFLIK JADVALI -

11 dan 99 gacha (ikki xonali) yoki 111 dan 999 gacha (uch xonali) bo‘lgan arab raqamlari orqali tartib bilan raqamlangan keng tarqalgan bosh harf birikmlarini alfavit tartibdagi ro‘yxati. Xorijiy davlatlar tillari uchun tuzilgan mualliflik jadvallari shu tillarning yozuviga muvofiq keladi. Mualliflik jadvallari (MJ) mualliflik belgisini aniqlashga mo‘ljallangan.

**MUALLIFLIK****JAMOASI -**

Nashrli asarni yozish (hujjat tuzishda) mualliflik sifatida ishtirok etgan shaxslar jamoasi.

**MUALLIFLIK****TABOG'I-**

O'zbekistonda 40 ming bosma harfga, she'riy matnning 700 satriga yoki bosilgan grafik material (ilova, xarita va shukabilarning) 3000 sm sathiga teng bo'lgan adabiy asarning hajm birligi.

**MUALLIFLIK****YORDAMCHI KO'R-****SATGICHI-**

Bibliografik qo'llanmada o'z ifodasini topgan va hujjatlarning mualliflari va tuzuvchilarining alfavitli asosida berilgan ro'yxatidan iborat yordamchi ko'rsatgich.

**MUTAXASSIS****SOATI-**

Aniq bir mutaxassislik bo'yicha so'nggi yillarda chop etilgan adabiyotni ochiq ko'zdan kechirishni uyushtirishga qaratilgan kompleks tadbir bo'lib, bibliografik obzor, leksiya, kutubxona bo'ylab ekskursiyalar bilan qo'shib olib boriladi. O'tkazish vaqtini davomligiga qarab turli nomlarga ega: mutaxassis dekadasi, mutaxassis haftasi.

**MUALLIF VA SAR-LAVHAGA TUZILGAN**  
**YORDAMCHI KO'R-**

**SATGICH-**

Bibliografik qo'llanmada o'z ifodasini topgan mualliflar, tuzuvchilar va hujjat sarlavhasining alfavit tartibidagi ro'yxatdan iborat yordamchi ko'rsatgich.

**MUALLIFLIK****HUQUQI-**

Adabiy, ilmiy va san'at asarlarining yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan huquq va majburiyatlarni tartibga soluvchi fuqarolik huquqining bir qismi.

**MUALLIFNING****YAKKA****SARLAVHASI-**

Hujjatni mustaqil yoki boshqa shaxslar bilan hamkorlikda yaratgan shaxs nomini saqlovchi sarlavha.

**MUASSASA****NASHRI-**

Muassasa (korxona, tashkilot) nomidan odatda shu muassasaning faoliyatini yorituvchi yoki muassasa ishlab chiqaradigan mahsulotni reklama qilish maqsadida chiqariladigan axborot, metodik, normativ, instruktiv nashr.

**MUASSASA****KUTUB-****XONALARI****TARMOG'I-**

Asosan vazirlik, korxonalar, ilmiy muassasalar, oliy o'quv yurtlari va h.k. xizmatchilarning kasbga oid talablarini qondirishga qaratilgan kutubxonalar tarmog'i.

**MUASSASALAR-****ARO MARKAZ-****LASHTIRISH -**

Manbalardan samarali foydalanish uchun bir butun kutubxonalar tarmog'ini tashkil etish maqsadida turli muassasa, idora

kutubxonalarining markazlashtirish qonun-qoidalari asosida birlashtirish. Muassasalararo markazlashtirilgan tizimlar ommaviy, davlat va kasaba uyushmasi kutubxonalari, bolalar va maktab kutubxonalari (ishlab chiqarish birlashmali doirasida) birlashtiriladi.

**MUASSASA  
UCHUN MAJ-  
BURIY NUSXA -**

Ma'lum muassasaga tegishli korxona yoki tashkilot tomonidan chiqarilgan nashr-ning respublika kitob palatasiga, shuningdek, markaziy kutubxonalarga jo'natilishi shart bo'lgan bepul nusxasi.

**MULOHAZALAR  
AXBOROT-  
NOMASI -**

Bir yoki bir nechta kitob haqidagi kitobxonalar mulohazalarining to'plami.

**MUNDARIJA-**

1. Nashr etilayotgan asarning har bir bo'lim (bob)ga tegishli sahifalarning ifoda tartibi bilan berilgan ro'yxati.
2. Nashr etilayotgan asarlar (to'plam, asarlar to'plami, jurnal va h.k.)ning yoki ularning sarlavhalari va mualliflar ismining, shuningdek, bo'lim (bob)lar sarlavhasining har bir asar yoki bo'lim boshlanadigan sahifa ko'rsatilgan ro'yxatidan iborat nashr apparatining bir qismi.

**MURAKKAB  
INDEKS-**

Tasniflashning asosiy jadvallari indeksi va bir yoki bir necha yordamchi jadval

indekslarining uyg‘unlashmasidan iborat tasniflash indeksi. Bu ma’noda “aralash indeks” atamasini qo’llab bo‘lmaydi.

**MURAKKAB PRED-  
METLI RUKN-**

Bir necha leksik birikmalardan iborat predmetli rubrika. Murakkab predmetli rukn bayoniy yoki ko‘p qismli bo‘lishi mumkin.

**MUSTAQIL  
O‘QISH-**

Xalq ta’limi tarmog‘idagi o‘quv yurtlari reja va dasturlari doirasiga kirmaydigan va shaxsning ijtimoiy hamda shaxsiy ehtiyojlarini qondirishda muntazam bilim olish faoliyati.

**MUSTAQIL O‘R-  
GANISH UCHUN  
QO‘LLANMA-**

Til, hunar yoki san’atni mustaqil o‘rganish uchun nashr qilingan o‘quv qo‘llanmasi.

**MUQOVA-**

Nashrning kitob varaqalari bilan farzatsiz biriktirilgan, qalin qog‘ozdan qilin-gan ba’zan yupqa tiniq, polimer qatlam bilan o‘ralgan qoplamasи.

**MUQOVALASH-**

Teri, mato, qog‘oz bilan qoplangan mustahkam karton yoki plastmassa qoplama, kitob bloki bilan farzats yordamida birlashtiriladi va blokni ifloslanishi va ishdan chiqishdan asrash, shuningdek, nashr haqida axborot berish uchun va badiiy bezak unsuri sifatida xizmat qiladigan nashriyot ishi.

## MUQOVA JILDI

Kitob yoki risolaning muqovasi ichiga buklab qo'yiladigan bir varaq qog'oz ko'rinishidagi yopishtirilmagan qo'shimcha muqovasi. Kitobning (risola) himoyalash, bezash va reklama-axborot vazifalarini o'taydi.

## MUQOBIL SARLAVHA-

Nashrning ikkinchi sarlavhasi bo'lib, birinchi sarlavha bilan (yoki) bog'lovchisi (yoki unga ma'nodosh bo'lgan boshqa bog'lovchi) vositasida bog'langan va asosiy sarlavhaning bir qismi hisoblangan sarlavha.

## MUQOBIL TASNI-FIY BO'LINISH-

Sistemalashtiruvchi tomonidan mavjud ikki yoki undan ortiq o'zaro nomuvofiq tasnifiy bo'linishlardan tanlab olinishi mumkin bo'lgan tasnifiy bo'linish. Muqobil tasnifiy bo'linishlar bir-biri bilan metodik ko'rsatkichlar orqali bog'lanadi.

## MUQADDIMA-

Asar asosiy matnining tarkibiy qismi - boshlang'ich bobি. Kitobxonning asarni asosiy matnnini o'zlashtirishga tayyorlash mazmuni bilan tanishtirish maqsadida ko'zda tutadi. Muqaddimadan qisqacha tarixiy ocherk, ta'rif turli qarashlar asarning adabiy manbalari yoki tadrijiy ma'lumotlar haqida ma'lumot, qo'yilgan mavzuning asoslanishi, asosiy terminologiya bo'yicha tushuntirish berishi mumkin.

|                        |   |
|------------------------|---|
| MUXTASAR<br>(qisqacha) |   |
| BAYON-                 | Asosiy matnning bosh g‘oyasi va xulosasidan (odatda boshqa xorijiy tildagi) iborat ilmiy nashrning unsuri.  |
| MUHARRIR-              | Nashrga tayyorlanayotgan asarni yoki kutubxona katalogini tahrir qiluvchi mutaxassis.   |
| MUHOFAZA<br>FONDI-     | Favqulodda bir davrda eng qimmatli bosma asarlar va boshqa hujjatlarni saqlab qolish maqsadida tayyorlangan mikrotashuvchilarga tushirilgan kutubxona fondining qismi.  |
| <b>- N -</b>           |   |
| NAMUNA<br>INDEKSI-     | KBTda tasniflashning yordamchi jadvallari indeksi.  |
| NAMUNA<br>KATALOGI-    | Ma’lum bir turdagি kutubxona fondini to’ldirishga yordam beriuвchi kitoblarning doimiy tavsiya ruhidagi ro‘yxati, ayni chog‘da sistemali katalogni tuzishda namuna vazifasini ham o’taydi. Namuna katalogi, shuningdek, bibliografik ma’lumot faoliyatida va o‘qishga rahbarlik qilishda ishlataladi. Markazlash-tirilgan kataloglashtirishning bir shakli. |

**NAMUNA BO‘LIN-MALARI -**

KBTda yordamchi tasniflash jadvallari ning bo‘linmalari. KBTning namuna bo‘linmalari majmuasi, o‘z ichiga umumiy namuna bo‘linmalarini (mavzuiy shakliy, hududiy, etnik) va maxsus bir bilim sohasiga xos tushunchalarni aks ettiruvchi namuna bo‘linmalarini oladi.

**NAMUNALI TAS-NIFIY BO‘LINISH-**

Kutubxona-bibliografik tasniflashning sistemali kataloglar (kartotekalar, ro‘yxatlar, ko‘rsatkichlar)ning jadvallarining bir xil ko‘rinishda tuzish uchun mo‘ljallangan, namuna asosida takrorlanadigan tushunchani ifodalovchi tasnifiy bo‘linish. Kutubxona-bibliografik tasnifning alohida tizimlarida namunali tasnifiy bo‘linishlari turlicha nomlanadi. Umumiylig darajasi va qo‘llanish doirasiga bog‘liq ravishda namunali tasnifiy bo‘linish quyidagi turlarga bo‘linadi: umumiy (barcha bilim sohalari bo‘yicha tasniflash jadvallarida qo‘llaniladi va maxsus) bir yoki o‘zaro yaqin bir qator sohalari bo‘yicha kutubxona-bibliografik tasnif doirasida qo‘llaniladi. Belgilangan vazifasiga ko‘ra namunali tasnifiy bo‘linish hududiy, davriy, etnik, til va boshqa bir turdagи namunali tushunchalarni aks ettiradi.

**NASHR-**

Poligrafik jihatdan mustaqil jihozlangan, nashrlik tahririyati ishlovidan o‘tgan, belgilangan, chiqish ma’lumotlariga ega

bo'lgan va o'zidagi mavjud axborotni uzatishga mo'ljallangan bosma asar.

**NASHRNING ANNOTATSIYALI MAVZU**

**REJASI -**

Nashriyotning bir yilga mo'ljallangan nashrlarning annotatsiyali ro'yxatidan iborat nashri.

**NASHR APPARATI**-Asosiy matnning to'ldirib keladigan, uni yaxshiroq tushunishga yordam

**NASHR BAHOSI-**

Kitob, risola, davriy yoki boshqa nashr bir nusxasining bahosi. Odatda chiqish ma'lumotlari qatorida va muqovaning orqa tomonidan (so'nggi) betida ko'rsatiladi.

**NASHRNI**

**BEZASH-**

1. Nashrni ichki va tashqi ko'rinishini tugal holatga keltirish, o'lchamni belgilash, shriftni tanlash ilovalarni tayyorlashni va h.k. o'z ichiga olgan ishlar.
2. Nashrning tarkibiy va tashqi ko'rinishi.

**NASHR**

**MUSAVVIRI-**

Nashrning badiiy bezagi loyihasini ishlab chiquvchi va bu bezakning eskizi, xomaki nusxasi)ni va asl nusxasini tayyorlovchi musavvir.

**NASHRGA**

**BERILGAN**

**KO'RSATGICH-**

Nashr ma'lumot apparatining bir qismi,

shu nashrga kiritilgan asarlarning tarkibi va mazmunini olib beradi. Quyidagilarga yordam beradi: a) shu nashrdan masalan, asarlar to‘plamidan alohida asarlarni izlash (asar sarlavhalaring alfavitli ro‘yxati), b) shu nashrga kiritilgan hujjatlar mazmunining turli jabhalarini chuqurroq anglash (predmetli, ismli, jug‘rofiy) va h.k.

**NASHRGA  
BERILGAN  
XRONOLOGIK  
KO‘RSATKICH-**

Mazkur nashrga kiritilgan hujjatlarning xronologik ro‘yxatini (yozilishi va nashr etilishi davri yilnomasini) o‘z ichiga olgan nashr ichidagi ko‘rsatgich.

**NASHRNING  
JO‘G‘ROFIY  
KO‘RSATGICHI-**

Nashrning asosiy matnida tasvirlangan yoki tilga olingan jo‘g‘rofiy manzillarning (obyektlarning) nomlaridan iborat nashr ko‘rsatgichi.

**NASHR JOYI -**

Hujjatni nashr etgan nashriyot yoki noshirning joylashgan joyi.

**NASHR JOYINING  
YORDAMCHI  
KO‘RSATGICHI-**

Bibliografik qo‘llanma o‘z ifodasini topgan hujjatlarning nashr etilgan joyini ko‘rsatuvchi jo‘g‘rofiy nomlarning alfavit tartibdagi ro‘yxatidan iborat yordamchi ko‘rsatkichi.

|   |  |
|---|--|
| <b>NASHR YILI-</b>                                | Hujjatning chiqarilgan yili bo‘lib, hujjatning o‘zida ko‘rsatilgan yoki matnni tahlil qilish yoki bibliografik izlanish va o‘zga manbalar asosida aniqlanadi.                                |
| <b>NASHRGA OID<br/>ALFAVITLI<br/>KO‘RSATGICH-</b> | Alfavit mezoniga asoslanib tashkil etilgan (tuzilgan) nashrqa oid ko‘rsatkich.   |
| <b>NASHR MA’LUMOT-<br/>LARI SOHASI-</b>           | Hujjatning nashr joyi, nashriyot yoki nashr etuvchi korxona, nashr yili hamda bosilishi haqida ma’lumotlarni o‘z ichiga bibliografik tasvir sohasi.  |
| <b>NASHRGA OID<br/>SISTEMALI<br/>KO‘RSATGICH-</b> | Ruknlari ma’lum bir tartibda joylashgan (masalan, bilim sohalari bo‘yicha) nashrning (masalan, ma’lum davr oralig‘idagi davriy yoki davomli nashr sonlarini) tarkibiy mazmunli ko‘rsatkichi. |
| <b>NASHRNING NODIR<br/>NUSXASI-</b>               | O‘zining alohida xususiyatlariga ko‘ra yagona bo‘lgan, adabiy, ilmiy, badiiy ahamiyatga ega nusxa (masalan, buyuk shaxsnинг dastxati bo‘lgan, muallif tuzatishlariga ega bo‘lgan va h.k.)    |
| <b>NASHR SOHASI -</b>                             | 1. Nashrning takroriyligi, mazkur nashrni boshqa o‘ziga o‘sha hujjat nashrlaridan farqlovchi o‘ziga xos xususiyatlari yoki boshqa nashrlar bilan o‘xshashligi                                |

haqida ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bibliografik tasvir sohasi.

2. Nashrning, hujjatning boshqa nashr-lar bilan bo'lgan munosabati (takroriyligi, o'xshashaligi yoki farqi, o'ziga xosligi) haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bibliografik tasvir sohasi.

**NASHRNING  
PREDMETLI  
KO'RSATGICHLI**

Tushunchalarning alfavit ro'yxatidan iborat bo'lgan ko'rsatkich. Unda shu tu-shuncha tilga olingan yoki uning maz-munini ochib bergen sahifalar ham ko'rsatiladi.

**NASHR  
O'LCHOVI-**

Millimetrlarda yoki qog'oz varag'i o'lchamida ko'rsatiladigan, nashr sahi-fa-sini kitob bloki chetlari qirqiladigan ke-yingi o'lchovlari. (uzunligi, eni)

**NASHR HAJMI-**

Qog'oz hajmi, bosma tabog'i (shartli, hisob) sahifa ustunlarida o'z ifodasini topgan nashrning son ta'rifi.

**NASHRNING  
CHIQISH  
MA'LUMOTLARI-**

Nashrni ta'riflovchi va uni bezash, kitobxonlarga axborot berish, bibliografik ishlash va statistik hisobot uchun mo'ljallangan ma'lumotlar majmuasi. O'z ichiga yaratishda ishtirok etgan shaxslar haqidagi ma'lumotlarni, sarlavhani, sarlavha ostidagi ma'lumotlarni, chiqish ma'lumotlarini, nashr haqidagi, nashri-

yot axboroti (annotatsiya)ni va h.k. ola-di. Sarvaraq, uning orqasi, so'nggi satr, muqova, supermuqovada joylashtiriladi.

#### NASHRNING CHOP

#### ETILISHI-

Nashrning nashriyotdan chiqarilishi. O'zbekiston kitob palatasi tomonidan ro'yxatga olinishi sanasi bilan belgilanadi.

#### NASHRNING

#### SHARTLI

#### NOMI-

Fond hajmini hisob qilish birligi: bir yoki bir necha jild yoki yagona to'liq bir komplektda nashr etilagn shartli nom.

#### NASHR ETISHGA

#### OID SO'NGGI

#### MA'LUMOTLAR-

O'z ichiga nashriyot nusxasini, harf terishga berilgan sanasi, nashrni bosishga qo'l qo'yish sanasi, qog'oz o'lchami, bosma tabog'i, hajmi va boshqa ishlab chiqarish va texnik-iqtisodiy ma'lumotlarni ol-gan va nashrning so'nggi qatoriga yoki sarvarag'ining orqasiga joylashtirilgan chiqish axborotining bir qismi.

#### NASHR

#### O'LCHAMI-

Nashrning balandligi (yoki qalinligi) ni santimetrlarda ko'rsatuvchi bibliografik tasvirning elementi.

#### NASHR QISMI-

Nashrning tartib raqami qo'yilgan va (yoki) alohida sarlavhasi bo'lgan yirik tarkibiy kompozitsion birligi. Alohida kitob sifatida chiqarilishi mumkin.

|                                |  |
|--------------------------------|--|
| NIZOM-                         | Biron-bir sohadagi faoliyatning tashkil etilishi va tartibini yo'nga soluvchi qoidalari majmuasi. M.: kutubxona Nizomi.  |
| NODAVRIY<br>NASHR-             | Bir marta chiqarilgan, qayta chiqarilishi oldindan belgilanmagan nashr. Nodavriy nashr sifatida kitoblar, risolalar, varaqlar, izonashrlar va h.k.   |
| NODIR KITOB-                   | <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Badiiy, ilmiy, bibliografik yoki boshqa qimmatga ega bo'lgan va kam nusxada saqlanib qolgan yoki nashr etilgan kitob.</li> <li>2. Nashrnинг boshqa nusxalaridan o'zining takrorlanmas xususiyatlari bilan farq qilib, turuvchi nusxasi. M.: qo'l bilan ishlov berilgan shaxsiy muallif qo'li bo'lgan, o'ziga xos muqovalangan va h.k.</li> </ol> |
| NUSXALASH-                     | Kutubxona fondidagi aynan bir nomli hujjat nusxalarining o'rtacha soni. Ummiy nusxalanish (fondning umumiyligi hajmini hujjat nomlari soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi) va sonini shu qismida saqlanadigan nomlar soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi, farqlanadi.  |
| NUSXA OLISH-                   | Hujjatlarni texnik vositalar yordamida, foto elektr va boshqa nusxa ko'chirish uskunalarini qo'llash orqali yangi nusxalarini olish jarayoni.  |
| NUSXA SURAT<br>(reproduksiya)- | Fotomexanik yoki boshqa nusxa ko'chirish yo'li bilan tushirilgan tasvir.   |

NUSXA NASHR-

Oldingi nashrlardan birining sahifalarini fotonusxa ko‘chirish yo‘li bilan matnni qayta termasdan bajarilgan qayta nashri.

NUQSONLI NUSXA-Poligrafik illatga ega bo‘lgan nashr nusxasi (tushib qolgan sahifalar, noto‘g‘ri yig‘ilgan varaqlar va sh.k.larga ega bo‘lgan) yoki foydalanish jarayonida yaroqsiz bo‘lib qolgan nusxa.

NURLI GAZETA-

Adabiyotni ko‘rgazmali targ‘ib qilish usuli-kitob mazmunini ochib berishga, kutubxona-bibliografik bilimlarni ommalashtirishga bag‘ishlangan bir necha o‘zaro bog‘liq, qisqa mazmunli sujetlar majmui, epidiaskop, filmoskop yoki ko‘chma kinomoslama yordamida namoyish etiladi.

## - O -

OBZOR-

Biron bir mavzu bo‘yicha ma’lum bir vaqt mobaynida chiqqan boshqa ilmiy hujjatlar asosiy mazmunining qisqa shaklidagi bayoni berilgan yoki ularning mazmuni umumlash-tirilib berilgan ilmiy asar.

OBZORLI NASHR-

Bir yoki bir necha obzorlarni bosib chiqargan axborot nashri.

OBUNA-

Davriy yoki obuna yo‘li bilan sotiladigan nashrlarni vaqtli matbuot tarqatish tashkilotlari, kutubxona kollektori va kitob do‘konlari, shuningdek, ayrim turdag'i nashrlarni bevosita chiqarayotgan nashriyotlardan olish huquqini rasmiy-

lashtirish, kutubxona fondini to‘ldirish yo‘llari.

|                                      |  |
|--------------------------------------|--|
| OBUNA NASHRI-                        | Oldindan obunaga yozilish yo‘li bilan, odatda kitob savdosi tarmoqlari orqali tarqatiladigan nashr.  |
| ODDIY PREDMETLI RUKN                 | Bir leksik birlikdan iborat predmetli rubrika. Bu ma’noda “predmetli rukn sarlavhasi” atamasini qo’llab bo‘lmaydi.   |
| ODDIY INDEKS-                        | Tasniflashning asosiy jadvallari indeksi.  |
| OVOZ CHIQARIB O‘QISH-                | Adabiyotni og‘zaki targ‘zib qilish usuli. Asar matnining ovoz chiqarib o‘qilishi, so‘ng o‘qigan notiq tomonidan tushuntirib berilishi va o‘qilgan matnning muhokama qilinishi. |
| OPAC (ONLINE PUBLIC ACCESS CATALOG)- | Jamoatchilik tomonidan foydalilaniladigan tezkor katalog. Elektron kutubxona kata-logidan qidiruv tizimi.  |
| OG‘ZAKI BIBLIOGRAFIK MA’LUMOT-       | Talabgorga og‘zaki tarzda yetkaziladigan bibliografik ma’lumot.  |
| OG‘ZAKI JURNAL-                      | Adabiyotni og‘zaki targ‘ib qilish shakli, mazmuni va tarkibi jihatdan bosma jurnalarga o‘xshash bo‘ladi.   |

|   |  |
|---|--|
| <b>OMMAVIY<br/>ADABIYOT-</b>                    | Kitobxonlarning keng ommasi uchun chiqarilgan asarlar majmui.  |
| <b>OMMAVIY<br/>RAVISHDA<br/>AXBOROT BERISH-</b> | Kutubxonaning barcha kitobxonlarini qamrab oluvchi kutubxona axborot faoliyati.  |
| <b>OMMAVIY ISHLAR</b>                           | Kitobxonlar va aholi orasida bosma asarlar va boshqa hujjatlarni og‘zaki va ko‘rgazmali targ‘ib qilish usullari va ko‘rinishlarining majmui.   |
| <b>OMMAVIY BIBLIO-<br/>GRAFIK AXBOROT</b>       | Yangi kelib tushgan kitoblarning kartotekasi yoki byulleteni, adabiyot yangilikla-rining ta‘rifi va h.k. yo‘llar bilan kutub-xonaning barcha kitobxonlariga axborot yetkazish.   |
| <b>OMMAVIY<br/>KUTUBXONA-</b>                   | Aholining keng qatlamlariga xizmat ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan va kitobxonlarning o‘qimishliligi darajasini oshirishga, aholining madaniy xordig‘ini ta‘minlashga qaratilgan kutubxona. Ommaviy kutubxonalar qatoriga shahar, tuman, qishloq, umum davlat tarmog‘idagi bolalar kutubxonalari, shuningdek, korxonalardagi madaniyat uylaridagi kasaba ushmasi kutubxonalari kiradi. Hozirgi paytda ommaviy kutubxonalar markazlashgan kutubxonalar tizimida birlashtirilgan. |

OMMAVIY

NASHR -

Keng kitobxonlar uchun mo‘ljallangan nashr.

OMONIMLAR

LUG‘ATI-

Bir xilda talaffuz qilinadigan, ammo ifodalanyotgan ma’nosи turlicha bo‘lgan ikki va undan ortiq so‘zlarni o‘z ichiga olgan lingvistik lug‘at, bunda so‘zlar grammatik, stilistik va tarixiy izohlar bilan qo‘sib berilishi mumkin.

ORIGINAL

NASHR-

1. Tarjima qilinmagan nashr, original nashr.  
2. Yangiligi, o‘ziga xos yangi mazmuni va bezagi bilan ajralib turuvchi nashr.

OCHIQ

KO‘RGAZMA-

Adabiyotlarni bevosita ko‘rish imkonini yaratilgan ko‘rgazma.

- P -

POLEOTIP-

XVI asr birinchi yarmidagi bosma nashr.

PARAGRAF-

Kitob, maqola, shuningdek, rasmiy hujjatlarda matndagi paragraf belgisi bilan ko‘rsatilgan, mustaqil ma’noga ega bo‘lgan kichik qism.

PARALLEL-

Hujjatning boshqa tildagi yoki boshqacha yozuvdagi (grafikadagi) asosiy sarlavhasi: hujjatning bir yoki bir nechta sarlavhasi bo‘lishi mumikn. Agar sarlavha gram-

matik jihatdan tasvirning boshqa qismi bilan bog'langan bo'lsa, bunday holda muvofiq sarlavha hisoblanmaydi.

## PARONIMLAR

### LUG'ATI-

O'xhash talaffuz etiladigan va shu tufayli nutq jarayonida aralashib ketadi-gan turlicha ma'nolarni ifodalaydigan bir o'zakli va turlicha o'zakli so'z guruhlarini (juftliklarni) o'z ichiga olgan lingvistik lug'at.

## PARADIGMATIK

**MUNOSABATLAR**- Asosiy ochqich so'zlar bilan deskriptorlar o'rtasidagi matndan tashqari munosabatlar.

## PAPIRUS

1. Misrda yozuv materiali tayyorlanadigan o'simlik.
2. Papirusdan tayyorlangan materialga yozilgan qadimgi qo'lyozma.

## PERFOKARTA-

Yupqa karton, qalin qog'oz yoki plast-massadan qilingan to'g'ri to'rtburchakli kartochka shaklidagi unifikatsiyalash-tirilgan (yagona shaklga keltirilgan) axborot tashuvchi, tegishli qismini qirqish yordamida axborot yozish (perfolatsiya qilish) uchun mo'ljallangan bo'ladi.

## PERFOTASMA-

Tasma (odatda qog'oz) ko'rinishidagi unifikatsiyalangan axborot tashuvchi, axborot ma'lum kod shakllarida teshish yordamida yoziladi.

**PREDMETLASH-TIRISH -**

Hujjat uchun uning mazmuniga muvofiqlashtirilgan predmet rukn belgilash.

**PREFORATOR-**

Perfekartalarga va perfotasmalarga te-shish yordamida axborot yozish uchun mo'ljallangan qurilma.

**PREDMETLASH-TIRUVCHI-**

Predmetli ruknlarning tilini ishlab chiqish, hujjatlarni predmetlashtirish, predmetli katalogni (ro'yxatni, ko'rsatgichni) tuzish, uyushtirish va tahrir qilish bilan shug'ullanuvchi mutaxassis.

**PREDMETLI KATALOG-**

Bibliografik qaydlari predmetli ruknlarning alfaviti tartibida joylashtirilgan kutubxona katalogi.

**PREDMETLI KATA-  
LOGNING ISHCHI  
KARTOTEKASI-**

Ma'lum bir predmetli katalog tarkibini aks ettiruvchi, predmetli rukn va ko'rsatgichlarda alfavit tartibda joylash-tirilgan kartoteka. Bu ma'noda "predmetli katalog kaliti" atamasini qo'llab bo'lmaydi.

**PREDMETLI KATA-  
LOGNING HAVOLA-  
MA'LUMOT APPA-  
RATI-**

Predmetli ruknlar o'rtasidagi aloqa va nomutanosibliklarni aniqlovchi ko'rsatmalar majmuasi.

**PREDMETLI-BIBLIOGRAFIK QO'LLANMA-**

Bibliografik qaydlar alfavit tarzda joylashtirilgan va predmetli ruknlar bo'yicha keltirilgan bibliografik qo'llanma.

**PREDMETLI SARLAVHA-**

Predmetli katalogda tarkibiy-tashkiliy vazifani bajaruvchi, predmet ruknini saqlovchi sarlavha.

**PREDMETLI-YORDAMCHI KO'RSATGICH-**

Bibliografik qo'llanmaga kiritilgan hujatlarning mazmunini ochib beruvchi, predmetli rubrikalarning alfavit tarzida berilgan ro'yxati ko'rinishidagi yordamchi ko'rsatkich.

**PREDMETLI TASNIF-**

Yirik ingliz kutubxonashunosi Jeyms Daff Braun (1862-1914) tomonidan ishlab chiqilgan kutubxona-bibliografik tasnifining kombinatsion tizimi.

**PREDMETLI RUKN-LAR RO'YXATI-**

Predmetli rukn bilan predmetli katalogning havola-ma'lumot apparati birligi.

**PREDMETLI RUKN-**

Hujjatda tahlil etilayotgan predmetning (ma'lumot, voqeа-hodisa, fikr, nuqtanazar va h.k.) qisqacha ifodasi.

## PREDMETLI RUKN

### SARLAVHASI-

Ko‘p tarkibli predmetli ruknning keyin-gilaridan ayirish belgisi bilan ajratib beriladigan birinchi unsuri.

## PREDMETLI RUKN-

### NING BOSH SO‘ZI-

Predmetli bo‘limning predmetli katalog-da joylashgan o‘rnini belgilovchi so‘zi.

## PREDMETLI RUKN-

### NING ICHKI

### SARLAVHASI-

Ko‘p qismli predmetli ruknning ikkinchi va keyingi har bir unsuri, boshqalaridan ayiruvchi belgi bilan ajratiladi. Predmetli ruknning qo‘sishimcha sarlavhalari maz-muniga qarab mavzuli, geografik, xronologik va formal bo‘lishi mumkin. Umumiylilik darajasi va qo‘llanilishi doirasiga qarab esa umumiy va xususiy bo‘ladi.

## PREDMETLI RUKN-

### LARNING TOR MAJ-

### MUASI -

Bir predmet haqidagi predmetli ruknlar, predmetli katalog (ro‘yxat, ko‘rsatkich) ni bir joyda to‘playdigan predmet ruknlari majmuasi.

## PRAKTIKUM-

Bilimlarni tekshirish va o‘tilganlarni o‘zlashtirib mustahkamlashga yordam beruvchi amaliy topshiriq va mashqlarni o‘z ichiga olgan o‘quv nashri.

## PROSPEKT-

1. Ishlab chiqarishga, sotishga yoki namoyishli etishga mo‘ljallangan predmetlarni

ing sistemali ro‘yxatini (bir predmet tasvirini) o‘z ichiga olgan ma’lumotnoma yoki reklama nashri. Bu ma’noda “Katalog”, “Katalog-prospekt” atamalarini qo’llab bo‘lmaydi.

2. Muallif yoki nashriyot tomonidan bo‘lajak nashrning mazmuni va shakliga beriladigan tavsifnoma.

|               |   |
|---------------|---|
| PREYSKURANT-  | Mahsulot materiallari, ularning turi va navi sistemalashtirilgan ro‘yxatini (ba’zan xususiyatlarning qisqachi bayoni bilan) har birining bayoni ko‘rsatgan holda o‘z ichiga olgan me’yoriy ishlab-chiqarish va ma’lumot nashri. Bu ma’noda “Narx ko‘rsatkichi” atamasini qo’llab bo‘lmaydi. |
| PREPRINT-     | Nashr e’lon qilinmasidan avval uning tarkibida keyinchalik beriladigan materiallarni olidndan o‘z ichiga kiritgan ilmiy nashr.  |
| POLIGRAFIYA-  | Bosma mahsulotni ko‘paytirib berish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan texnika sohasi.  |
| PUBLIKATSIYA- | <ol style="list-style-type: none"><li>1. Bosib chiqarilgan badiiy asar.</li><li>2. Matbuot va boshqa axborot vositalari orqali asarni ommaga yetkazish.</li></ol>   |
| PULLI NASHR-  | Belgilangan bahosi bo‘lgan va savdosi orqali tarqatilgan nashr.   |
| PLAKAT-       | Bir yoki bir necha varaqa bosma material ko‘rinishida old sahifada bosilgan,  |

namoyish etish uchun mo‘ljallangan va-raqali nashr.

- Q -

**QAVATLI FOND  
SAQLANADIGAN  
JOY (yarusli) -**

Odam bo‘yidan bir oz baland (odatda 2,2 metr) bir-birini ustida joylashtirilgan qa-vatlar ko‘rinishidagi metall tokchali va metall panjara tokchali kitob saqlanadi-gan joy.

**QAYTARISH  
(rad etish)-**

Fondda umuman yoki talab qilinadigan paytda yo‘qligi tufayli kitobxonaga huj-jatni berishning iloji yo‘qligini bildiruvchi tushuntiruvchi javob.

**QAYTA YOZILMAYDI-  
GAN KOMPAKT  
DISK-**

Matli, grafik, tovushli va turli axborot-larni saqlashga mo‘ljallangan optik disk. U ma’lumotnama materiallari, bibliografiq ma’lumotlar bazasi va taqsimlangan dasturiy ta’minotni saqlash vositasi hisoblanadi.

**QAYTA ISHLANGAN  
NASHR-**

Avvalgi nashrdan farqli o‘laroq ozmi-ko‘pmi jiddiy o‘zgarishlar kiritilgan qay-ta nashr.

**QAYTA KO‘RIL-  
GAN NASHR-**

Yangi voqealar bilan yangi ma’lumotlar

paydo bo‘lganligi bilan h.k. bog‘liq ayrim o‘rinlari o‘zgartirilgan, qayta ko‘rib chigilgan hujjatning qayta nashri.

#### **QAYTARISH MUD-DATI VARAG‘I-**

Bosma asarlar qaytarilishi kerak bo‘lgan vaqtib belgilab qo‘yilgan va kitobxonning ro‘yxat raqami qayd etilgan varaq. Kitobxonga hujjatni kutubxonaga o‘z vaqtida qaytarish lozimligini eslatishga, kitobxon formulyarini izla topishga, shuningdek, fondning ishlatalishini o‘rganishga xizmat qiladi.

#### **QAYTA NASHR-**

Oldingi nashrlardan hech bo‘lmaganda tipografik buyurtma nomeri bilan yoki asosiy matniga, bezalishiga kiritilgan o‘zgartirishlar, qo‘sishmchalar bilan farq qilinadigan yangi nashr. Qarang: takror nashr.

#### **QAYTA SISTEMA-LASHTIRISH-**

Sistemali katalogni kutubxona bibliografik tasnifining boshqa jadvallariga o‘tkazish. Bu ma’noda “qayta tasniflash” termini qo’llash tavsiya etiladi.

#### **QIROATXONA-**

Kitobxonlarga bosma asarlarni ya boshqa hujjatlarni shu yerning o‘zida tanishib chiqish uchun berishga mo‘ljallangan, maxsus jihozlangan xona.

#### **QISQARTMALAR LUG‘ATI-**

Tez-tez uchrab turadigan so‘z birikmalarining yozma nutqda qo‘llaniladigan shart-

li qisqartmalarini o‘z ichiga olgan lug‘at, bunda ularning ma’nosini ochib beriladi.

**QISQARTMALAR  
RO‘YXATI-**

Shu nashr uchun qabul qilingan qisqartmalarini o‘z ichiga olgan va bir yo‘la ularning ma’nosini ochib beruvchi nashr apparatining bir qismi.

**QISQA BIBLIO-  
GRAFIK TASVIR-**

Hujjatni identifikatsiya qilish uchun zarur bo‘lgan faqat majburiy elementlarni o‘z ichiga olgan bibliografik tasvir

**QISHLOQ  
XO‘JALIK  
KUTUBXONASI-**

Qishloq xo‘jaligi sohasidagi xodimlarga xizmat qiluvchi kutubxona. (shu kutubxona joylashgan qishloq xo‘jaligi ITI) (ilmiy tekshirish ilmgohi), tariba maydonchalari (bo‘limlari) oliy o‘quv yurtlari xodimlari O‘z ishini universal, ilmiy kutubxonalar bilan muvofiqlashtirib, qishloq xo‘jaligi kutubxonalari qishloq xo‘jaligi sohasidagi olim va mutaxassislariga xizmat ko‘rsatadi.

**QISHLOQ XO‘JALIGI  
KUTUBXONASI-**

Qishloq xo‘jaligi (qishloq xo‘jaligi ITI, tajriba yerlari, oliy o‘quv yurtlari) xodimlariiga xizmat ko‘rsatuvchi kutubxona. Qishloq xo‘jaligi kutubxonalari bilan muvofiqlashtirilgan holda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi sohasidagi olim va mutaxassislariga xizmat ko‘rsatadi.

Toshkent Davlat Agrar Universitetining kutubxonasi respublikadagi yirik qishloq xo‘jaligi kutubxonasi hisoblanadi.

**QOMUSIY LUG‘AT-** Alfavitli yoki sistemali tartibda joylash-tirilgan qisqacha maqola shaklida bayon etilgan, bir yoki barcha bilim va amaliy faoliyat sohalari bo‘yicha umumlashtirib berilgan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan bir yoki ko‘p jildlik ma’lumot nashri.

### **QORISHMA**

**INDEKSATSIYA -** Tasniflash indeksatsiyalarining turli mu-tanosibliklarida harf va raqamlar bilan (matematik punktatsion va boshqa belgilari bilan bir qatorda) qo‘sib ifodalash.

### **QUYMA NAQSH-**

1. O‘ymakorlik yo‘li bilan qilingan bosma qolipda bosilgan nusxa.
2. Grafika san’atining turi. Qoliplarga qo‘l ishlovi berish va ulardan bosma nusxa ko‘chirish jarayonidan iborat.

### **QO‘LYOZMA-**

1. Qo‘lda yozilgan yozuv asari.
2. Nashriyotga bosish uchun berilgan asarni qo‘lda yoki mashinkada bosib yozilganligidan qat’iy nazar qayd etish formasining shartli nomi.

### **QO‘LYOZMA**

### **KITOB-**

Kutubxona fondining qo‘lyozma kitob-laridan, arxivlardan, muallif qo‘li bilan yozilgan nusxa kollektsiyalaridan va boshqa qo‘lyozma (mashinkada bosilgan) materiallardan iborat bir qismi.

|                                |  |
|--------------------------------|--|
| QO'SH BET-                     | Nashrning bir-biriga tutash (chap va o'ng yoki juft va toq) ikki qo'sh betlari.  |
| QO'SH TITUL-                   | Nashrning boshidan to'rt sahifalik titul varag'i, avantitul, kontrtitul, titul sahifasi va titul varag'ining orqasidan tashkil topadi. Kontrtitulda ko'p jildli yoki seriyali nashr haqida umumiy ma'lumotlar joylashtiriladi. |
| QO'SHIMCHA SERIYA-             | Vazifasi seriyaga nisbatan tor yoki seriya mundarijasini mazmuni va sarlavhasi bilan to'ldirishga qaratilgan seriya qismi.   |
| QO'SHIMCHA BIBLIO-             |  |
| GRAFIK YOZUV-                  | Asosiy bibliografik yozuvning boshlang'ich harflaridan farq qiladigan (qo'shimcha izlanish belgisi orqali) izlash va nashrni identifikatsiyalash birday qilishni ta'minlovchi yozuv.   |
| QO'SHIMCHA BIBLIOGRAFIK YOZUV- |  |
| LAR HAQIDA MA'                 |  |
| LUMOTNOMA-                     | Asosiy bibliografik yozuvning boshlang'ich harflaridan farq qiladigan (qo'shimcha izlanish belgisi orqali) izlash va nashrni identifikatsiyalashni birday qilishni ta'minlovchi yozuv.   |
| QO'SHIMCHA INDEKS-             | Ko'p qayta akslantirishda to'liq indeks tarkibiga kiruvchi, tegishli hujjat  |

qo'shimcha akslanadigan sistemali kata-  
logging bo'linishini ko'rsatuvchi ik-  
kinchi va undan keyingi har bir  
tasniflash indeksi.

**QO'SHIMCHA  
KARTOTEKA-**

Qo'shimcha bibliografik yozuviga ega  
bo'lgan alfavit katalogi kartotekasi.

**QO'SHIMCHA  
KOMPLEKTLASH-**

Fondni yetishmaydigan yoki yetarli bo'l-  
magan yangi hujjatlar bilan to'ldirishdan  
iborat kundalik kompletlash turi.

**QO'SHIMCHA SAR-  
VARAQ-**

Matn yoki taviriyl unsuri sarvaraql ichki  
betining chap sahifasidan boshlanib,  
takrorlanmay o'ng sahifaga o'tadigan  
sarvaraql.

**- R -**

**RASMIY NASHR-**

Davlat yoki jamoat tashkilotlari, muas-  
sassalar nomidan e'lon qilinadigan qonun-  
lashtiruvechi (qonun tuzuvchi) normativ  
yoki ko'rsatma mazmunidagi ma'lumot-  
larning nashri.

**RASMIY  
MA'LUMOTNOMA  
RO'YXATI-**

Katalogda ishlataladigan maxsus belgi-  
langan va me'yoriy tan olingan rasmiy  
sarlavhalar ro'yxati (shaxs nomi,  
tashkilot nomi, anonim asarlar sarlavha-  
si, predmet ruknlari, deskriptorlar)

**RAQAMLASH-**

1. Sahifa (bet), son yoki alohida unsurlarning (matn qismlari, jadvallar, ilovalar va h.k.) tartibini ko'rsatib raqam bilan belgilash.

2. Bosma asarlar sahifalarni (alohida varaqa xarita, ilova va h.k.) hisobiga olgan holda raqam bilan belgilash.

**RAQAM KATALOG**-Bibliografik qaydlar normativ-texnik va texnik hujjatlarning tartib raqami bilan joylashtirilgan kutubxona katalogi.

**RAQAMLI YORDAMCHI****KO'RSATKICH-**

Raqamlash tizimiga muvofiq bibliografik qo'llanmada foydalangan hujjatlar uchun qabul qilingan raqamlar ro'yxatidan iborat yordamchi ko'rsatkich.

**RAQAMLASH-****TIRISH SOHASI-**

Nashrning birinchi va oxirgi chiqqan sонлари, asos solingan va tugatilgan vaqtি, shuningdek, nashr etish davridagi uzilishlar, raqamlashtirishdan ma'lumotlarни o'z ichiga olgan bibliografik tasvir sohasи.

**RAQAMLANGAN****SAHIFA-**

Nashrning umumiy raqamlanishi doirasidagi bo'lgan sahifalar.

**REJA KO'RSAT-****KICHLARI -**

Rejalashtirilgan davrda alohida kutubxona yoki kutubxonachilik ishi faoliyatini rivojlantirishga oid vazifalarning miqdor ko'rsatkichlari. Rejalashtirilgan

jarayonning barcha tomonlarini o‘zida aks ettiradi. Kutubxona zahirasining hajmi va joylashishi, kutubxona xizmatini natijalari va h.k. Odatda reja ko‘rsatkichlari son ko‘rsatgichlariga zahiralarini yoki ish natijalarini belgilaydi va sifat ko‘rsatgichlariga (zahiralardan foydalanish samaradorligini, aholining kutubxonadan foydalanishga jalg etish va h.k.larni) belgilaydi.

## **RESPUBLIKA KUTUBXONASI-**

## **REKLAMA NASHRI-**

## **REPRODUKSIYA QILISH-**

## **RETPROSPEKTIV BIBLIOGRAFIYA-**

O‘lka ilmiy metodik markazi vazifasini bajaruvchi davlat ilmiy kutubxonasi.

Turli tadbirlar, nashrlarni, sanoat molalarini chiqarish, maishiy xizmat va sh.k. haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan, ixcham, diqqatni o‘ziga jalg qiladigan, esda qoladigan shaklda berilgan nashr. Bu ma’noda “Reklama” atamasini qo’llab bo‘lmaydi.

1. Texnik vositalar yordamida, foto elektr va boshqa nusxa ko‘chirish jihozlarini qo’llash yo‘li bilan hujjatlarning yangi nusxalarini olish jarayoni.

Qarang: Hujjatni ko‘paytirish.

2. Tasvirni fotomexanik yoki boshqa vositalar yordamida poligrafik yo‘l bilan nusxalash.

Ilgari muayyan bir davrda yaratilgan yoki

odatda xronologik tarixi ahamiyatliroq bo‘lgan hujjatlarning kelib tushishi oqimida hujjatlarga yo‘naltirilgan ta’minlovchi bibliografiya.

## REFERAT-

Asosiy faktik ma’lumotlarni va xulosa-larni saqlagan holda asosiy hujjat (yoki uning bir qismi)ning qisqartirilgan bayoni, diqqatni yangi ma’lumotlarga jalb etish va hujjatga murojaat etishning maqsadga muvofiqligini belgilaydi: birlamchi va ikkilamchi hujjatlarda (referativ jurnallarda, to‘plamlarda, axborot jadvallari va boshqalar) beriladi. Ikkilamchi hujjat-larda referat matnidan avval referat sarlavhasi va birlamchi hujjatning bibliografik tavsifi beriladi.

## REFERATLASH-TIRISH-

Referatlarni tuzish jarayoni.

## REFERATIV-BIBLIOGRAFIK QO‘LLANMA-

Barcha yoki ko‘pchilik bibliografik qaydlarni o‘z ichiga olgan referatlar kiritilgan bibliografik qo‘llanma.

## REFERATIV JURNAL (RJ)-

Ma’lum bir soha, predmet, muammo bo‘yicha nashrlarning referatlari sistemalashtirilgan tarzda berilgan va predmetlash, muallif va boshqa ko‘rsatkichlar bilan to‘ldirilgan jurnal.

## REFERATIV

### NASHR-

Asosiy qismini referatlar tashkil etgan axborot nashri.

### RISOLA-

Hajmi besh sahifadan kam va 48 sahifadan ko‘p bo‘lmagan matnli kitob nashri.

### ROTAPRINT-

Kichik formatdagi mashinalarda bosishing ofset uslubining keng tarqalgan nomi. Bunday mashinalarni ishlab chiqarilgan firmalarning nomidan kelib chiqqan. Nisbatan kichik tirajlarda (nusxa) hujjatlarni ko‘paytirishda qo‘llaniladi.

### RUKN (rubrika)-

1. Adabiy asarning o‘z sarlavhasiga ega bo‘lgan alohida qismi.
2. Adabiy asar matnining alohida qislari sarlavhasi. U mazmunli (so‘zlar bilan ifodalangan), shakliy-jo‘g‘rofiy belgili (harf, raqam, yulduzcha va h.k.) yoki “soqov” (matnda bo‘sh qoldirilgan joy) bo‘lishi mumkin.

### RUBRIKATOR

Ma’lumot-axborot fondini, axborot nashrlarini va axborot izlanishni tashkil etishga qaratilgan bosqichma-bosqich tasnif tarzidagi ruknlar lug‘ati.

## RO‘YXATGA OLISH

### BIBLIOGRAFIK

### QO‘LLANMASI-

Belgilangan doiradagi (xronologik, tipologik mavzuiy va h.k.) hujjatlarni iloji boricha to‘liq aks ettirgan bibliografik qo‘llanma.

## RO'YXATLI TASNIF

### TIZIMI-

Turkumlarga bo'lingan tushunchalarning ro'yxatidan iborat tasnif tizimi: bir tur-dagi tushunchalar alohida jadvallarga ajratilmagan va bir xil mazmundagi ruknlarni takrorlash yo'li bilan aks ettiriladi.

## - S -

### SARVARAQ

(titul varaq)-

Nashrning (kitob, risola, davomli nashr va h.k.) bosh varag'i, nashr haqidagi asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi va bibliografik tasvir tuzishda asosiy mamba hisoblanadi. Quyidagi turlar bor: ichki sarvaraq, qo'sh ichki sarvaraq, kontrtitul, asosiy sarvarq, parallel sarvaraq, avantitul va h.k.

### SARLAVHA-

Asarning qismi, bo'limi, bobি, paragraf yoki boshqa mavzuiy bo'linmasining nomlanishi

### SARLAVHA VA

### JAVOBGARLIK

### TO'G'RISIDAGI

### MA'LUMOTLAR

### SOHASI-

Hujjatni moslashtirish uchun zarur bo'lgan asosiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan bibliografik tasvir sohasi bo'lib, sarlavha va u bilan bog'liq ma'lumot-lardan, shuningdek, hujjatni yaratish va nashr etishda ishtirot etgan shaxs, korxona yoki tashkilot haqidagi ma'lumot-lardan iborat.

## SARLAVHA OSTI MA'LUMOTLARI-

Sarvaraqda berilgan sarlavha ostida joylashtirilgan nashrning chiqish ma'lumotlari unsuri: sarlavhaga aniqlik kiritishi, asarning janri va xarakteri haqidagi ma'lumot, nashrni tayyorlashda ishtirok etgan shaxslarning ismlari. Nashrning takroriyligi va h.k. o'z ichiga olgan chiqish ma'lumotlarning bir qismi.

## SARLAVHA USTI MA'LUMOTLARI-

Sarlavhadan oldin beriladigan odatda nashr etadigan tashkilot nomini, nashr seriyasi sarlavhasini, serianing chiqish raqamini, seriya muharririning ismi-nasabini, kichik seriya to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan chiqish ma'lumotlarining bir qismi.

## SARVARAQDAGI NASHR MA'LUMOT- LARI-

Chiqish ma'lumotining bir qismi, (nashr qilingan joyi, nashriyot yoki nashr qiluvchi tashkilot nomi va nashr yili). Sarvaraqning pastki qismida nomi joylashadi, sarvaraqsiz nashrlarda oxirgi sahifada yoki muqovada beriladi: qog'oz sahifali, izonashrlarda qog'oz sahifaning pastki o'rta qismidan beriladi.

## SAYYOH MA'LUMOT- NOMASI-

Jo'g'rofiy, tarixiy-badiiy va sh.k. ob'ekt (joy)larni aniqlash uchun yordam beradigan ma'lumotnomaga nashri.

|                                     |   |
|-------------------------------------|---|
| SATR-                               | Bir chiziqdan joylashgan so‘z, harf yoki boshqa belgilar (masalan: nota) qatori. Nashrda harf terishning tarkibiy qismi.  |
| SAHIFA(bet)-                        | Nashrdagi varaqning bir tomoni, naborda bir stunli sahifalash holatida raqamlangan alohida varaq.   |
| SAHIFA CHETI-                       | Bosilgan sahifa yoki grafik tasvirning atrofidagi bo‘sh, ochiq qolgan joylar.   |
| SERIAL<br>NASHRLAR                  | Davriy, davomli va seriyali nashrlarning majmui.  |
| SERIYA-                             | G‘oyasi, mavzusi, o‘taydigan vazifasining umumiyligi asosida birlashtirilgan, umumiy seriyali sarlavha ostida chiqadigan va odatda bezalishi bir xil bo‘lgan nashrlarning majmui. |
| SERIYA SOHASI-                      | Seriiali yoki ko‘p jildli asar tarzida chop etilgan hujjat to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan bibliografik tasvir sohasi.   |
| SERIYANING<br>ASOSIY<br>SARLAVHASI- | Hujjatga tasvir tuzilayotganda seriya bobida beriladigan, tarkibiga shu hujjat kirgan seriyali yoki ko‘p jildli nashrlarning sarlavhasi.  |
| SERIYALI NASHR-                     | <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Nodavriy nashr.</li> <li>2. Nodavriy seriya tarkibiga kiruvchi nashr.</li> </ol>  |

**SERIYALI  
NASHRLARNING  
XALQARO  
STANDART  
RAQAM (ISSN)-**

Seriiali nashrlarni moslashtirish maqsadida kodlash (shartli belgi bilan ifodalash) uchun mo'ljallangan, ro'yxatlash mazmundagi harfli-raqamli (shartli belgi): ISSN - qisqartma so'z bo'lib, odatda sakkizta raqamni o'z ichiga oladi. ISSN-ning xalqaro va milliy vakolatxonalarini tomonidan yagona metodik asosda seriiali nashrning asosiy (ochqich) sarlavhasiga beriladi va har bir navbatdagi soni, jildli chiqarilishida yozib qo'yiladi.

**SIGLA-**

Kutubxonaning yig'ma kataloglarida, bibliografik ko'rsatkichlarida ishlatiladigan va izlash manzilini yoki kutubxonalararo axborot izlash tarmoqlari tizimidagi hujjatlarning joylashgan yerini ko'rsatuvchi shartli qisqa bayoni.

**SISTEMALASH-  
TIRISH-**

Ma'lum bir kutubxona-bibliografik tasniflash tizimi asosida bosma asar yoki boshqa hujjatning uning mazmuniga ko'ra tasniflash indeksini aniqlash. Bu atama ko'p ma'noli "Tasniflash", "Tasniflash tirish" atamalarining o'rniga kiritilgan.

**SISTEMALASH-  
TIRUVCHI-**

Hujjatlarni sistemalashtirishni amalgao shiruvchi, sistemali katalog va alfavit-

predmetli ko'rsatgichni tashkil etuvchi, olib boruvchi va tahrir qiluvchi mutaxassis.

## SISTEMALI KATALOG (SK)-

Bibliografik qaydlari ma'lum bir kutubxona-bibliografik tasniflash tizimi asosidagi bilim sohalari bo'yicha joylashtirilgan kutubxona katalogi.

## SISTEMALI KATLOGNING ASOSIY KARTOCHKASI-

Sistemali katalogdagi o'rnini asosiy indeks yordamida aniqlanadigan to'liq indeksni o'z ichiga olgan katalog kartochkasi.

## SISTEMALI- KATLOGNING ALFAVIT-PRED- METLI KO'RSAT- KICHI (APK) -

Sistemali katalogda o'z ifodasini topgan bosma asarlar va boshqa hujjatlarning mazmunini ularga mos tasnifiy shartli belgilarni ko'rsatgan holda ochib beruvchi predmetli ruknlarning alfavitli ro'yxati-dan iborat bo'lgan sistemali katalogning yordamchi apparati. Bu ma'noda "Sistemali katalog kaliti" atamasini qo'llab bo'lmaydi.

## SISTEMALI-BIB- LIOGRAFIK QO'LLANMA-

Bibliografik qaydlari ma'lum tasniflash tizimi asosida mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirilgan bibliografik qo'llanma.

|  |  |
|--|--|
| SISTEMALI<br>YORDAMCHI<br>KO'RSATKICH-   | Biron-bir tasniflash tizimi bo'linmalari-ning ro'yxatidan iborat yordamchi ko'rsatkich.  |
| SISTEMALASH-<br>TIRISH (predmet-<br>lashtirish)da<br>TAKRORIY AKS<br>ETTIRISH- | Sistemalashtirish (predmetlashtirish)da ob'ekti sistemali (predmetli) katalogning ikki va undan ortiq bo'linmalarida ifodalanuvchi sitemalash (predmetlashtirish). Bunga muvofiq tarzda katalog kartochkalar zaruriy miqdorda tuziladi. Bu ma'noda "Takroriy aks ettirish", "Takrorlash" atamalarini qo'llash tavsiya etilmaydi. |
| SISTEMALI KATA-<br>LOGNING QO'-<br>SHIMCHA<br>KARTOCHKASI-                     | O'rni qo'shimcha indeks bilan belgilanadigan sistemali katalogning kartochkasi.  |
| SIGNATURA-   | Nashr bosma tabog'ining tartib nomeri, kitob blokining birinchi betining pastki qismida joylashtiriladi.   |
| SIGNAL NUSXA-  | Nashrni tayyorlash va chiqarish uchun namuna sifatida tasdiqlatish maqsadida poligrafik muassasa tomonidan nashriyotga taqdim etiladigan nashrlarning dastlabki nusxalaridan biri.   |

**SIGNAL BIBLIO-  
GRAFIK  
QO'LLANMA-**

Barcha yoki ko'pchilik bibliografik qayd-larda bibliografik tasvir holida berilgan oddiy bibliografik qo'llanma.

**SINOV NASHRI-**

To'la nusxada bosishdan oldin, muhokama qilish, fikrlarni toplash va o'zgartirishlar kiritish maqsadida kichik nusxa bilan chiqarilgan nashr. (odatda juda mas'uliyatli nashrlar).

**SINONIMLAR**

**LUG'ATI-**

Asosiy ma'nosi yaqin bo'lgan, lekin nozik ma'no qirralari yoki stillistik bo'yog'i bilan farqlanadigan morfema, so'z, sintaktik qurilma, frazeologik birliklarni o'z ichiga olgan lingvistik lug'at.

**SINTAGMATIK**

**MUNOSABATLAR-**

Hujjatning izlanish obrazidagi yoki izlanish ko'rsatmasidagi ochqich so'zlar yoki desreptorlar o'rtaidagi matniy munosabatlar.

**SIRTDAN KOMP-**

**LEKTLASH-**

Adabiyotni kutubxona kollektori avvaldan ko'zdan kechirib tanlamasidan buyurtmalarga asoslangan komplektlash. Bunday komplektlash kutubxonaning tasdiqlangan sohaga asosan kutubxona kollektori, soha markaziy kutubxonasi, MKTning markaziy kutubxonasi tomonidan amalga oshiriladi.

**SODDALASHGAN****ISHLOV-**

Ishlovnii qulaylashtirish va tezlashtirish, hamda kataloglar bilan ishlashtirish maqsadida ayrim turdag'i hujjatlarni (qayta nashrlar, seriyali nashrlarni va h.k.) kataloglarda aks ettirishni soddalashtirishga yordam beruvchi kutubxona ishlovingin usuli.

**SOHA****ABONEMENTI-**

Kitobxonlar bilan olib boriladigan ishning ma'lum bir qismiga javobgar bo'lgan va sohaga oid adabiyot bo'yicha ixtisos-lashgan kutubxonachilar o'rtasida taqsimlanadigan abonnement. Bunda kitobxonlarga malakali yordam berish imkoniyati yaratiladi.

**SOHA****KUTUBXONASI**

Ilm-fan, madaniyat va xalq xo'jaligining ma'lum bir sohasi kutubxonasi (ilmiy, texnik, tibbiy, qishloq xo'jalik va b.) bo'lib, shu soha mutaxassislari va olimlariga xizmat qiladi.

**SOHA BIBLIO-****GRAFIYASI-**

Mazmunan ma'lum bir bilim va amaliy faoliyat sohasiga tegishli hujjatlar bilan aloqador bo'lgan bibliografiya.

**SOHAGA OID BIB-****LIOGRAFIK QO'L-****LANMA-**

Bilim va amaliy faoliyatning ma'lum bir sohasiga tegishli hujjatlarni aks ettiruvchi bibliografik qo'llanma.

**SOHA FONDI-**

Ilmning ma'lum sohasiga oid hujjat-lardan iborat kutubxona fondi.

**SUPER EKSLIB-RIS-**

Nashrning egasini ko'rsatish maqsadida nashrning qoplamasi yoki muqovasining ustki qismida berilgan belgi.

**STANDART-**

Standartlash obyektiga nisbatan quyidagi me'yor, qoida, talablar majmuasini belgilovchi va tegishli tashkilot tomonidan tasdiqlangan standartlash bo'yicha normativ-texnik hujjat. Bizda standartlar, sohaviy standartlar va muassasa standartlarga bo'linadi.

**SO'Z BOSHI-**

Asarning maqsadi va xususiyatlari va h.k. haqida ma'lumot beruvchi, asosiy matndan avval beriladigan nashr apparatining unsuri. Muallifga, nashriyotga, muharrirga, tarjimonga tegishli bo'lishi mumkin.

**SO'ZLASHUV  
KITOBI  
(lug'at)-**

Chet tilida muomala qilish uchun ikki va undan ortiq tildagi so'z va faol ishlataladigan jumlalarni o'z ichiga olgan sodda qo'llanma.

**SO'Z YASALISH  
LUG'ATI-**

So'zlarning yasalish tarkibini (odatda ko'p qo'llaniladiganlarini) ochib beruvchi lingvistik lug'at.

- T -

TABAQALASHTI-  
RILGAN KUTUB-  
XONA XIZMATI-

Asosiy kitobxon guruuhlarining talab va ruhiyatini hisobga olgan holda kitobxon-larga xizmat ko'rsatish, bosma asarlarni barakaliroq ishlatish maqsadida ma'lum sharoit yaratish va xizmatning turli us-ullarini qo'llashda namoyon bo'ladi.

TAVSIYANOMA-  
NING ANNO-  
TATSIYASI-

Hujjatni shu axborot iste'molchilarining qiziqishlari, tayyorgarlik darajasi, yoshi va boshqa xususiyatlarini e'tiborga olgan holda xarakterlovchi va baholovchi annotatsiya.

TAVSIYA BIBLIO-  
GRAFIYASI -

Mehnatkashlarni umumiyligi va kasb-hunaraga oid ma'lumotlarni oshirishga, ularni tarbiyalashga va bilimlarni targ'ib qilishga yordam beruvchi mahsus bibliografiya.

TAVSIYA BIBLIO-  
GRAFIK  
QO'LLANMA-

Umumiyligi hunar va ta'limni, mustaqil ta'lim, bilimlarni targ'ib qilishga, yordam berishga mo'ljalangan. Hamda turli kitobxon guruuhlarining tayyorgarlik darajasi va o'qish maqsadlarini hisobga olgan maxsus bibliografik qo'llanma.

TAVSIYA PRED-  
MET RUKNI-

Murakkab predmetli rubrika bo'lib, unda

leksik birliklar kombinatsiyasi yagona so‘z birikmasi sifatida beriladi.

**TAYYOR BIBLIO-  
GRAFIK MA’LU-  
MOTLAR FONDI-**

Kutubxona-ma’lumot-bibliografik apparatning avval bajarilgan yozma bibliografik ma’lumotnomalari to‘plamidan iborat bir qismi.

**TANLANGAN  
ASARLAR -**

Muallifning eng ahamiyatli asarlarining bir qismini o‘z ichiga olgan bir jildlik yoki ko‘p jildlik asar nashri.

**TANLANMA BIB-  
LIOGRAFIK QO‘L-  
LANMA-**

Ma’lum bir mezon asosida tanlangan (saralangan) hujjatlarni aks ettiruvchi bibliografik qo‘llanma.

**TAKROR  
NUSXANI  
QO‘SHIB YOZISH-**

Kutubxona kataloglarida qo‘srimcha (dublet) nusxani ro‘yxatini olish jarayoni. Kutubxona fondida hujjatning istalgan nusxasini izlash imkon yaratish maqsadida qilinadi.

**TAKROR NASHR-**

Bosma qoliplardan qator bosilgan (ya’ni o‘zgarishsiz) qayta nashr (keng ma’noda har qanday o‘zgarishsiz nashr).

**TAKSONOMIK  
TURKUMLAR-**

Tasniflash terminologiyasida qo‘llanila-

digan kutubxona-bibliografik tasniflashning turli tizimlariga oid tasniflash bo‘linmalarini ifodalovchi “bo‘lim-kichik bo‘lim” - “bo‘linma” - “kichik bo‘linma” tushunchalari.

**TALAFFUZ  
LUG‘ATI-**

So‘zlarning to‘g‘ri (normativ) talaffuzini beruvchi lug‘at.

**TALABNI ISH-LASH TARZI-**

Axborot-izlanish tilida axborot talabining asosiy mazmunini ifodalovchi matn.

**TARJIMA  
LUG‘ATI-**

Ikki yoki undan ortiq tillarning ma’lum belgi bo‘yicha (freezeologik, terminlar, keng qo‘llaniladigan so‘zlar) tanlab olingan til birliklari (so‘zlar) qiyos qilinadigan lug‘at.

**TARKIBLI  
INDEKS-**

Har bir tasniflash jadvallarining asosiy indeksi yoki murakkab indeks sifatida berilishi mumkin bo‘lgan ikki yoki undan ortiq indekslarning birligi, (birikmasidan) iborat tasniflash indeksi. Bunga muvofiq “qurama indeks” atamaisini qo‘llash yaramaydi.

**TARJIMA  
NASHRI-**

Matnni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilingan nashri.

## TARJIMALAR

### FONDI-

Kutubxona fondining e'lon qilinmagan ilmiy va ilmiy texnik, adabiy tarjimalaridan iborat bir qismi.

## TARJIMAYI HOL

### LUG'ATI

#### (biografiya)-

Turli shaxslar (siymolar) ning hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan lug'at.

## TARKIBIY (kutubxona statistika-sida)

### KO'RSAT-

### KICHLAR-

Biron-bir hodisaning tuzilishi, tarkibiy qismlarini aniqlaydigan, qismi butun hodisaga bo'lgan munosabatini ifodalaydigan nisbiy o'lchamlar. Masalan: bilim sohalari bo'yicha kitob berishni taqsimlash, kitobxonlarni ijtimoiy holati bo'yicha guruhlashtirish, kutubxona tarmog'ini shahar va qishloq o'rtasidagi taqsim qilish qismini butunga bo'lish yo'li bilan hisoblangan va foiz (protsentlarda) ifodalanadi va shunday tarzda qismining umumiy butunlikdagi salmog'ini ko'rsatadi.

## TARTIB RAQAMI

### QO'YILMAGAN

### SAHIFA-

Nashrni yalpi raqamlash ichiga kirmagan sahifa. (qo'shimcha ilova, varaqa va h.k.)

## TARTIBLI

### INDEKS-

Tasnifiy bo'linmalarning tartib son belgilariiga ega bo'lgan indeksatsiya.

## **TASVIRIY ASARLAR-**

Kutubxona fondining tasviriy san'at asarlari nusxalaridan, tasviriy plakatlaridan, albomlardan, fotosur'atlaridan va h.k. iborat bo'lgan bir qismi.

## **TASVIR UZATISH QURILMASI-**

Ekranda (tasvir tushurish pardasi) shaffof yoki shaffof bo'lмаган matodagi tasvirini tushurish uchun xizmat qiladigan moslama.

## **TASNIFFLASHNING ASOSIY JADVAL- LARI**

O'z ichiga bilim sohalari bo'yicha tasnifiy bo'linmalarining iyerarxik (bosqichli) jadvallarni olgan tasniflash jadvallarning tarkibiy qismi.

## **TASNIFFLASH JADVALLARI-**

Bosma asarlarni va boshqa hujjatlarni mantiqiy ketma-ketlikda tartib bilan joylash maqsadida tasniflash indekslarini aniqlash uchun qo'llanidagan amaliy qo'llanma, asosiy jadvallar va alfavit-predmetli ko'rsatkichlardan tashkil topadi: kartochka yoki mashina o'qiydigan shaklda mikrotashuvchilarda, shuningdek, kitob nashri shaklida bo'lishi mumkin.

## **TASNIFFLASH JADVALLARIDA SITEMALI KATA- LOGNING HAVO LA-MA'LUMOT APPARATI-**

Tasniflash bo'limlar o'rta sidagi aloqa va

mutanosibliklarning aniqlovchi  
ko'rsatmalar majmui.

**TASNIFFLASHNING  
YORDAMCHI  
JADVALLARI**

Tasniflash jadvallarining tarkibiy qismi bo'lib, o'z ichiga yordamchi belgilar (mavzu shakliy, joy-o'lka, xronologik, etnik, til va boshqa belgilar)ga asoslangan tasniflash bo'linmalarining jadvallarini oladi.

**TASNIFFLASH-  
NING SOHA  
JADVALLARI**

Tegishli ilm sohasiga oid jadvallarning to'liq variantini va unga yaqin sohalarga oid tasniflash jadvallaridan qisqartirib olingan termani o'z ichiga olgan tasniflash jadvallari.

**TASNIFFLASHNING  
UNIVERSAL JAD-  
VALLARI**

Barcha bilim sohalari bo'yicha tasnif jadvallari. Tasniflashning universal jadvallari turli darajadagi detallashtirilgan ko'rinishlarda (to'liq, o'rtalik va qisqartirilgan), shuningdek, belgilangan vazifasiga ko'ra e'lon (nashr) qilinadi. (Ommaviy, ilmiy va kutubxonalar uchun)

**TAXALLUS-**

Muallifning o'z asarini imzolash uchun o'ylab topgan ismi.

**TAHLILIIY AN-  
NOTATSIYA-**

Bibliografiyasi tuzilayotgan hujjatning yoki biron-bir qismini mazmunining yo'nalishini ta'riflovchi annotatsiya.

## TAXLILY BIBLIO- GRAFIK TASVIR-

Hujjat tarkibiy qismining bibliografik tasviri.  
O‘z ichiga tarkibiy qism va nashri haqidagi  
ma’lumotlarni olgan ikki qismli tasvir.

## TAHLILY PRED- METLASHTIRISH-

Nafaqat butun bir hujjatga, balki uning  
alohida qismlariga, (bob. Bo‘lim va h.k.)  
ham predmetli ruknlar beriladigan pred-  
metlashtirishdir.

## TAHLILY SISTE- MALASHTIRISH-

To‘liq indeksi, faqat bir butun siste-  
malashtirish obyektining mazmuniga  
emas, balki uning alohida qismini ham  
ifodalovchi sistemalashtirishdir.

## TAHLILY QO‘SHMA TASNIF TIZIMI

Ko‘p jihatli ma’lumotlarni izlash uchun  
mukammal, murakkab tuzilishga ega  
bo‘lgan tasnifiy tizim. Asosiy bo‘linmalar  
bilan sohalari bo‘yicha o‘zaro bog‘liq  
(iyerarxik) qatorni tashkil etadi. Har bir  
soha terminologiyasining dastlabki tah-  
lilini o‘tkazish natijasida tuzilgan bir  
necha turkum jadvallar bor. Tasnifning  
barcha yoki ko‘pchilik bo‘linmalari uchun  
xos bo‘lgan (tipovoy) namunali belgilar  
umumiyligi kategoriyalarning yordamchi jad-  
vallarida aks ettiriladi. Maxsus jadvalda  
tushunchalar o‘rtasida aloqalarning shartli  
belgilari ko‘rsatilgan. Hujjatlar har bilim  
sohasi uchun ko‘zda tutilgan kategoriylar  
asosida tahlil qilinadi. Jadvallardan

topilgan indekslar alohida tushunchalar ni mazmuni bilan bir qatorda ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar tizimini ifodalovchi tasnifiy shartli ifoda (formula) asosida umumlashtiriladi.

#### TAHRIR QILISH-

1. Nashrni tayyorlash va chiqarishga rahbarlik qilish.
2. Nashrga mo‘ljallangan asarning ijtimoiy qimmatini aniqlash, ya’ni uning mazmuni va shaklining maqsadga va kitobxonning zamonaviy siyosiy, ilmiy, badiiy talablarga muvofiqligini aniqlash hamda muallifga nashr qilishi mumkin bo‘lgan asarni mukammal holatga keltirish uchun yordam berish.

#### TASHKILIY TA’MINOT-

Avtomatlashtirilgan kutubxonaning tashkiliy tuzilishi va lavozimlar uchun yo‘riqnomalar majmuuni o‘z ichiga olagan va kutubxonani bir maromda ishlashi uchun lozim bo‘lgan farmoyish va boshqa rasmiy hujjatdir.

#### TAYANCH SO‘ZLI YORDAMCHI KO‘RSATGICH-

Bibliografik qo‘llanmada aks etgan hujatlarning sarlavhasi tarkibida bo‘lgan asosiy so‘zlarning alfavit tarzidagi ro‘yhatidan iborat yordamchi ko‘rsatgich.

#### TERMOGRAFIYA-

Maxsus qog‘ozning matn yoki o‘zga grafik tavirning nusxasini infra qizil nurlar ta’sirida o‘ziga olish xususiyati-

ga asoslangan hujjatlarning nusxalash uslubi.

#### **TERMINAL-**

Ma'lumotlarni uzatish vositalari yordamida (masalan teletayp) elektron hisoblash mashinasi bilan bog'lanadigan axborotni qabul qilish, uzatish moslamasi.

#### **TEXNIK ADABIYOT-**

Texnika, ishlab chiqarish, sanoat masalalari bo'yicha adabiyotlar majmuasi.

#### **TEXNIK KUTUBXONA-**

Ilmiy texnika taraqqiyotiga va texnika bilimlarni ommalashtirishga va ilg'or ishlab chiqarish tajribasini keng yoyishga yordam beruvchi maxsus kutubxona. Texnik kutubxonalar tarmog'ida korxona, zavod, fabrika, sanoat kombinatlari qurilish, ustaxonasi kutubxonali ITBning ilmiy texnik kutubxonalari, sanoat qurilish, transport aloqalarining markaziy ITKlari yetakchi o'rinni egallaydilar.

#### **TEXNIKAVIY TALABLAR-**

Sanoat mahsulotining texnikaviy hujjatlari kompleksiga kiruvchi: hujjat, mahsulotga bo'lgan texnikaviy talab kompleksi, qabul qilish va yetkazish qoidalari va h.k.larni o'z ichiga oladi. Masalan: nor-mativ nashr turi.

#### **TEXNIK ISHLOV BERISH-**

Bosma asarlarning va boshqa hujjatlarni kutubxona ishlovidan chiqarishning bir

qismi. O‘z ichiga tamg‘alash, inventar nomer qo‘yish, shifr qo‘yish, kitob formulyarlarini jihozlash, kitob cho‘ntaklarini yopishtirish va boshqalarni oladi.

**TEXNIK  
TA’MINOT-**

Kutubxona jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishga mo‘ljallangan texnik vositalar (shaxsiy kompyuterlar, orgtexnika, serverlar, printerlar va h.k.) majmui.

**TEXNOLOGIK  
XARITA-**

Ma’lum davrani (tsiklni) tashkil etuvchi bir yoki bir necha tarkibiy bo‘linmalarida bajariladigan jarayon va ishlarini belgilangan shakldagi izchil shakllari.

**TIBBIYOT KUTUB-  
XONASI-**

Barcha tibbiyat sohasidagi xodimlarga xizmat ko‘rsatadigan kutubxona. Tibbiy kutubxonalar tarmog‘ini quyidagilar tashkil etadi: 1. Yirik ilmiy kutubxonalar-respublika, viloyat tibbiy kutubxonalari, respublika TFA fundamental kutubxonasi.

**TIRAJ (nusxa)-**

Nashr yoki nashriyot mahsuloti nusxalarining soni.

**TILI KO‘RSA-  
TILGAN YOR-  
DAMCHI  
KO‘RSATKICH -**

Bibliografik qo‘llanmada aks ettirilgan hujjatlar .yozilgan tillarning alfavitli ro‘yxatidan iborat yordamchi ko‘rsatkich.

## TIL TA'MINOTI

Avtomatlashtirilgan kutubxonada ishlatalidigan til vositalari majmui. Til ta'minoti o'z ichiga atamalar, tushunchalar, yuqori darajadagi tillarni, kodlashtirish tillarini va bibliografik axborot tasvirini oladi.

## TITUL (unvonli)

### MUHARRIR-

Muallif yoki mualliflar jamoasining asar ustida ishga boshchilik qiladigan e'tiborli mutaxassis, yozuvchi, olim. Uning ismi, nasabi sarvaraqada beriladi.

## TOBOQ-

Nashriyot ishida poligrafik ishlab chiqarishda hajmini hisoblash birligi (mualliflik, qog'oz, shartli bosma, hisob nashri, bosma).

## TOKCHA-

Bosma asarlarni saqlashga mo'ljallangan bir necha qavat qilib birlashtirilgan ochiq tokchalardan iborat moslama.

## TOKCHA

### INDEKSI-

Fondni sistemali joylashtirganda hujyatning saqlanish joyini ko'rsatuvchi tasnifiy indeks. Bu ma'noda "SHifr indeksi" (shartli belgi indeksini) qo'llab bo'lmaydi.

## TOKCHA

### AJRATKICHI-

Fondning joylashishiga mos ravishda tokchadagi bosma asar guruhlarini bir-biridan ajratib turuvchi biron-bir materialdan (yog'och, plastmassa, karton) qilingan moslama. Tokcha ajratkichi bo'lim, muallifning ismi, nasabi, jurnal nomi va h.k. ko'rsatiladi.

|                                  |  |
|----------------------------------|--|
| TORTIQ -                         | Alovida shaxs, bir necha shaxs, muassa-sa yoki boshqa kutubxona tomonidan ku-tubxonachiga hujjatni beg‘araz (bepul) berish. Tortiqlar fondning to‘ldirishning qo‘shimcha manbasi hisoblanadi.    |
| TIPOGRAFIK<br>KATALOG -          | Bibliografik qaydlari hujjatlarning tok-chalarida turishiga mos ravishda joylash-tirilgan kutubxona katalogi. Bu ma’noda “tokchali ro‘yxat” atamasini qo‘llash yaramaydi.                        |
| TOPONIMIK<br>LUG‘AT -            | Jo‘g‘rofiy joylar nomlarining lingvistik lug‘ati.  |
| TUZUVCHI-                        | Nashrni bir yoki bir necha mualliflar-ning asarlaridan yoki bosma, qo‘lyozma va o‘zga materiallarning turli man-balardan to‘plib bosish uchun ishlab ber-gan shaxs yoki tashkilot.               |
| TUMAN KUTUB-XONASI-              | Tuman kutubxonalari uchun mu-vofiqlashtirilgan metodik markaz ham-da KAA (kutubxonalararo abonnement) markazi vazifalarini bajaruvchi univer-sal ommaviy kutubxona. MKTda - marka-ziy kutubxona. |
| TO‘LIQ BIBLIO-<br>GRAFIK TASVIR- | Barcha zaruriy (majburiy) va barcha fakultativ (ixtiyoriy) unsurlarni o‘z ich-iga olgan tasvir.  |

|                               |  |
|-------------------------------|--|
| TO'LIQ INDEKS-                | Hujjat aks etgan sistemali katalogning bo'limini ko'rsatuvchi tasnifiy indeks. Agar hujjat sistemali katalogning bir bo'limida aks ettirilgan bo'lsa, to'liq indeks katalog indeksi bilan mos bo'ladi. Ko'p marta aks ettirilganda to'liq indeksda hujjat aks etgan barcha bo'limlar ko'rsatiladi. |
| TO'LDIRILGAN NASHR-           | Oldingi nashrdan farqli ko'pincha material kiritilgan (matn, illyustratsiya va h.k.) qayta nashri.   |
| TO'PLAM-                      | Bir yoki bir nechta muallif qalamiga mansub qator asarlarni, referatlarni yoki turli rasmiy va ilmiy materiallarni o'z ichiga olgan nashr.   |
| TO'DALAB ISHLOV BERISH-       | Mazmuni yaqin bo'lgan yoki boshqa belgilariغا ko'ra mos bo'lgan hujjatlarni bir to'daga jamlashdan iborat kutubxona ishining usuli.  |
| UMUMIY ANNO-TATSIYA-          | Bibliografiyalanayotgan hujjatning umumiy ta'rifini beruvchi annotatsiya.  |
| UMUMLASHMA BIBLIOGRAFIK QAYD- | Bir asarning turli nashrlar (uning qayta) qilingan nashrlari, bosma nusxalari,   |

tarjimalari va u bilan bog'liq bo'lgan boshqa asarlar (taqrizlar), referatlar va h.k.) haqidagi ma'lumotlarni birlashtiruvchi qayd.

**UMUMIY BIBLIO-  
GRAFIK  
QO'LLANMA-**

Bibliografik axborot talabgorlarining keng doirasi uchun mo'ljallangan, aniq maqsadga va belgilangan kitobxonlarga ega bo'lgan qo'llanma. Masalan: Davlat bibliografik ko'rsatkichi.

**UMUMIY KUTUB-  
XONASHU-  
NOSLIK-**

Kutubxonashunoslikning bir qismi bo'lib, mazmunini quyidagilar tashkil etadi: umumnazariy, metodologik va tarixiy muammolar, kutubxonashunoslikning predmeti, tarkibiy tuzilishi va ob'ekti, tipologiya va terminologiya, qonuniyatlar, boshqa fanlar bilan bo'lgan munosabati va fanlar majmuasidagi o'rni, kutubxonashunoslik ilmining tarixi. Umumi kutubxonashunoslik atamasi maxsus adabiyotga XX asrning 40 yillari oxiri, 50 yillarning boshida kirib keldi.

**UMUMIY  
SARLAVHA -**

Ko'p jildlik va seriyali nashrning har bir jildiga ko'rsatilgan (har bir jildning alohida sarlavhasidan farqlanuvchi) sarlavha.

**UMUMLASH-  
TIRUVCHI  
SARLAVHA-**

Seriyali nashrda e'lon qilingan hujjatlar-

dagi bir guruh tarkibiy qismlarning (maqola, xabar) taqriz) munozara - bahs, ilmiy axborot, ma'ruza va boshqa materialarning) saralavhasi. Nashrda bosilgan umumlashtiruvchi sarlavha asosiy sarlavha hisoblanadi.

#### UNIVERSAL BIBLIOGRAFIYA-

Bibliografiyalanayotgan obyektlarning yuzaki belgilariga tayangan bibliografiya.

#### UNIVERSAL BIBLIOGRAFIK QO'LLANMA-

Bibliografiyalanayotgan hujjatlarni sohaviy mazmuni bilan cheklanib qo'yilmaydigan bibliografik qo'llanma. Uni tuzishda odatda faqat tashqi (formal) chegaralanish qo'llaniladi: masalan: tipologik (kitoblar, vaqtli nashrlar, maqolalar va sh.k.) xronologik va boshqalar.

#### UNIVERSAL KUTUBXONA-

Kitobxonlarning turli-tuman ehtiyojlarini qondiruvchi shaxsnинг har tomonlama barkamol o'sishga yordam beruvchi, aholining umumta'lim va kasbiy darajasini boyituvchi: universal kutubxona fondiga ega.

#### UNIVERSAL FOND-

Barcha yoki ko'pchilik bilim sohalari bo'yicha turli-tuman bosma asarlar va boshqa hujjatlarni o'z ichiga olgan kutubxona fondi.

## UNIVERSAL O'NLI

### TASNIF (UO'T) -

"O'nli tasnif" asosida belgiyalik olimlar Pol Otle (1868-1944) va Anri Lafonten (1854-1943) tomonidan 1895-1905 yillarda Halqaro bibliografik institutda (Bryussel shahri) ishlab chiqilgan kutubxona-bibliografik tasnifning iyerarxiya-ga asoslangan kombinatsion tizim.

### UNIFIKATSIYA-LASHGAN SAR-LAVHANI SAQLOVCHI SARLAVHA-

Turli sarlavhalar ostida chop etilgan, anonim klassik asarning keng tarqalgan shaklini saqlovchi sarlavha.

### USLUBIY VA HUQUQIY TA'MINOT-

Avtomatlashtirilgan kutubxona faoliyati uchun zarur uslubiy ko'rsatmalar, huquqiy va me'yoriy hujjatlar majmui.

### USLUBIYATCHI-

Vazifasi ilmiy-metodik ishlarni (metodik rahbarlik, metodik tavsiyanomalarni ishlab chiqish va h.k.) bajarishdan iborat bo'lgan kutubxona xodimi.

## - V -

### VARAQ-

Asosan, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy yoki ishlab chiqarish-texnika axborotidan iborat bo'lib, hajmi 4 sahifadan oshmagan matnli varaqli vaqtli yoki davomli nashr.

Bu ma'noda "Varaqa" terminini qo'llash yaramaydi.

**VARAQA  
NASHRI**

Biriktirilmagan, istalgan o'lchovdagi bir yoki bir necha varaqli bosma mahsulot ko'rinishidagi nashr.

**VAQT ME'YORI -**

Bir tadbirni o'tkazish maqsadida bajari-ladigan bir jarayon, bir tadbir uchun ajratilgan vaqtning aniq belgilangan o'lchovi.

**VAQTINCHA  
SAQLANADIGAN  
HUJJATLAR -**

Vaqtincha ahamiyatga molik axborotni tashuv-chi va shu sababli nisbatan qisqa vaqt ichida fonddan olib tashlanadigan hujjatlar.

**VILOYAT  
KUTUB-  
XONASI -**

Hududiy muvofiqlashtirilgan ilmiy-uslubiy markaz hamda viloyat kutubxonalarini uchun kutubxonalararo abonnement markazi vazifalarini bajaruvchi universal, ilmiy kutubxona.

- X -

**XALQARO  
AXBOROT  
TIZIMI (XAT)-**

Yagona tizimga birlashtirilgan va munta-zam ravishda biron-bir sohadagi axborot ishini amalga oshiruvchi turli mamlakat axbort tashkilotlarining yig'indisi.

## **XALQARO BIBLIO-**

**GRAFIK**

## **QO'LLANMA-**

Davlatlararo kooperatsiya asosida yoki xalqaro tashkilot tomonidan yaratilgan bibliografik qo'llanma.

## **XALQARO KITOB**

## **AYRIBOSHlash-**

Turli davlat kutubxonalari yoki muassasalar o'rtaсидаги kitob almashish. Ish-tirok etuvchi tomonlar uchun o'zaro foydali asosda o'tkaziladi va ikki yoqlama yoki ko'p tomonlama shartnomaga konvensiyalari asosida qabul qilingan bitimlarni bajarish majburiyatlarini har bir tomon o'z bo'yniga oladi.

## **XALQARO KUTUB-**

**XONALARARO**

**ABONEMENT**

**(XKA) -**

Belgilangan qoidalar asosida turli mamlakat kutubxonalari fondlaridan o'zaro foydalanishga asoslangan kutubxona abonementi.

## **XALQARO**

**KUTUBXONA**

**TASHKILOTI-**

Bir necha (ko'p) davlatlarga tegishli xalqaro tashkilot huquqiy holatiga ega bo'lgan vakillarining birlashmasi, o'z oldiga turli mamlakati kutubxonalari o'rtaсидаги hamkorlikni rivojlantirishni, bиргаликни, ilmiy izlanishlarni olib borishni, tajriba almashishni maqsad qilib qo'yadi.

**XALQARO  
KUTUBXONA  
HISOB ISHI-**

Barcha yoki ko‘pchilik mamlakatlarda kutubxona ishini ahvolini o‘rganuvchi kutubxona statistikasining bir turi. Xalqaro kutubxona statistikasining kuzatish dasturlari va uslubiyatini ishlab chiqish bilan materiallarni tayyorlash va nashr etish ishlari bilan YUNESKO va IFLA shug‘ullanadi.

**XALQARO  
STANDART  
BIBLIOGRAFIK  
TASVIR (ISBD)-**

Kitob, seriyali nashr va boshqa hujjatlarining bibliografik tasvirini tuzishga bo‘lgan talablarni xalqaro miqyosda belgilovchi hujjatlar yig‘indisi.

**XALQARO  
STANDART  
KITOB RAQAMI  
(ISBD)-**

Kitob nashrlarini identifikatsiyalash maqsadida kodlash (shartli belgi bilan ifo-dalash) uchun mo‘ljallangan ro‘yxatlash mazmunidagi harfli raqam kod: ISBD- qisqartma so‘zi va odatda 10 raqamni o‘z ichiga oladi. ISBN xalqaro va milliy vakolatxonalarini tomonidan yagona uslubi-yat asosida beriladi.

**XARID QILISH-**

Savdo tashkilotlaridan yoki alohida shaxslardan kutubxona tomonidan sotib olish yo‘li bilan qo‘lga kiritilishi. Sotib olish fondni boyitishning asosiy manbasidir.

**XATO JOYLANISH**- Hujjatning fondda yoki alohida shaxslardan kutubxona tomonidan sotib olish yo‘li bilan qo‘lga kiritilishi. Sotib olish fondni boyitishning asosiy manbasidir.

**XIZMATCHI  
KATALOGI**

Kutubxona xodimlari foydalanishlari uchun mo‘ljallangan kutubxona katalogi.

**XIZMAT  
KO‘RSATISH  
ME’YORI-**

Ma’lum vaqt oralig‘ida (ish kuni, oy, yil) bir kutubxonachiga to‘g‘ri keladigan kitobxonlar soni, kutubxonaga keluvchilar va h.k.ning belgilangan miqdori.

**XOTIMA  
(so‘nggi so‘z)-**

1. Ishning yakuni, umumlashma va xulosalar beriladigan yakunlovchi qismi.
2. Nashrning asosiy matni bilan tanishib bo‘lgan kitobxon uchun mo‘ljallangan, muallif va uning asralari haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan asosiy matnidan so‘ng berilgan nashr apparatlarining bir unsuri.

**XOTIRA NASHRI  
(yodgorlik nashri)**

Biron-bir shaxs (olim, yozuvchi va h.k.) xotirasiga chiqarilgan, o‘z ichiga uning faoliyati bilan bog‘liq maqola, ma’lumotlarni olgan nashri.

**XORIJUY SO‘ZLAR  
LUG‘ATI-**

Boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlarni o‘z ichiga olgan va ularning ma’nosini tushuntirib beruvchi lingvistik lug‘at.

**XRESTOMATIYA****(majmua)**

Tartib bilan tanlangan materiallarning (badiiy, ilmiy, publistik asarlar yoki ulardan olingan parchalar, shuningdek, turli hujjatlar) to‘plamidan iborat o‘quv qo‘llanmasi.

**XRONOLOGIK****KATALOG-**

Bibliografik qaydlari hujjatlarning nashr etilgan yillari (yoki birinchi nashri yili) bo‘yicha joylashtirilgan kutubxona katalogi.

**XRONOLOGIK-****BIBLIOGRAFIK****QO‘LLANMA-**

Bibliografik qaydlar (yozuvlari) aks ettirilgan hujjatlarning nashr etilgan va yoki yozilgan vaqtiga xronologiyasi bo‘yicha joylashtirilgan bibliografik qo‘llanma.

**XRONOLOGIK-****YORDAMCHI****KO‘RSATKICH-**

Bibliografik qo‘llanmada aks ettirilgan hujjatlarning nashr etilgan va yaratilgan davrning xronologik ro‘yxatidan iborat yordamchi ko‘rsatkich.

**XUSUSIY BIBLIO-****GRAFIK****QO‘LLANMA-**

Bir shaxsga bag‘ishlangan bibliografik qo‘llanma.

**XUSUSIY KUTUB-**

**XONASHUNOSLIK-** Kutubxona fondlari haqidagi ta’limotni, kutubxona kataloglari haqidagi ta’limotni,

kutubxonada o‘qishga rahbarlik qilish nazariyasini, kutubxonalar va kutubxona tarmoqlari faoliyati nazariyasini o‘z ichiga olgan kutubxonashunoslikning bir bo‘limi.

**XUSUSIY NASHR-** Nashriyot tomonidan butunlay o‘z hisobiga chiqarilgan nashri. (bunda buyurtmachi hisobiga va uning xom ashyosidan chiqariladigan buyurtma nashrdan farq qiladi.)

**XUSUSIY SARLAVHA-** Alovida jildning, nashrning ko‘p jildli yoki seriyali nashr tarkibidagi alovida qismining umumiy sarlavhadan farq qiluvchi sarlavhasi.

## - Y -

**YANGI ADABI-YOTLAR  
KO‘RGAZMASI-**

Ko‘rgazmali targ‘ibot va kitobxonlar fondiga tushgan yangiliklar haqida axborot berish maqsadida doimiy tarzda o‘tkaziladigan kutubxonadagi yangi kitoblar ko‘rgazmasi.

**YANGI NASHR-**

Mazkur nashriyot tomonidan birinchi marotaba chiqarilayotgan (qayta nashrdan farqli) nashr.

**YANGI SO‘ZLAR  
LUG‘ATI-**

Avval nashr etilgan lug‘atlarga kirmajan yangi so‘zlarning ta‘rifini o‘z ichiga olgan lingvistik lug‘at.

**YAGONA O'LKA  
FONDI-**

Yagona shaxobcha sifatida shakllangan va ishlatiladigan ma'lum joy, nohiya, viloyat, o'lka, respublika kutubxonalarining o'zaro aloqador fondlari majmui. Tuzilishining asosiy shartlari: koordinatsiyalangan (shu jumladan komplektlashning umumlashma mavzuiy-tipologik rejasiga asosida) va kooperatsiyalangan komplektlashtirish, fond tarkibini ko'rsatkich, ma'lumot qo'llanmalari va yig'ma kataloglar va ma'lumot bibliografik appartining boshqa unsurlarida ochilishi, fondning depozitar asrash hududiy tizimini amalga oshirish, kutub-xonalararo ishlatilmaydigan adabiyotlar bepul qayta taqsimlash, KAA (MBA) yordamida va kitobxonlarga ularning talablariga mos javob bera oladigan fondlarni ko'rsatish yo'li bilan fondlarni o'zaro faol ishlatish.

**YAGONA  
KUTUBXONA  
FONDI-**

Davlat kutubxonalarasi, shuningdek, joylashish va sohaviy printsiplar bo'yicha majburiy muvofiqlashish asosida tashkil etiladigan jamoat kutubxonalarining o'za-ro aloqador va o'zaro foydalilaniladigan fondlari majmuasi.

**YIG'MA  
BIBLIOGRAFIK  
TASVIR-**

Ko'p jildli yoki seriyali nashrning yohud uning tarkibiga kirgan bir nechta jild, son va sh.k.larning bibliografik tasviri.

Ikki qismdan: umumiy va xususiy qismdan iborat bo‘ladi.

**YIG‘MA BIBLIOGRAFIK TASVIR-NING UMUMIY QISMI-**

O‘z ichiga ko‘p jildli yoki seriyali nashrlarni yoki bir necha jildning umumiy ta’rifini beruvchi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan umumlashma bibliografik tasvirning bir qismi.

**YIG‘MA BIBLIOGRAFIK TASVIRNING MAXSUS QISMI-**

Seriiali yoki ko‘p tomli (jildli) nashrning alohida tomlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oluvchi yig‘ma bibliografik tasvir ma’lumotlarining bir qismi.

**YIG‘MA KATALOG-**

Bir necha mustaqil kutubxona yoki o‘lka kutubxonalarini tarmog‘ining fondlarini aks ettiruvchi kutubxona katalogi. Yig‘ma katalogda sigla belgisi yordamida u yoki bu adabiyotni kutubxona fondida bor yoki yo‘qligi ko‘rsatiladi.

**YILNOMA-**

Yiliga bir marta chiqariladigan va sarlavhada belgilangan bir yillik ma’lumotlarni mujassamlashtirgan davriy yoki davomli nashr.

**YILLIK TO‘PLAM-**

Gazetalar (asosiy) va jurnallar (qo‘sishimcha) fondining hajmini hisob qilish birli-

gi gazeta va jurnallar yillik sonlarining majmuasi.

**YOZMA  
BIBLIOGRA-  
FIK MA'LUMOT-**

Kitobxonga yozma hujjat shaklida beriladigan bibliografik ma'lumot.

**YORDAMCHI  
FOND -**

Kitobxonlar tâlabini tez qondirish maqsadida kutubxonaning xizmat ko'rsatish bo'limlariga yaqinlashtirilgan, ko'p tabaq qilinadigan hujjatlardan iborat kutubxona fondining bir qismi.

**YORDAMCHI  
KO'RSATKICH -**

Hujjat haqidagi ma'lumotlarni qo'llanmaning asosiy matnida berilgandan o'zgacha tarzda aks ettiruvchi bibliografik qo'llanmaning bir qismi. Yordamchi ko'rsatkich odatda hujjatlarning bibliografik tasvirini o'z ichiga olmaydi va qo'llanmaning asosiy matnidagi tegishli bibliografik yozuvlarga ishora qiladi.

**YORUG'LIK  
YORDAMI-  
DA NUSXALASH -**

Yorug' sezgir qog'ozning ustki qoplamasi tarkibiga kiruvchi birikmalarining ultrabinafsha nurlar ta'sirida parchalanishi xususiyatiga asoslangan hujjatlar ni nusxalash usuli.

**YOTIQ  
KARTOTEKA-**

Kartochkalar yassi qutilarda yotiq holda

va ustma-ust, bosqichli joylashgan kartoteka. Kartochkalarning quyi qirqmasida hujjat to‘g‘risida ma’lumotlar yoki indekslari ko‘rsatiladi. Kutubxonalar amaliyotida, shuningdek, “robot-kardekslar” - mexanizatsiyalangan yotiqlar kartotekalar qo‘llaniladi. Ularda qutilar avtomatik tarzda harakatda bo‘ladi. Qarang: Yassi kartoteka.

## YUBILEY NASHRI

(qutlov nashri)-

Yubiley sanaga atab chiqarilgan yaxshi bezatilgan nashr.

- O‘ -

## O‘ZGARISH SUR’ATINING KO‘RSATKICH- LARI-

O‘rganilayotgan hodisaning vaqt mobaynidagi o‘zgarishlari, rivojlanishi sur’atlarini ta’riflovchi nisbiy o‘lchamlar. Masalan: kutubxona fondlarining rivojlanish sur’atlari va h.k. turli vaqt mobaynidagi bir turdag'i ko‘rsatkichlarni chog‘ishtirish yo‘li bilan hisob qilinadi.

## O‘QISH-

Bosma axborot vositalari yordamida turli ehtiyojlarini (ma’naviy, kasbkorga oid, estetik va h.k.) qondirishga qaratilgan kommunikativ bilim orttirish faoliyatining turi. Qiroat qilish odamlarning ijtimoiy ongini va dunyo qarashini shakllan-tirishning eng muhim vositasidir. Qi-

roatning tarkibiy qismlari: adabiyotni targ‘ib qilish va o‘qishni boshqarish. Qiroat nazariyasining eng muhim yo‘nalishlari quyidagilardir: qiroat (o‘qish sotsiologiyasi, o‘qish psixologiyasi va uning tarbiyaviy ta’sirini o‘rganuvchi) o‘qish pedagogikasi.

#### O‘QILISH-

Kitobxonlarga xizmat ko‘rsatishda o‘qish tezligini ko‘rsatuvchi ijobiy ko‘rsatgich. Muayyan bir muddatda bir kitobxonga o‘rta hisobda berilgan bosma asar va nashrlarning miqdori bilan belgilanadi.

#### O‘QIMISHLILIK-

Bosma asarlar yordamida bilimning turli sohalari yoki biron-bir soha doirasida muayyan ma’lumotlarga ega bo‘lish. Umumiyo‘qimishlilik, ma’lum bilim sohalarida o‘qimishlilik tushunchalari farqlanadi. O‘qimishlilik o‘qiganlik, olgan bilimlarning sifati va ularning muntazamligi bilan farqlanib turadi.

#### O‘QISH

#### MOSLAMASI-

Hujjatlarning kattalashtirilgan mikronusxalarini ko‘rib chiqish uchun mo‘ljallangan moslama.

#### O‘QISHNING KENG

#### TARQALGANLIGI-

Aholini kitob o‘qishga jalb etish darajasi. O‘qishning keng tarqalganligini quyidagilar ifodalaydi: aholini o‘qiydigan o‘qimaydigan qismlarining nisbati, bosma asarlarga murojaat etishning doimiyligi darajasi, bo‘sh vaqtida kitob o‘qishga

sarf etilgan vaqtning salmog'i. O'qishning keng tarqalganligini o'rganish bilan birga o'qish sotsiologiyasi shug'ullanadi. Uni analiz qilish ommaviy o'qishni ilmiy o'rganishga, o'qishning jamiyat hayotidagi salmog'ini aniqlashga yordam beradi, shuningdek, aholi tomonidan kutubxona kitobidan real foydalanishni aniqlashga yordam beradi.

### O'QISH-NUSXALASH MOSLAMASI-

Ekranga (pardaga) mikronusxalarning ko'rib chiqish maqsadida kattalash-tirilgan tasvirini tushirish uchun hamda qog'ozi kattalash tirilgan nusxalarni tayyorlash uchun moslashtirilgan proyeksiyalash moslamasi.

### O'QIYDIGAN OPTIK AVTOMATI-

Harf, raqam va boshqa ramzlarni optik-elektron usuli bilan avtomatik tarzda aniqlash uchun mo'ljallangan apparat.

### O'QISH PSIXOLOGIYASI-

O'qish ko'nikmalari shakllantirish masalalari, adabiyotni tushunish va o'zlashtirish strukturasini o'qish paytda kishining holati va undagi ruhiy jaryonlarning xususiyatlarini, bularning bosma nashrning ko'rinish turgan sifati va shaxsning o'qish psixologiyasi xususiyatlariga bog'liqligini o'rganuvchi ilmiy soha.

**O'QISHGA RAG'-  
BATLANTIRUV-  
CHI OMILLAR -**

Adabiyotni tanlash, o'qishga da'vat etuvchi tashqi qiziqtiruvchi omillar. Rag'batlantiruvchi omillar qatoriga adabiyotni targ'ib qilishning kutubxona bibliografik shakllari kiradi: ko'rgazmalar, kutubxona plakatlari, kataloglari va kartotekalari, tavsiyanomalar ro'yxati, bibliografik qo'llanmalar, suhbatlar va h.k.

**O'QISHGA  
RAHBAR-  
LIK QILISH-**

O'qish mazmuni va xarakteriga, adabiyotni tanlashga va kutubxona faoliyatining turli usullari yordamida o'qilgan materialni o'zlashtirishga aniq maqsadni ko'zlagan holda pedagogik ta'sir o'tkazish.

**O'QISH TEZLIGI-**

O'qish samaradorligin ta'rifi, odatda bir minutda o'qib ulguriladigan so'zlar soni bilan o'lchanadi. O'qish malakasi o'qishdan ko'zlangan maqsad va matnnning subyektiv qiyinligiga bog'liq bo'ladi. Juhon andozalariga ko'ra o'qish tezligi bir daqiqa 260 so'z atrofiga bo'lishi mumkin.

**O'QISH SOTSIOLO-  
GIYASI-**

Bosma asarlarning jamiyatda xizmat ko'rsatish dalillari va qonuniylatlari o'rganuvchi ilmiy soha. O'qishning jamiyatshunoslik nuqtai nazaridan taftish qilish kitobxonlik talablariga va ehtiyojlarining ijtimoiy-hodisalar majmuasidagi

o‘rnini belgilaydi. Asosan eng yirik sotsiologik tadqiqot ishlari kutubxona xizmatini ko‘rsatish sohasida amalga oshiriladi. O‘qish jamiyatshunosligi uch asosiy vazifani bajaradi: o‘qishning ob’ektiv qonuniyatlarini o‘rganish (sof bilish sohasi) kitob va kutubxona ishini rejalash kelajagini belgilash va unga boshchilik qilish, (boshqaruv vazifasini) shaxsning ongini (ijtimoiy) shakllantirish (bosma asar yordamida) mafkuraviy vazifa.

## O‘QISH SAMARA-DORLIGI-

O‘qish natijalarini uning maqsadlariga mosligi sifatida tushuniladigan, matnni tushunish (qabul qilish) xarakteristikasi (bahosi). Quyidagilarga: a) matnning mazmuni va kompozitsion tuzilishiga, b) matnning til xususiyatlariga, v) matnning tashqi belgilariga (shrift, harf, terilishi, shriftrang), g) o‘qish sharoitiga (yorug‘lik va h.k.), d) o‘qish mahoratiga, f) o‘qilayotganda munosabatni belgilaydigan shaxsiy omillarga (qo‘yilgan maqsad, o‘qish sabablari va h.k.), j) o‘qish jarayoniga ta’sir qiladigan shaxsiy omillar (tushunish darajasi), z) matnning ta’sirchanligi va sh.k.

## O‘QISH EHTIYOJI -

O‘qishga hayotiy zarur faoliyat sifatida qaraydigan va o‘qish orqali maxsus tarzda kommunikativ, hayotiy, ahloqiy va boshqa zaruriyatlarini qondiruvchi ijtimoiy subjekt (shaxslar, guruqlar, jamoalar).

## O'LKA BIBLIOGRAFIYASI-

- 1.O'lkadagi uning har tomonlama (asosan ijtimoiy-iqtisodiy) rivojlanishiga yordam beruvchi bibliografik faoliyat.
2. Masmuni va yoki bibliografiyalanayotgan obyektlarning nashr etilishi joyi bilan bog'liq bo'lgan bibliografik faoliyat.

## O'LKA BIBLIOGRAFIK

### QO'LLANMASI-

1. .Jamiyat taraqqiyotining o'lka bilan bog'liq muammolar haqidagi adabiyotni akslantiruvchi bibliografik qo'llanma.
2. Ma'lum o'lkaning har tomonlama asosan ijtimoiy iqtisodiy, rivojlanishi uchun yordam berishga qaratilgan bibliografik qo'llanma.
3. Masmuni va nashr etilgan joyi bo'yicha ma'lum bir o'lka bilan bog'liq bo'lgan adabiyotning akslantiruvchi bibliografik qo'llanma.

## O'LKA KATALOGI-

Mazmunan ma'lum bir o'lkaga tegishli adabiyotni akslantiruvchi katalog. Materialni guruhlashtirish usuliga qarab sistemali, predmetli, alfavitli bo'lishi mumkin. O'lka sistemali katalog o'ringa chiqariladi. (KBT jadvallarida territorial namunaviy bo'linmalari jadvallariga O'UQ ning joyini aniqlash yordamchi jadvallarga muvofiq tashkil etiladi). O'lka (region) predmet katalogda o'lka birliklari predmetli ruknlarning sarlavhasi sifatida ko'rsatiladi. Alfavitli o'lka katalogi od-diy katalogdan jiddiy farq qilmaydi.

**O'LKA  
KUTUBXONASI-**

Mamlakatning ma'muriy - territorial bo'linishi (respublika, viloyat va h.k.) bilan bog'liq ravishda tashkil etilgan markaziy kutubxona.

**O'LKASHU-  
NOSLIKKA  
OID ADABIYOT-  
LAR FONDI-**

Kutubxona fondining ma'lum bir geografik region ma'muriy territorial, nohiya yoki alohida yashaydigan joy haqidagi ma'lumotni o'z ichiga olgan nashrlardan iborat bir qismi.

**O'NLI INDEK-  
SATSIYA-**

Tasniflash bo'limlari o'nli hisobi sistemali asosdagи belgilariga ega bo'lgan indeksatsiya.

**O'NLI TASNIF-  
LASH (O'T)-**

Yirik Amerika kutubxonashunosi Melvil Dyui (1851-1931) tomonidan ishlab chiqilgan kutubxona bibliografik tizimi. Sanoq sistemasi, bir turdagи har xil belgilar standart bo'lmalar orqali ifodalangan.

**O'ROG'LIQ XAT-**

Qo'lyozma asarning eng qadimgi turlaridan biri: varaqlari uzun qilib bir-biriga yopishtirilgan va o'ralgan holda bo'ladi.

**O'SMIRLAR  
KUTUBXONASI -**

14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan aholi-ga, shuningdek, o'smir yoshlar muammo-lari bilan shug'ullanuvchi kitobxonlar

kutubxona xizmatini ko'rsatuvchi universal toifadagi kutubxona.

## O'QUV-YORDAMCHI

### BIBLIOGRAFIK

#### QO'LLANMA-

Umumiy, maxsus o'rta va oliv ta'lim sistemasidagi o'quvchilarga (talabalarga) yordam uchun mo'ljallangan tavsiyano-ma bibliografik qo'llanma.

## O'QUV LUG'ATI-

Tilning leksik tarkibini o'rganish va o'rgatishni tashkil etish va yo'naltirishga yordam beruvchi, o'qitish maqsadida tuz-ilgan bir, ikki yoki ko'p tillik lug'at.

## O'QUV METODIK

#### QO'LLANMA-

O'quv fani, uning bir bo'limini o'qitish metodikasi yoki tarbiya metodikasi bo'yicha materiallarni o'z ichiga olgan o'quv nashri.

## O'QUV NASHRI-

Ma'lum bir ta'lim sistemasi asosida o'qitish va o'rganish qulay bo'lgan shaklda bayon etilgan ilmiy yoki amaliy mazmung-dagi izchil tarzda berilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan vaqtli bo'limgan nashr.

## O'QUV DASTURI-

Biron-bir o'quv fani yoki uning bir bo'lim, qismini o'rganish va o'qitilishining mazmu-ni, hajmi, tartibini belgilovchi o'quv nashri.

## O'QUV

### QO'LLANMASI-

Darslik o'rnini qisman yoki to'liq bosa oladigan va ushbu nashr sifatida rasman tasdiqlangan o'quv nashri.

## O‘XSHASH PRED-METLI RUKN -

Ifodasi hujjat perdmeti haqidagi tushunchalar hajmiga iloji boricha aniq mos keladigan predmetli rukn. Bu ma’noda “qisqa” predmetli atamasini qo’llash mumkin emas.

## - SH -

### SHAKL SARLAV-HASI-

Har bir mamlakatning qonun tasdiqlovchi hujjatlarining tasvirini alfavit qatoridagi bir joyga toplashga imkon beruvchi, mamlakat nom va hujjat turini o‘z ichiga olgan shartli tuziladigan sarlavha.

### SHARTLI AJRA-TUVCHI BELGILAR-

Tasvirning unsurlari va alohida mintaqalari (oldidan keladigan, mintaqalar ni va ularni tashkil etgan unsurlarni ajratuvchi va shuningdek, ularni tenglashtiruvchi (identifikatsiyalovchi) belgil lar (nuqta, chiziqcha, ikki nuqta, tenglik alomati belgisi, qiya chiziq va boshqalar).

### SHARTLI SARLAVHA-

Hujjatning sarlavha yoki biron-bir tarkibiy qismining yoqligida bibliografik tasvirni tuzgan shaxs tomonidan yaratilgan sarlavha.

### SHAHAR KUTUB-XONASI-

Shaharning ma’muriy chegarasi doirasida joylashgan va uning aholisiga xizmat ko’rsatuvchi kutubxona.

**SHMUTS TITUL-**

1. Qadimga bosma kitoblarda ifloslanishdan asrash uchun titul varag'idan oldin joylashgan qo'shimcha titul varaq.
2. Nashr qismi, bobi sarlavhasi, asarning sarlavhasi assosiy matnsiz berilgan varaq yoki sahifa.

**SHRIFT-**

Ma'lum bir yozuv sistemasidagi belgilarning grafik shakli. Bajarilish texnikasiga ko'ra qo'lyozma, chizma, naqshinkor terilgan shriftlar farqlanadi. Terilgan shriftlar tipografik shriftlar deyiladi.

**SHTRIXLI KOD-  
LASHTIRISH-**

Alfavitli raqamli ma'lumotlarni turli qalinlikdagi vertikal chiziqlar vositasida kodlashtirish. Maxsus qurilma yordamida o'qiladi va aniqlanadi hamda kompyuter yordamida ishlov beriladi. Shtrixli kodlash kutubxonalarda berilayotgan adabiyotlarni hisobga olishda ishlataladi.

**- CH -**

**CHASTOTA  
LUG'ATI-**

Nutqda ishlataladigan darajasiga ko'ra joylashtirilgan so'zlarning ro'yxatidan iborat lingvistik lug'at.

**CHIZMA TASVIRLI  
HUJJAT-**

Tasviri chiziqlar, chizgilar, oqish va qoramtil bo'yoqlar vositasida tushuriladigan tasviriy hujjat.

## SH A R T L I Q I S Q A R T M A L A R

1. AAIT-Avtomatlashtirilgan axborot izlash tizimi.
2. AKT-Avtomatlashtirilgan kutubxona tizimi.
3. APK-Alfavit perdmek ko'rsatkichi.
4. SNK-Sistemali nazorat kartotekasi.
5. BK-Bibliografik kartoteka.
6. ITA-Ilmiy texnik axboroti.
7. ITADT (GSNT)-Ilmiy texnik axboroti davlat tizimi.
8. IAF-Ilmiy axborot faoliyati.
9. ITARTT (DORNTI)-Ilmiy texnik axborotiga rahbarlikni tabaqalashtirishni ta'minlash.
10. KAAM-Kutubxonalararo abonenment markazi.
11. KBT-Kutubxona-bibliografik tasnifi
12. KITI-Kutubxona ilmiy tekshirish ishlari.
13. KSA -Kutubxona sirtqi abonementi.
14. MAF-Ma'lumotnoma axborot fondi.
15. MBF-Ma'lumot bibliografik fondi.
16. MBA-Ma'lumot bibliografik apparati.
17. MBXK-Ma'lumot bibliografik xizmat ko'rsatish.
18. MIA-Ma'lumot izlash parti.
19. MKT-Markazlashgan kutubxona tizimi.
20. MSK-Maqolalarning sistemali kartotekasi.
21. RJ-Referativ jurnal.
22. XSBD (ISBD)-Xalqaro standart bibliografik tasvir.
23. XSKR (ISBN)-Xalqaro standart kitob raqami.
24. XIT-Hujjatni izlash timsoli.

## MUNDARIJA

|                    |     |
|--------------------|-----|
| KIRISH SO‘ZI ..... | 2   |
| A .....            | 4   |
| B .....            | 21  |
| D .....            | 38  |
| E .....            | 42  |
| F .....            | 45  |
| G .....            | 60  |
| H .....            | 61  |
| I .....            | 64  |
| J .....            | 73  |
| K .....            | 76  |
| L .....            | 116 |
| M .....            | 117 |
| N .....            | 138 |
| O .....            | 145 |
| P .....            | 148 |
| Q .....            | 154 |
| R .....            | 159 |
| S .....            | 163 |
| T .....            | 173 |
| U .....            | 183 |
| V .....            | 188 |
| X .....            | 189 |
| Y .....            | 192 |
| O‘ .....           | 196 |
| SH .....           | 203 |
| CH .....           | 204 |
| Shartli            |     |
| qisqartmalar ..... | 205 |

**Saidov Ulug‘bek Aripovich, Nig‘matova Ziroat  
Azlarovich, Shamsiyev Shuhrat Murodovich**

**KUTUBXONASHUNOSLIK VA BIBLI-  
OGRAFIYA ATAMALARINING IZOHЛИ  
LUG‘ATI**

Muharrir: D. Saidova  
Nashr uchun mas’ul: O.Davlatov  
Musahih: A. Mahkamov  
Komputer  
ishlari: N.Mamanov

O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 700029,  
Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41.

Terishga berildi 01.06.2006 y. Bosishga ruxsat etildi 06.07.2006 y.  
Bichimi 60x84<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Bosma tabog‘i 14,0. Adadi 2000 nusxa.  
Buyurtma №42. Bahosi shartnoma asosida.

“Ma’rifat-Print” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. 700117, Toshkent  
shahri, Sugali Ota ko‘chasi, 7-a-uy.